

**S.ADILOVA, G.NORIMOVA, I.QUVONDIQOVA,
A.MIRAZIZOV, SH.YUNUSOVA**

O‘ZBEK TILI



TOSHKENT - 2016


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**S.ADILOVA, G.NORIMOVA, I.QUVONDIQOVA,
A.MIRAZIZOV, SH.YUNUSOVA**

O‘ZBEK TILI

(METODIK QO‘LLANMA)



Y-8023/2

TOSHKENT – 2016

Mazkur metodik qo'llanma ta'lim rus tilida olib boriladigan guruh talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, Nizomiy nomidagi TDPU Kengashi tomonidan tasdiqlangan "O'zbek tili" fanining ishchi o'quv dasturi asosida yaratildi.

Mashg'ulotlarda o'rganilishi ko'zda tutilgan nutqiy hamda nazariy materiallar dastur bajarilishining kalendarli rejasiga mos tartibda joylashtirildi.

Mazkur qayta ishlangan va to'ldirilgan nashrda bakalavriat yo'nalishlariga mos matnlar ham berildi.

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (2015-yil 23-apreldagi 7-sonli bayyonnoma).

1-mashg'ulot.

O'ZBEKISTON – YAGONA VATAN

- Mustaqillik – g'urur va mas'uliyat.
- O'zbekistonni nima uchun sevaman?
- O'zbek va rus tillarining o'xshash va farqli tomonlari.

VATAN

Biz bolaligimiz o'tgan joy nomini eshitganimizda g'urur tuyg'usini tuyamiz. Vatan ramzlarini ko'rganda, yurtimizning betakror manzaralarini tomosha qilganda, uning moddiy va ma'naviy boyliklaridan bahramand bo'lganda olis ellarda vatandoshlarimiz bilan ko'rishganda, ularning sport, madaniyat, san'at va boshqa sohalarda erishgan yutuqlarini eshitganda beixtiyor quvonamiz.

Vatan tuyg'usi ona yurtga muhabbat, yurt sog'inchi, yurt qayg'usi, g'urur-iftixori, vatanparvarlik shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Ona yurtga muhabbat har bir insonda bo'ladi. El-yurt ozod, mamalakat mustaqil bo'lsa, inson uning ravnaqi yo'lida bor kuch-qudratini safarbar etadi. Bugun Vatanimiz haqida gap ketsa, biz, avvalo, ana shunday g'urur-iftixor hislarini tuyamiz. Chunki yurtimiz ozod bo'lib, kundan-kunga taraqqiy etmoqda.

Butun olamni kezib chiqqanda, barcha ajoyib-u g'aroyib, mo'jizakor joylarni tomosha qilganda O'zbekistonning kichik bir qishlog'idagi fayz-u tarovatdan bahra olganday, lazzatlanganday bo'lmaydi kishi. Dunyoning qay bir go'zal yurtiga bormaylik, dam o'tmay ona-yurt sog'inchi bizni o'rab oladi.

Bu tuyg'u kindik qoni tomgan muqaddas zaminga, uning betakror, mislsiz fazilatli odamlariga bo'lgan muhabbat kuchi qudratidan bo'lsa kerak.


Vatan mehri, Vatan ishq shu qadar buyuk. Unga bo'lgan mehr inson qalbiga shu qadar muqim o'rnashganki, hech qanday kuch bu tuyg'uni zo'rlik bilan siqib chiqarolmaydi.

Respublikamizning mustaqil davlat bo'lib shakllanishida yoshlarning, hozirgi avlodning hissassi beqiyos bo'lsagina biz oldimizga qo'ygan maqsadga to'la erishishimiz mumkin. Buning uchun Vatanni sidqidildan sevmok uning boyligini ko'z qorachig'iday asrab-avaylamoq, ona tuproqning har bir misqolini qadrlamoq, undan to'g'ri va xalq manfaatleri yo'lida foydalanmoq hamma uchun ham farz, ham qarz bo'lishi kerak.

Biz, yoshlar, Vatanimizni asrashimiz va sevishimiz kerak. Shundagina Ona-Vatanimiz gullab yashnaydi.

Bir kun Vatanimizdan yiroq bo'lsak o'zimizni yolg'iz deb hisoblaymiz. Biz Vatanimizni hech qachon, hech kimga berib qo'ymaymiz. Bobolarimiz Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, At-Termiziy, Al-Buxoriy va boshqalar ham yurtlarini himoya qilganlar, Vatanimizning boyib, gurkirab rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Shu yurtning o'sib, rivojlanishiga o'zimizning hissamizni qo'shaylik. Yurtimizda tinchlik barqaror bo'lsin.

1-topshiriq. Quyidagi klasterni to'ldiring:



O'zbek va rus tillarining o'xshash va farqli tomonlari

Kelib chiqishi jihatidan o'zbek tili Oltoy tillari oilasining turkiy tillar guruhiga kiradi. Rus tili Hind-Yevropa tillari oilasining slavyan tillari guruhiga kiradi.

Tipologik nuqtai nazardan o'zbek tili agglutinativ til, rus tili esa flektiv tildir.

Har ikki til tovush tarkibi bilan farqlanadi. O'zbek tilida Ё, Ё, Ё tovushlari bo'lmasa, rus tilida O, Q, G', H kabi tovushlar yo'q.

Rus tilida mavjud bo'lgan rod va vid kategoriyalari o'zbek tilida mavjud emas.

Rus tilida so'zlarni o'zaro bog'lashda predloglardan foydalaniladi, o'zbek tilida bunday vazifani ko'makchilar bajaradi.

O'zbek tilidagi egalik qo'shimchalarining ma'nosi rus tilida asosan egalik olmoshlari yordamida beriladi. Har ikki tildagi kelishik kategoriyasi ham farqlanadi.

O'zbekcha sifatlar faqat daraja kateoriyasiga ega. Rus tilida esa sifatlar otlar bilan rod, son, kelishikda moslashishi kerak. Shu bilan birga, ruscha sifatlarning qisqa shakli ham mavjud.

O'zbek tilida olmoshlarning yettita ma'no turi bor, rus tilida esa to'qqizta.

Fe'llardagi zamon kategoriyasi o'zbek tilida rus tilidagiga qaraganda murakkabroq. Masalan, o'zbek tilida birgina o'tgan zamonning beshta shakli bor, rus tilida esa bitta.

Sintaksisga oid masalalarda tafovutlar ancha ko'p. Masalan, gapda so'z tartibi ikki tilda ikki xildir.

Ayrim hollarda ikki til hodisalari bir-biriga mos keladi, bu holat rusiyzabon talabalar uchun o'zbek tilini o'rganishlarida qulaylik yaratadi.

2-topshiriq. So'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilib yozing:

Грамота, парус, вкус, жизнь, широкий, новый, сто, влияние, стих, душа.

3-topshiriq. Soʻzlarni yangi oʻzbek imlo qoidalariga amal qilib yozing:

Авиация, акцент, декабрь, январь, июнь, кварц, циркуль, геометрия, федерация, градация.

4-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga mos soʻz va soʻz birikmalarini qoʻyib, gaplarni koʻchirib yozing, soʻng ularni rus tiliga tarjima qiling. Gapda soʻz tartibiga eʼtibor bering.

1. 1991-yil 1-sentabrda Oʻzbekiston hayotida... . 2. Mustaqillik... . shu palladan boshlab bu muhim sana 3. ... Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini eʼlon qilish toʻgʻrisida qaror qabul qildi. 4. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi toʻgʻrisida

2-mashgʻulot.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TAʼLIM TIZIMI

- Oʻzbekiston Respublikasining oliy taʼlim tizimi.
- Oʻzbek tilining leksik qatlamlari.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TAʼLIM TIZIMI

Kadrlar tayyorlash milliy modelida uzluksiz taʼlim tizimining oliy taʼlimiga alohida eʼtibor qaratilgan. Uning maqsadi respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojiga oʻz hissasini qoʻshadigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat yuritadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuniga

muvofiq 1998-yildan oliy ma'lumotli mutaxassislarni ikki bosqichda – bakalavriat va magistratura bosqichlarida tayyorlash tizimi joriy etildi.

Talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish davlat grantlari va to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda oltmishdan ziyod oliy ta'lim muassasalari – universitetlar, institutlar va boshqa bilim dargohlari oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Mamlakatimizda texnik, gumanitar va pedagogik, tibbiyot, agrar yo'nalishlarda ta'lim beruvchi hamda bir qator ixtisoslashgan universitet va institutlar mavjud.

Hamkorlik natijasida mamlakatimizda yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar asosan o'zbek, rus, qoraqalpoq, ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha ingliz, qozoq, tojik, turkman kabi tillarda olib boriladi.

Respublikamizning oliy ta'lim maskanlarida elektron kataloglar, virtual kutubxonalar yaratilgan, elektron darsliklar va qo'llanmalar tayyorlash ishlari olib borilmoqda.


Professor-o'qituvchilar xorijdagi hamkasblari bilan tajriba almashish imkoniga egalar. Iqtidorli talabalar turli mamlakatlarga grant asosida o'qishga yuborilishi yo'lga qo'yilgan. O'qish va ilmiy izlanishda faollik ko'rsatgan talabalar Prezident stipendiyasi, Ulug'bek, Navoiy va boshqa allomalarimiz nomi bilan ataluvchi maxsus stipendiyalarga sazovor bo'lishadi.

Mamlakatimiz talabalari o'rtasida fan olimpiadalari, ilmiy-amaliy anjumanlar, sport universiadalari, turli madaniy-ma'rifiy ko'rik-tanlovlar muntazam ravishda o'tkaziladi.

Bularning barchasi oliy ta'lim muassasasida o'qish yillarining "oltin davr" deb atalishiga sababdir.

1-topshiriq. O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim bosqichlari haqida so'zlab bering, ularni chizmada tasvirlang.

Sizningcha, quyida berilgan chizma O'zbekistondagi ta'lim bosqichlarini aks ettira oladimi?



2-topshiriq. O‘zingiz o‘qiydigan fakultetning ilg‘or talabalari haqida maqola yozing.

3-topshiriq. Haftalik dars jadvalingizni o‘zbek tilida yozing, fanlarning o‘zbekcha nomlanishiga e‘tibor bering.

4-topshiriq. Tanlagan kasbingizga mos rolli o‘yinda ishtirok eting (masalan, «Boshliq va xodim», «Yarim yillik hisobot muhokamasi»). Bunda o‘z ixtisosligingizga oid terminlardan foydalaning.

O‘zbek tilining leksik qatlamlari

O‘zbek tili lug‘at boyligi ikki katta qatlamga bo‘lib o‘rganiladi:

1) o‘z qatlam; 2) o‘zlashgan qatlam.

O‘z qatlam umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlardan va shular asosidagi yasalishlardan, shuningdek, o‘zbekcha affiksalar yordamida boshqa til so‘zlari asosidagi yasalishlardan tarkib topadi. Masalan, *bosh*, *ko‘z*, *qosh*, *til*, *uch*, *kel*, *yosh*, *qush*; *qalin*, *burun*, *to‘ng‘iz*; *ayg‘oqchi*, *bezak*, *botqoq*, *bog‘lam*, *achchiq-chuchuk*, *bola-chaqa*; *boshla*, *oqla*, *ishchi*, *yonilg‘i*; *traktorchi*, *jangchi*, *madaniyatli*, *bebosh*, *bilimdon* kabi.

O‘zlashgan qatlam o‘zbek tiliga qardosh bo‘lmagan tillardan turli davrlarda o‘zlashgan so‘zlardan tarkib topadi. Tarixda fors-tojik, arab tillaridan ko‘plab so‘zlar o‘zlashtirilgan. Keyingi davrlarda rus tilidan so‘z

o'zlashtirish kuchli bo'lgan. So'nggi paytda ingliz tilidan ko'plab yangi so'zlar kirib kelyapti.

Tojik tilidan o'zlashgan so'zlar o'zbek tilining o'z so'zlari qatorida turmush uchun zarur tushunchalarni anglatadi. Masalan, *dastro'mol, dasturxon, kaft, kift, nay, dutor, duradgor, anor, daraxt, jo'xori, sabzavot, juvoz, kulol, yog', go'sht, osh, non, javob, xo'randa, kamina, atlas, chopon, xona, panjara, anjom, kosa, betob, yor, nevara, do'st, oshno, ohista, tez, bahor, navro'z, zamin, falak, ombor, saroy, ohang, kuy, donish, dono, arzon, baho, shahzoda, shoh, jang, sardor, xudo, mehmon, mezbon, baland, past, ovoz, ozoda, chunki, gap, insonparvar, go'sht* va boshqalar.

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Masalan, *davlat, vazir, ilm, ta'limot, nazariya, g'alaba, muallif, xabar, ta'lim, harf, kitob, dars, asbob, tarjimon, olloh, tabib, vatan, imorat, mahalla, havo, nur, asr, saraton, vaqt, zamon, janub, sharq, dunyo, maymun, rayhon, ra'no, halvo, qand, marjon, sadaf, soat, sandiq, sado, jumla, nutq, suhbat, talaffuz, ariza, imzo, azamat, ajoyib, odil, afzal, zolim, nodir, mohir, muloyim, sof, halol, mudhish, makkor, mag'rur, za'far, za'faron, zilol, muammo, farosat, avval, albatta, amaliy* va boshqalar.

Rus tilidan(yoki rus tili orqali) o'zlashgan so'zlar, baynalmilal so'zlar: *opera, balkon, orden, aeroport, lirika, klub, traktor, bank, kilovatt, diagramma, biologiya, induksiya, jurnalist, direktor, filolog, internet, reyting* va boshqalar.

5-topshiriq. Siz o'qiyotgan fakultet haqida universitet yoki institutingizning Internet saytiga kiritilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni yozing. Ushbu ma'lumotlarni boyitish uchun fotosuratlar tanlang. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang. Matnda uchragan o'z qatlam va o'zlashgan qatlamga oid so'zlarni izohlang.

3-mashg'ulot.

UNIVERSITETIM BILAN FAXRLANAMAN

- Universitet muzeyi haqidagi taassurotlar bilan o'rtoqlashish.
- O'zi o'qiyotgan fakultet to'g'risida matn tuzish.
- So'z tarkibi. Qo'shimchalar sinonimiyasi va antonimiyasi.

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti 1935-yil 14-sentabrda O'rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakulteti negizida tashkil topdi. 1947-yilda unga buyuk sharq mutafakkiri Nizomiy nomi berildi. 1998-yilda litsey va kasb-hunar kollejlari uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi sifatida institutga universitet maqomi berildi.

Toshkent davlat pedagogika universitetida oliy ta'lim (bakalavriyat, magistratura), oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (doktorantura), kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ish olib boriladi.

Univversitetda o'n bitta fakultet, oltmishga yaqin kafedra mavjud bo'lib, ularda 800 dan ortiq professor-o'qituvchi ishlaydi.

TDPU pedagogik kadr tayyorlovchi barcha muassasalar uchun tayanch oliy maktab hisoblanadi. Bu yerda oliy pedagogik ta'limning barcha me'yoriy hujjatlari: davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, fan dasturlari yaratiladi.

Universitet kutubxonalarida zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy va badiiy asarlar, elektron darslik va ishlanmalar mavjud. Shuningdek, talabalar uchun shinam turar-joy, sport inshootlari hamda umumiy ovqatlanish tarmog'i muntazam ravishda xizmat qiladi.

1-topshiriq. Universitet muzeyiga tashrifdan olgan taassurotlaringiz haqida gapirib bering.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Siz qaysi fakultetda tahsil olyapsiz? Qaysi yo'nalishda?
2. Fakultetda nechta kafedra bor? Ularning nomini ayting.
3. Fakultetingiz kutubxonasi qayerda joylashgan?
4. Fakultetdagi ARMDan qay yo'sinda foydalanyapsiz?
5. Fakultetdagi yetuk mutaxassis olimlarni eslang.

So'z tarkibi. Qo'shimchalar sinonimiyasi va antonimiyasi

So'z tarkibi asos va qo'shimchalardan iborat. **Asos** so'zning asosiy lug'aviy ma'nosini bildiradi, mustaqil qo'llana oladi. **Qo'shimchalar** esa mustaqil qo'llana olmaydi, ular asosga qo'shilib, yangi so'z yoki ma'no yasaydi, yoki so'zlarni bog'lashga xizmat qiladi.

Qo'shimchalar quyidagi turlarga bo'linadi:

-so'z yasovchilar. Yangi ma'noli so'z hosil qiladi: gul – gul+chi, ish – ish+la, tor+ay (moq) kabi;

-shakl yasovchilar. So'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmasdan, unga turli qo'shimcha ma'no yuklaydi: gul – gul+lar, singil – singil+jon, uy – uy+cha kabi.

Bularning o'zi ikki xil bo'ladi: lug'aviy shakl yasovchilar hamda sintaktik shakl yasovchilar.

So'zlarda bo'lgani kabi qo'shimchalarda ham sinonimiya va antonimiya hodisalari uchraydi.

O'xshash ma'noli so'z yoki shakl yasaydigan qo'shimchalar sinonim qo'shimchalar sanaladi. Masalan, *savlat+li – ser+savlat, mahsul+dor – ser+mahsul, unum+dor – ser+unum, til+chi – til+shunos, ayt+giz – ayt+dir, childirma+chi – childirma+kash*.

Zid ma'noli so'z yoki shakl yasaydigan qo'shimchalar antonim qo'shimchalar sanaladi. Masalan, *kuchli – kuchsiz, unumli – unumsiz, barakali – bebaraka, nuqsonli – benuqson, ba+odob – be+odob*.

3-topshiriq. Berilgan gaplardan soʻz yasovchi, lugʻaviy shakl yasovchi hamda sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalarni toping.

Bugungi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Zamonaviy texnologiyalar shu qadar rivojlanib ketdiki, har kuni qandaydir yangilik, moʻjiza deb atashga arzigulik narsalar yaratilmoqda.

4-topshiriq. Berilganlardan soʻzlar yasang. Sinonim va antonim qoʻshimchalardan foydalaning.

Suv, oʻt, ot, tosh, oila.

5-topshiriq. Quyidagi sodda, qoʻshma va juft soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Savat-savat, paxtazor, sinfdosh, yeryongʻoq, mehmondoʻst, toʻq qizil, qoʻl qoʻymoq, sotib olmoq, bir yuz sakson, bola-chaqa, kundan kunga.



4-mashgʻulot.

USTOZ MAKTABI

- “Birinci oʻqituvchim” matni ustida ishlash.
- Taʼrif va tavsif uchun qoʻllanadigan soʻzlar maʼnosini izohlash.
- Tilning tasviriy vositalari. Tasviriy ifodalar.

BIRINCHI OʻQITUVCHIM

Mening birinchi oʻqituvchim Poʻlatova Fotima opa boʻlganlar. U kishi juda ochiqkoʻngil, mehribon inson. Ularni men chinakam doʻst, samimiy inson sifatida eslab qolganman. Hali oʻqish-yozishni bilmaydigan bir sinf bolaga xat-savod oʻrgatish uchun ular ozmuncha

mehnat qilmaganlar. Jajji qo'llarimizdan tutib ilk harfni yozdirganlari sira yodimdan chiqmaydi. Endilikda o'zim ham o'qituvchiman. Men ham yoshlarga til o'rgataman. Ustozimning mashaqqatli mehnatlarini endi yana ham ko'proq qadrlayapman, anglab yetyapman.

Ustozim hozir ham bolalarga bilim berib keladilar. Men ularni tez-tez yo'qlab turaman. Axir aytadilar-ku, ustoz otaday ulug' deb.

1-topshiriq. Savollarga javob bering, bunda ta'rif va tavsif uchun qo'llanadigan so'zlardan foydalaning:

- Birinchi ustozingizni eslaysizmi? Uni tavsiflang.
- Qaysi fan o'qituvchisi sizga ko'proq yoqadi? Nima uchun?
- Qaysi fan o'qituvchisi sizga yoqmaydi? Nima uchun?
- "Ustoz maktabi" deganda nimani tushunasiz?
- Litsey yoki kollejning fizika (o'zbek tili va adabiyoti, kimyo, matematika, ingliz tili) o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?

Tilning tasviriy vositalari.

Tasviriy ifodalar

Tilning tasviriy vositalariga metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o'xshatish, maqol, matal, tasviriy ifoda kabilar kiradi. Ular nutqni ta'sirchan qiladi, go'zallashtiradi.

Narsa-buyumning nomini aniq atamay, uni tasvirlab anglatadigan so'z birikmasi tasviriy ifoda (yoki parafraza) deyiladi: qushlar – qanotli do'stlar; fazogirlar – samo lochinlari; makkajo'xori – dala malikasi; paxta – oq oltin, charm qo'lqop ustalari - bokschilar. Tasviriy ifodalar ham sinonimlik, omonimlik xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Masalan: g'azal mulkining sultoni va o'zbek adabiy tilining asoschisi – Alisher Navoiy; uyg'onish fasli va fasllar kelinchagi – bahor (sinonim tasviriy ifodalar). Aql gimnastikasi – matematika yoki shaxmat; qora oltin – neft yoki ko'mir (omonim tasviriy ifodalar).

2-topshiriq. Quyidagi soʻzlarga mos tasviriy ifodalarni yozing.

Rassom, kitob, televizor, shifokor, bokschi, archa

3-topshiriq. Quyidagi sheʼrni yod oling. Undagi tasviriy vositalarni aniqlang.

USTOZ

S.Soliyev

Ona suti kabi niyatingiz pok,
Mehringiz saraton bagʻriday issiq,
Begʻubor dilingiz nur kabi oppoq,
Siymongiz dilimda, billurdek tiniq.

Ustozni nur deydi, sevadi inson,
Soʻzlarin dur deydi, teradi inson,
Bergan taʼlimingiz quyosh nuriday,
Yoʻlimiz yoritdi, yashnadi zamon.

Ustozim tilimda, dilimda mangu,
Mehribon onamdek sevaman mudom,
Ustozim soʻzlari dilimda yogʻdu,
Shu sabab boʻloldim barkamol inson.

Ustozim sevaman toki hayotman,
Nomini nur kabi saqlab pokiza,
Ezgulik, haqlikni oʻrgangan zotman,
Bir umr ustozdan olib andoza.

5-mashg'ulot.

HAYOT MENING TASAVVURIMDA

- Kelajakdagi rejalar.
- Hayotga munosabat va qiziqishlar.
- O'zbek tili lahja va shevalari. Shevaga xos so'zlar.

YOSHLIK – GO'ZALLIK

Yoshlik. Hayotimizning bu oltin davri haqida shoir-u olimlar ko'plab fikr bildirgan. Yoshlikni tarannum etadigan qo'shiq va she'rlar, ibratli fikrlarni ko'plab keltirish mumkin.

Yoshlik – umrning bahori. Bahor esa yoshlik ramzidir. Bahor fasli kelib, jamiki mavjudot turfa libosga burkanadi, bezanadi. Go'yoki osuda uyquda yotgan tabiat ohista uyg'onadi... Shuning uchun ham u ko'ngilli va go'zaldir. Yoshlik bahorining o'zi bir go'zallikdir.

Yoshlikda qanchadan-qancha ajoyib ezgu niyatlar, intilishlar bilan masrur bo'lamiz. Ilm-u fanga, tabiat va jamiyat taraqqiyotining qonunlarini tushunishga, umuman koinot sirlarini bilishga intilamiz. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir, degan gap bejiz emas albatta. Navoiy hazratlari ham: *"Yoshlik chog'ida yig'ilmning maxzanin, Qarilik chog'ida savr qilg'il oni"*, - deganlar.

Aytishlaricha, 25 yoshgacha bo'lgan umr tabiatning odamga bergan bebaho va beg'araz ehsoni, undan oqilona foydalanish esa insonning burchidir. Tarixga nazar solsak, barcha buyuk siymolar yoshlikda iste'dodlarini namoyish qila olganliklariga ishonch hosil qilamiz.

Alisher Navoiy 12 yoshida Lutfiyning olqishiga sazovor bo'lgan buyuk g'azalini bitgan, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolar yoshligida tabiat va koinot sirlarini kashf etgan. Mashhur bastakorlar Motsart va Betxoven ham o'lmas asarlarini yoshlikdan yoza boshlaganlar. Yosh qalb egasini oqar daryo kabi to'lib toshib turgan kuch-qudrat va beqiyos g'ayrat bezaydi. Bunday yoshlik aslo takrorlanmaydi.

Ha, yoshlik tabiatdagi, hayotdagi go'zalliklarni, ayniqsa, insondagi ijobiy fazilatlarini sevish va ulardan zavqlanish, nafis did va nafosatning shakllanish davridir.

1-topshiriq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. 20 yildan keyin hayot sizning tasavvuringizda qanday bo'lishi mumkin?
2. Yoshlarning Vatan oldidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. "Haqiqiy inson" deganda, kimni nazarda tutamiz?
4. Kelajakda qanday rejalariniz bor?

2-topshiriq. Hayotga munosabatingiz va qiziqishlaringiz to'g'risida kichik matn tuzing.

O'zbek tili lahja va shevalari.

Shevaga xos so'zlar

Umumxalq o'zbek tili barcha lahja va shevalarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida uch asosiy lahja mavjud bo'lib, bular: qipchoq, o'g'uz va qarluq lahjalaridir. Lahjalar turli shevalardan iboratdir. Sheva ma'lum hududda yashovchilar nutqidagina qo'llanadigan so'zlar, til hodisalari yig'indisidir. Lahja va shevalarning o'ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari bor.

Quyida ayrim shevalarga xos so'zlar (dialektizmlar) keltirildi: *gashir* (Xorazm) – *sabzi* (adabiy shakli), *barak* (Buxoro) – *chuchvara* (adabiy shakli), *qalpoq* (Samarqand) – *do'ppi* (adabiy shakli), *vasqarcha* (Qashqadaryo) – *nimcha* (adabiy shakli).

Grammatik dialektizmlar: -yap(ti) – adabiy til shakli, -vot(ti), -op(ti), -ut(ti) – shevaga xos shakllar.

3-topshiriq. Avval adabiy tildagi so'zlarni, keyin shu so'zlarning Hazorasp shevasida qanday ekanligini qiyoslab o'qing. So'ngra siz ham o'z shevangizdagi so'z va grammatik shakllardan shu tarzda yozing.

Buvi	Moma
Buzoq	O'jak
Yong'oq	G'o'z
Yostiq	Taka
Chumchuq	Secha
Tog'a	Doyi
Tuxum	Mayak, yumurtqa
Chaqaloq	Bavaq, qo'ndoq bola
Echki	Gechi, gachchi

6-mashg'ulot.

KITOB – BILIMLAR XAZINASI

- Yangi kitoblar haqida suhbat.
- Sevimli kitobim.
- Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.


KITOB – BILIM MANBAI

Kitob insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash va o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Ayniqsa, buni donolarning o'g'itlari, yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi durdonalari, xalqning an'anaviy tarbiya usullarida aks etgan. Xalqimiz kitob haqida naql-rivoyatlargina emas, balki ko'plab maqollar, aforizmlar, topishmoqlar, hikmatlar ham yaratgan.

Kishining madaniyati uning kitobida aks etadi. Shu ma'noda bugungi kunda kitob o'qish va unga munosabat bir qadar susaygandek.

Y-8023/
12

17



Chunki yoshlar ko‘proq kino, video, televideniye, kompyuterga berilib ketdi. Kompyuter hozirgi kunda barchaning xonadoniga kirib kelgan. Istalgan yangilig-u axborotlarni bu vositalardan xohlagancha olish mumkin. Achinarlisi, bugun kitob o‘qish uchun vaqt sarflashga hojat yo‘qdek.

Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog‘liq. Ma‘rifatli oilalarda kitobga e‘tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Kitobni inson tafakkurining qanotlariga o‘xshatishgan. Temirni zang kemirganidek, odamni ham ma‘naviyatsizlik mo‘rt qiladi. Ma‘naviyat esa insonga kitob o‘qish orqali yuqadi. Har qanday yangilik ham bir kun eskiradi. Biroq insoniyatning ming-ming yillar davomida qo‘lga kiritgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o‘zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi. Binobarin, kitob hamisha ilm-ma‘rifat, odob-axloq manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham kitobdan ko‘ra qudratliroq vosita yo‘q.

1-topshiriq. “Sevimli kitobim” mavzusida insho yozing.

2-topshiriq. Berilgan maqollarni o‘qib, ma‘nosini tushuntirib bering.

Kitob – aql qayrog‘i.

Kitob ko‘rmagan kalla – giyoh unmagan dala.

Kitobsiz aql – qanotsiz qush.

Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Frazeologizmlarning eng asosiy belgilari:

1. Frazemaning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan bo‘ldai.
2. Frazema yaxlit bir lug‘aviy ma‘noni ifodalaydi.
3. Frazemaning tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma‘nolarini yo‘qotgan bo‘ladi.

4. Frazema gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi.

5. Frazemani boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, u yaxlitligicha tarjima qilinadi.

Frazemalar ikki turga bo'linadi: frazeologik butunlik va frazeologik chatishma.

Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ma'no ifodalaydigan frazemalarga frazeologik butunliklar deyiladi: *belni mahkam bog'lamoq, qo'l ko'tarmoq (bolaga), yog' tushsa yalagudek.*

Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga frazeologik chatishmalar deyiladi: *xamir uchidan patir, ko'z tagiga olib qo'ymoq, yo'lga ko'z tikmoq, oyog'ini qo'lga olib yugurmoq.*

3-topshiriq. Lug'atdan foydalanib, berilgan iboralarga sinonim so'zlarini va, agar bo'lsa, antonimlarni toping.

Qo'y og'zidan cho'p olmagan, chumoliga ozor bermaydigan, ilonning yog'ini yalagan, kapalagi uchdi, boshi qotdi, yulduzni benarvon uradi.

4-topshiriq. Quyidagi frazemalarning turini aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing. O'zbekcha frazemalarning ruscha muqobilini yozing.

Bosh ko'tarmoq, yetti o'lchab bir kesmoq, izdan chiqmoq, iziga tushmoq, ipsiz bog'lamoq, yo'l bermoq, kavushini to'g'rilab qo'ymoq, og'ziga urmoq, tepasida turmoq, katta gapirmoq, tirnoq orasidan kir qidirmoq, tomdan tarasha tushganday, aravani quruq olib qochmoq, terisiga sig'may ketmoq.

7-mashg'ulot.

ADABIYOT – MA'RIFAT O'CHOG'I

- “Adabiyot muzeyida” matni ustida ishlash.
- Insonni ulug'lovchi fazilatlar (badiiy asar qahramonlari misolida).
- Otlarda turlanish.

ADABIYOT MUZEYIDA

1968-yilning kuzida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi ochildi. Bu muzey xalqimizning buyuk Navoiyga, uning ijodiga bo'lgan muhabbatiga yorqin misoldir.

Muzey sahnidagi ko'kalamzor, gulzor bog'da Navoiy haykali o'rnatilgan. U marmar hovuzga qarab turibdi. Hovuz atrofida taniqli ijodkorlarning byustlari qo'yilgan.

To'rt qavatli ko'rkam binoga kiriladigan ikki katta eshik g'oyat go'zal ishlangan.


Muzeyning “Navoiy Astrabodda”, “Navoiy Hirotida”, “Navoiy Samarqandda”, “Navoiy lirikasi” deb nomlangan zallarida Navoiyning buyukligi, asarlarining o'lmasligi aks ettirilgan. Umuman, Navoiy hamda unga zamondosh shoir va olimlarning ijodiy me'rosini yoritish uchun muzeyda o'n uchta bo'lim ajratilgan.

Navoiydan keyingi ijodkorlar va ularning asarlarini yoritishga bag'ishlangan materiallar 22 bo'limda to'la aks ettirilgan.

XX asr o'zbek adabiyotiga oid noyob materiallarni binoning to'rtinchi qavatidagi 13 bo'limda ko'rish mumkin. Muzey xodimlari jahon kutubxonalarida saqlanayotgan o'zbek adabiy merosini yig'ish va ularni adabiyot ixlosmandlariga taqdim etish borasida ko'p yaxshi ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Adabiyot muzeyi boshqa muzeylar kabi doimo tashrifchilar bilan gavjum. Xalqimiz unda jamlangan boy materiallarni qiziqib o'rganadi va ular bilan haqli ravishda faxrlanadi.

1-topshiriq. Matn mavzusi bo'yicha "Baliq skeleti"ni to'ldiring.



2-topshiriq. Savollarga javob bering:

- Nima uchun adabiyot ma'rifat o'chog'i sanaladi?
- Siz qanday badiiy asarlarni o'qishni yoqtirasiz? Nima uchun?
- Jahon adabiyotidan nimalarni o'qishni tavsiya etasiz?
- Rus adabiyoti namoyandalari haqida nimalar bilasiz?
- O'zbek shoir, yozuvchilarining qaysi asarlarini sevib o'qigansiz?
- Sizningcha, insonni qanday fazilatlar ulug'laydi? Fikringizni badiiy asar qahramonlari misolida izohlang.

3-topshiriq. "Sevimli kitobim" mavzusida tuzgan matningizdan otlarni ko'chirib yozing hamda ularning kelishigini aniqlang.

4-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli kelishik qo'shimchalarini qo'yib, matnni ko'chirib yozing.

KITOBLAR -- JON-U DILIM

Mashhur kishilar... biri "O'zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitob... minnatdorman", - degan edi.

Chindan ham, kitoblar inson... yaxshilik... boshlaydi. Men ham kitob... juda yaxshi ko'raman. Kichkinaligimda ertaklar... sevib o'qirdim. Ularda xalq donoligi aks etgan. "Ur to'qmoq", "Uch og'a-ini botirlar" kabi o'zbek ertaklari... ham o'qiganman.

Hozir ko'proq sarguzashtli hikoya va qissalar... sevib o'qiyman.. Men o'zbek tili... ham bemalol o'qiyman. Hozir Xudoyberdi To'xtaboyev... "Sariq dev... minib" kitobi... ikkinchi marta o'qiyapman. O'zi odatim shunaqa: kitob yoqib qolsa, qayta-qayta o'qiyveraman.

Siz-chi, siz ham kitob... sevasizmi?

OTLARDA TURLANISH

O'zbek tilida otlar son, egalik va kelishik kategoriyalariga ega. Otlarning kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishi turlanish deyiladi. Ot yoki otlashgan so'zning boshqa bir so'zga tobeligini ifodalaydigan grammatik shakllar sistemasi kelishik kategoriyasi deyiladi. O'zbek tilida 6 ta kelishik mavjud.

O'zbek tilida kelishiklar

Kelishik nomi	Qo'shimchasi	Rus tilidagi muvofiq'i
Bosh kelishik	-	Именительный падеж
Qaratqich kelishigi	- ning	Родительный падеж
Tushum kelishigi	- ni	Винительный падеж
Jo'nalish kelishigi	- ga (- ka, - qa)	Дательный падеж

O‘rin-payt kelishigi	- da	Muvofiq‘iga ega emas
Chiqish kelishigi	- dan	Muvofiq‘iga ega emas

O‘zbek tilida barcha otlar birlikda ham, ko‘plikda ham bir xil turlanadi, -lar affiksi kelishik affikslaridan oldin qo‘shiladi. O‘zbek tilidagi o‘rin-payt va chiqish kelishiklari rus tilida yo‘q, rus tilidagi tvoritelniy va predlojniy padejlar o‘zbek tilida mavjud emas. Bu kelishiklar bilan qo‘llangan otlarni tarjima qilishda boshqa kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchi (poslelog)lardan foydalaniladi.

8-mashg‘ulot. TURMUSH URINISHLARI

- Kundalik turmush masalalariga oid suhbat.
- Matnlar ustida ishlash.
- O‘zbek tilida tuslanish.

OILA – MUQADDAS DARGOH!

Oilada shirin-shirin orzular og‘ushida, qalblarga quvonch olib farzand dunyoga keladi. Qiz bola ulg‘ayar ekan uning ilk o‘ynaydigan o‘yinchoq‘i, ovunchog‘i qo‘g‘irchoqdir. Bolalar birga o‘ynashar ekan ularning biri ota, biri esa ona, o‘yinchoqlar esa farzandlari bo‘lib o‘ynashadi. Balki, shundandir, oila to‘g‘risidagi tushuncha bolaligimizdan qon-qonimizga singib ketgan. O‘zbek xalqi shuning uchun ham oilani muqaddas deb biladi. Haqiqatan ham, boshqa xalq turmush tarzini kuzatar ekanmiz, bizdagi oilaga bo‘lgan mehr-muhabbat, fidoyilik, oilaning muqaddasligini his qilish, farzand tarbiyasiga bo‘lgan munosabat, oilalardagi totuvlik, sabr-toqat, qanoatlilik, insof-diyonat kabi ijobiy fazilatlar faqatgina o‘zbek xalqiga, o‘zbek oilalariga mosdek tuyuladi

kishiga. Ha, oila jamiyatning bir bo'lagidir. Mustahkam oila mustahkam jamiyat deganidir. Oilani bir ulkan daraxtga o'xshatsak, uning baquvvat tanasi va ildizi ota va onadir. Shunday daraxtning shoxlari ham sog'lom va ko'rkam bo'ladi. Ildiz va tana ota-ona ekan, bunday sog'lom tana va ildizdan albatta sog'lom shaxslar, yani sog'lom farzandlar dunyoga keladi. Shunday ekan, ota-ona inoq, tarbiyali, bir-birini hurmat qiladigan, bir-birini tushunadigan bo'lsa, bunday oilada oqila qizlar va yetuk yigitlar voyaga yetadi. Lekin atrofdagi qurt-qumursqa, shamol-to'zon, har xil ofatlar bor ekan, ular daraxtga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Bunday ofatlardan talofat ko'rish mumkin. Ammo tana va ildiz mustahkam, sog'lom bo'lsa, o'z shoxlarini balo-yu ofatlardan asraydi, egilgan shoxlarining esa asta-sekinlik ila o'z qaddini tiklashga yordam beradi.

Ayollarga oilaning tinch-totuvligi, ozodaligi, farzandlar tarbiyasi yuklatilgan bo'lsa, erkak ayolning qalqoni, bolalarning panohidir. Ular hamma ishni adolatli hal qilmoqlari lozim.

Har bir inson turmush qurar ekan, bir dunyo orzu-umidlar qiladi. Oilasining dunyodagi eng baxtli va mustahkam oila bo'lishini, qaynona-qaynota, qarindosh-urug' munosabatlarining mustahkam bo'lishini xohlaydi, farzandlarining buyuk inson bo'lib yetishishiga umid bog'laydi. Ana shunday jonkuyar onalar va fidoyi erkaklar bor ekan, ularning qarshisida doimo bosh egsang arziydi.

1-topshiriq. Savollarga yozma javob bering:

Kundalik turmush masalalari deganda nimani tushunasiz?

Har bir oila a'zosining qiladigan ishlari nimadan iborat bo'lishi kerak?

“Kundalik hayotiy vaziyatlarda nutq madaniyati” deganda nimani tushunasiz?

Matnda ko'tarilgan masalalarga munosabatingiz qanday?

O'zbek tilida tuslanish

Fe'ning shaxs-son qo'shimchalarini olib o'zgarishi tuslanish deyiladi:

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	1. -m	1. -k
	2. -man	2. -miz
	3. -ay(in)	3. -aylik
II	1. -ng	1. -ngiz
	2. -san	2. -siz
	3. -	3. -g(iz)
III	1. -sin	1. -sin

(Avval egallagan bilimlaringizga tayanib, jadvalda berilgan ma'lumotlarni izohlang)

2-topshiriq. Yuqorida berilgan jadval asosida turli zamon, mayl, nisbat, shaxs va sondagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing. Fe'llarni morfologik tahlil qiling.

3-topshiriq. Quyida keltirilgan mavzularda dialoglar tuzing. Ulardagi fe'llarni tahlil qiling.

a) bozorda savdolashish; b) taksi haydovchisi bilan "kelishish" va yo'ldagi suhbat; d) go'zallik salonidagi kelishmovchilik; e) kimyoviy tozalash shaxobchasida; f) to'y liboslari salonida, g) tukuvchi huzurida; h) dorixonada; i) talabalar oshxonasida.

4-topshiriq. Tuzilgan dialoglar asosida rolli o'yinda ishtirok eting.

9-mashg'ulot.

TABIAT VA INSON

- “Inson tabiatga muhtoj” matni ustida ishlash.
- Tabiatga munosabat haqida bahs.
- Nutq uslublari.

BIR NIHOL

Erkin Vohidov

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini Yaxshilik ata.
Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,
U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.
Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.
Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

1-topshiriq. “Bir nihol” she'rini yod oling.

INSON TABIATGA MUHTOJ

«Inson – tabiat farzandi», - deydi dono xalqimiz. Inson tabiat bag'rida vujudga keladi va kamol topadi. Kishilar qalbida go'zallikni his etish, uni ardoqlash, borliqqa mehr qo'yish tuyg'usini uyg'otish eng muhim vazifalardan biridir.

Havo, suv, oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo kabi o'ziga zarur bo'lgan hamma narsani inson tabiatdan oladi. Odamlar o'zlarini o'rab turgan tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo'lib, uni to'xtovsiz o'zgartirib borishadi.

Biroq inson tabiatga ikki tomonlama: ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bir tomondan, inson tabiatni boyitadi. Ikkinchidan, aholining keskin ko'payishi, shaharlarning kengayishi, yangi industrial markazlarning vujudga kelishi, ayniqsa, mashinasozlik va og'ir sanoatning

rivojlanishi, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish natijasida biosfera, havo va suv ifloslanib, tabiiy muvozanat buzilib bormoqda.

Atmosferani toza saqlash, flora va faunani qirilib ketishdan asrab qolish, suv havzalarining sofligini ta'minlash va hokazolar barcha davlatlar ishtirokida hal etilishi kerak bo'lgan dolzarb xalqaro vazifalardir.

Diyorimizdagi ekologik muammolardan ko'pchilikning xabari bor: Orol dengizi qurib borishi bilan bog'liq tabiat muvozanatining buzilishi, chuchuk suv miqdorining kamayib borishi, sanoat hududlari va shaharlardagi havoning zaharlanishi...

Tabiat inson uchun xizmat qilar ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak.

Xalqimizda an'anaviy tabiat va mehnat bayramlari keng nishonlanadi. Masalan, Navro'z, gullar bayrami, lola sayli, qushlar bayrami, qovun sayli, obodonlashtirish tadbirlari kabilar yosh avlodda atrof-muhitni asrab-avaylab, tabiiy go'zallikning qadriga yetish tuyg'ularini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda madaniy-ma'rifiy, targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Yerga, suvga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga bo'lgan munosabatimizni yaxshilash orqaligina ona tabiatimizni asrab qolish mumkin. Inson tabiat farzandi ekan, farzandning onaga mehribonlik qilishi umuminsoniy burchdir.

2-topshiriq. Savollarga javob bering:


1. Inson tabiatni qanday qilib boyitadi?
2. «Jonli tabiat» iborasini qanday tushunasiz?
3. Qaysi qush (daraxt, hayvon)larni yoqtirasiz? Nima uchun?
4. Suvni isrof qilmaslik degani nima?
5. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish degani-chi?
6. So'nggi yillarda sayyoramiz iqlimi qanday o'zgardi?
7. Buning sababi nimada?
8. Uyingizda qanday jonivorlar bor? Ularga munosabatingiz qanday?
9. Mamlakatimizdagi tog'lar haqida ma'lumot bering.

10. Umumbashariy va mintaqaviy ekologik muammolar nimalardan iborat?

11. Uvaysiyning anor haqidagi chistonini eslang va o'zingiz O'zbekistonda o'sadigan biror o'simlik haqida topishmoq o'ylab toping

Nutq uslublari


Uslub biror faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos tarzi, yo'lidir. Nutq uslubi esa fikr ifodalashning yo'lidir. Tilning vazifalariga mos ravishda nutq uslublari bir necha ko'rinishlarga ega: so'zlashuv uslubi, rasmiy, ilmiy, ommabop (publitsistik) va badiiy uslublari.



Tilda har bir so'zni, grammatik shaklni, har bir sintaktik qurilmani o'z o'rnida, ya'ni shu so'z, shu grammatik shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan nutq vaziyatini (tinglovchining saviyasi, uning holati kabilarni) hisobga olgan holda to'g'ri qo'llash, til vositalaridan shu vaziyatga eng mos tushadiganini tanlash nutqning ravonligini, tushunarligini, aniqligini ta'minlaydi, uni g'alizliklardan xalos etadi.

3-topshiriq. O'zingiz voyaga yetgan shahar yoki qishloqning tabiati haqida so'zlab bering. Yil fasllarida tabiat qanday o'zgarishini tasvirlang. Bunda atov gaplar, undov so'zlar, kirish konstruksiyalar, undalmalardan va tilning tasviriy vositalaridan foydalaning.

4-topshiriq. Quyidagi rasmlarga qarab turli uslublarda nutq tuzishga harakat qiling. Nutqingizda yurtimiz tabiati, tabiat hodisalari, ekologik muammolarga oid ma'lumotlarni keltiring.



10-mashg'ulot.
SOG'LIG'ING O'Z QO'LINGDA

- “Что влияет на здоровье людей?” matni ustida ishlash
- Sog'lom turmush tarzi mavzusida suhbat
- Og'zaki so'zlashuv va adabiy so'zlashuv uslublari leksikasi

1-topshiriq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

ЧТО ВЛИЯЕТ НА ЗДОРОВЬЕ ЛЮДЕЙ?

Абул Баракат Кадыри ибн Мухаммад Насруллах (XV в.) в своей книге «Качкули Султания» («Книга султанов») пишет:

Следующие факторы плохо влияют на здоровье людей:

- употребление спиртных напитков, курение;
- неосторожное отношение с животными (ставить перед ними пищу, воду, которую человек хочет позже употребить);
- чересчур много кушать, есть слишком горькую пищу;
- расчесывать свои волосы чужой расческой;
- оставлять открытой посуду с чистой водой, вообще, с пищевыми продуктами;
- шить иголкой одежду, в которую в данный момент одет человек;
- быть злым и коварным, всегда думать о плохом.

А следующие факторы благоприятно влияют на здоровье людей:


- мало есть, мало говорить, меньше спать, душиться приятными духами, часто купаться;
- часто чистить зубы, чисто и красиво одеваться, вовремя стричь волосы и ногти;
- быть приветливым и искренним, добрым и радушным во всех отношениях, помогать слабым и малоимущим людям.

2-topshiriq. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, yana qaysi holatlar inson salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikringizni yozma bayon eting.

3-topshiriq. Savollarga javob bering:

1. Parhez nima? Siz parhez qilasizmi?
2. Qanday kasalliklarni bilasiz?
3. Sog'liqni qanday asraymiz?
4. Qanday sport turi bilan shug'ullanasiz?

4-topshiriq. Suratda ko'rsatilgan tana a'zolarini o'zbek tiliga tarjima qiling.



Og'zaki so'zlashuv va adabiy so'zlashuv uslublari leksikasi

So'zlashuv uslubi keng qo'llanadigan uslublardan biridir. Oilada, ko'cha ko'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi sanaladi. So'zlashuv uslubi adabiy va og'zaki so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi. Adabiy til meyorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlashuv uslubi esa og'zaki so'zlashuv uslubi hisoblanadi. So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yoga chiqadi. So'zlashuv uslubida so'zlar ko'pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi: - *Badbaxt, fitna! O qo' yasammi, qo' ymayсанmi axir?*

Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati gap bo'laklari tartibi erkinligidir. Bu uslubda ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

11-mashg'ulot.

TARIX VA ZAMONAMIZ

- “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” mavzusida suhbat.
- Ko‘rgan tarixiy joy, muzeylar haqida og‘zaki ma’lumot berish.
- Badiiy uslub, uning xususiyatlari.

1-topshiriq. Matnni o‘qing.

SAMARQAND

Samarqand tarix mobaynida mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida yetakchi o‘rinni egallab kelgan shahar hisoblanadi. Bir necha asrlar mobaynida Samarqand Movarounnahr poytaxti va markazi bo‘lib kelgan. Samarqand eramizdan avvalgi VIII asrda tashkil topgan bo‘lib, hozirda u yurtimizning san‘at va moziy uyg‘unlashgan go‘shalaridan biri hisoblanadi. Uni umrida bir bor ko‘rgan inson hech qachon yodidan chiqarmaydi. Tarixda Samarqand Marokanda, So‘g‘diyona nomlari bilan atalagan. “Avesto” da yozilishicha Samarqand So‘g‘d davlatining poytaxti sifatida ta’kidlangan. Yunon va rim tarixchilari yozib qoldirgan yodgorliklarida u birinchi bor Marokanda nomi bilan tilga olinadi. 1220-yilda mo‘g‘ullar tomonidan butunlay yo‘q qilingan shahar vaqt o‘tishi bilan yana o‘zini tiklab oladi va qayta tug‘iladi. Uning gullab yashnashida Temuriylar davri alohida o‘rin tutadi. Amir Temur bu shaharni Movarounnahrdaqi ilm-fan, tijorat, me’morchilik va madaniyat rivojlangan eng katta shaharga aylantiradi.

Samarqand shahri asrlar davomida Buyuk Ipak Yo‘lining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan. Samarqand shahrining tarixiy va madaniy qiymatini hisobga olgan holda O‘zbekiston hukumati ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, 2007 yilda YuNESKO boshchiligidagi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda nishonlangan Samarqand shahrining 2750 yilligi oldidan Shohi Zinda majmui, Hazrat Xizr masjidini qayta tiklash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar

olib borildi.

Shaharning markazida joylashgan Registon maydoni o'z go'zalligi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Registon maydoni o'rta asrlarda shahar markazi vazifasini o'tagan bo'lsa, hozirda u uch me'morchilik ansanblidan tashkil topgan kompozitsiya hisoblanadi. U yerda joylashgan uch madrasa : Ulug'bek madrasasi, Tilla Qori madrasasi va Sherdor madrasalari o'zining alohida yaratilish tarixlariga ega. Go'ri Amir maqbarasida esa buyuk bobakalonimiz Amir Temur oxirgi qo'nim topgan joy hisoblanadi. Bibi xonim madrasasi esa o'zining betakororligi va me'morchilik namunalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. O'zbekistonning qadimiy shaharlarini sanab o'ting.
2. Toshkent qadimda qanday nom bilan atalgan?
3. Samarqandda qanday tarixiy obidalar mavjud?
4. Qaysi muzeyda Amir Temur haqida to'liq ma'lumot taqdim etilgan?
5. Siz poytaxt mehmonlariga qaysi muzeylarga borishni tavsiya etasiz?
6. O'zbekiston hududida qanday tarixiy obidalar mavjud?

3-topshiriq. O'zingiz tug'ilib o'sgan joy tarixi haqida matn tuzing.

Badiiy uslub, uning xususiyatlari

Badiiy asarlar tili badiiy uslubda bo'ladi. Ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo'l bilan tinglovchiga estetik ta'sir etuvchi nutq uslubi – badiiy uslub sanaladi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Masalan: *Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuziga suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanda, bahor kelganidan bexabar, hanuz g'aflatda*

yotgan o't-o'lanni, qurt-qumursqani uyg'otib avvalgidan ham yorug'roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotgandek tuyiladi.

Badiiy uslubda yozuvchi tilda mavjud bo'lgan barcha vositalardan foydalanishi mumkin. Tasvirlanayotgan davr ruhini aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlarni, qahramonlar fe'l-atvorini ko'rsatish maqsadida noabadiy til qatlamlariga xos so'zlarni qo'llashi mumkin.

12-mashg'ulot.

KASHFIYOTLAR OLAMIDA

- “O'nli kasrni kim ixtiro qilgan” matni ustida ishlash.
- Bilgan kashfiyotlari haqida so'zlab berish.
- Ilmiy uslub uning xususiyatlari.

1-topshiriq. Matnni o'qing.

O'NLI KASRNI KIM IXTIRO QILGAN?

Jamshid Koshiy Ulug'bekning o'qituvchisi bo'lib, rasadxona (observatoriya)ning qurilishida qatnashganlardan biridir. Koshiy matematika va astronomiya fanlarining bilimdoni edi. 1427-yilda Koshiy “Arifmetika kaliti” nomli kitob yozgan. Bu kitobda u jahonda birinchi marta o'nli kasr va to'rt amalni bajarish qoidasini tushuntiradi. O'zi yaratgan o'nli kasrni yozish sistemasi haqida to'la tushuncha beradi. Ungacha faqat oddiy kasr ishlatilardi.

Al Koshiyning asarlari ko'p yillargacha Yevropa olimlariga ma'lum emas edi. Yevropada o'nli kasrlar haqida birinchi marta flamandiyalik olim Simon Stevin 1585-yilda “O'nli kasrlar haqida” nomli kitob yozgan. Unda kasrlar ustida amallarning bajarilishi va kasrning amaliyotdagi afzalligini tushuntirib bergan. O'nli kasrning butun qismini vergul bilan ajratishni nemis olimi Kepler (1571-1630) taklif qilgan.

QUYOSH TELEFONI

Janubiy Koreyaning mobil telefonlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi ikkinchi o'rinda turuvchi «Samsung Elektroniks» kompaniyasi quyosh batareyalari bilan ishlovchi birinchi uyali aloqa vositasini taqdim etdi.

«Blu Ers» deb nomlangan telefon ishlashi uchun yetarlicha quvvat beruvchi qurilma aloqa vositasining orqa tomonidagi akkumulyatoriga biriktirilgan. Uch daqiqa davomida gaplashishi uchun quyoshdan o'n daqiqalik quvvat olish yetarli.

Apparatning boshqa afzalligi shundaki, u chiqindi plastinasidan tayyorlangan bo'lib, atmosfera havosidagi kislorod gazlarining zararli qoldiqlarini qisqartirish va ishlab chiqarish jarayonida elektr quvvatini ham tejaydi.

2- topshiriq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. XX asr kashfiyotlari haqida nimalarni bilasiz?
2. XXI asr kashfiyotlari qaysilar?
3. Buyuk ixtirochi olimlardan kimlarni bilasiz?

Ilmiy uslub, uning xususiyatlari

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Mantiqiylik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. *Yomg'ir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6mm bo'ladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

3- topshiriq. Berilgan soʻzlarni qaysi nutq uslubida qoʻllanishiga koʻra turlarga ajratib yozib chiqing.

Energiya, toʻnini teskari kiymoq, man qilinadi, aziz hamyurtlar, kilovatt-soat, tok oʻtkazgich, ogʻzi qulogʻiga yetmoq, bashara, tong nashidasi, uchburchak, ichki tartib-intizom, tenglama, morfologiya, tushuntirish xati, ofarin, burchga sadoqat, fuqarolik burchi.

4- topshiriq. Dunyoning yetti moʻjizasi haqida kichik matn tuzing.

13-mashgʻulot.

HUQUQ VA BURCH

- “Baxtimiz qomusi” matni ustida ishlash.
- Talabalarning huquq va burchlari haqida suhbat.
- Ilmiy uslubda ixtisoslik leksikaning qoʻllanishi va kesim shaklining koʻrinishlari.
- Modal soʻzlar.

BAXTIMIZ QOMUSI

Konstitutsiya har bir davlatning ramzlaridan biri. Konstitutsiya soʻzi “tuzilish, qurilish” degan maʼnoni bildiradi.

Oʻzbekiston ham oʻz davlat mustaqilligiga erishgach asosiy qonun – Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu tarixiy voqea 1992- yilning 8-dekabrida sodir boʻldi.

Yangi Oʻzbekistonning Konstitutsiyasi jahonning ilgʻor davlatlari tajribasini oʻrganish asosida yaratildi. U muqaddima, 6 bob, 26 boʻlim, 128 moddadan iborat.

Asosiy qonunimizda fuqarolar huquq va erkinliklari, majburiyatlari belgilab berilgan.

Unda Oʻzbekiston xalqining millati, eʼtiqodi, dini, jinsidan qatʼiy

nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etishi mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekani aytilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasi ozod va obod Vatan, farovon hayot qurishimizning huquqiy asosi va kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy uslubda ixtisoslik leksikaning qo'llanishi va kesim shaklining ko'rinishlari

Ega haqidagi xabarni bildirib, unga grammatik tobe bo'lgan bo'lak kesim deb ataladi. Kesim, odatda, quyidagicha ifodalanadi:

1. Fe'l bilan: *Halol mehnat insonni ulug'laydi.*
2. Sifat bilan: *Shahar – go'zal.*
3. Ot, son, olmosh, ravish bilan: *O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Bizning uyimiz – yettinchi. Hamma gap – shu. Aytish oson, bajarish qiyin.*

Modal so'zlar

So'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildirgan so'zlar modal so'zlar deyiladi. Modal so'zlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ishonch: *albatta, shubhasiz, so'ssiz, tabiiy*
2. Gumon: *ehtimol, shekilli, aftidan, chamasi*
3. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat*
4. Afsuslanish (achinish): *afsus, attang, esiz*
5. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim*
6. Tasdiq ma'nosi: *darhaqiqat, haqiqatdan*
7. Quvonch : *xayriyat*

Bulardan tashqari: bor, yo'q, binobarin, zero, birinchidan.. kabi modal so'zlar ham mavjud.

Modal so'zlar gap tarkibida ko'pincha kirish so'zi bo'lib keladi.

Ilmiy uslubda *kerak, shart, lozim, zarur* kabi modal so'zlar kesim vazifasida faol qo'llanadi.

2- topshiriq. Berilgan modal soʻzlar ishtirokida gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Shubhasiz, ehtimol, afsus, menimcha, attang, haqiqatan(ham).

3 - topshiriq. Gaplarni oʻqing, kesimni aniqlang, ifodalanishini tushuntiring.

1. Aqldan ortiq boylik yoʻq (maqol). 2. Bahorda kunlar iliy boshlaydi. 3. Salim, menga kitobingni berib tur. 4. Aytmoqchi boʻlganim mana shular. 5. Orzum - yaxshi muhandis boʻlish. 6. Mana bu yigit sportchi. 7. Tohirning hamma ishi aniq va puxta. 8. Xabarni eshitib, Salimaning boshi koʻkka yetdi.

4- topshiriq. Oʻz huquq va burchlaringiz haqida yozing.

14-mashgʻulot.

YETUK MUTAXASSIS.

- “XXI asr oʻqituvchisi mening tasavvurimda” mavzusida” suhbat.
- Oʻqituvchi kasbi haqida 4-5 ta maqol yoki sheʼr yod olish.
- Publitsistik uslub uning xususiyatlari.

OʻZBEKISTON OʻQITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Dunyodagi ming-minglab kasblar orasida ikkita buyuk kasb – shifokorlik va oʻqituvchilik kasbi borki, ular, toki hayot bor ekan, oʻzining maʼno-mazmuni va olijanobligini, ahamiyati va hurmatini hech qachon yoʻqotmaydi.

Bugun biz oʻqituvchi va murabbiylar kuni deb nom olgan goʻzal bayramimizni nishonlar ekanmiz, oʻzining isteʼdodi va mahoratini, koʻz nuri va qalb qoʻrini baxsh etib, yosh avlodimizga bilim, ilmu-fan sirlari

va odamiylik saboqlarini o'rgatadigan sizdek mo'tabar zotlarga har qancha tahsin va tasannolar aytsak arziydi, albatta.

Islom Karimov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tabrigidan
("Toshkent oqshomi" gazetasi 2012-yil 29-sentabr)

FIDOYI KASB EGALARI

XXI asr – yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar asri. Bunday avlodni tarbiyalashda ustoz, murabbiylarning xizmati beqiyos. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida o'qituvchilarning sharaflari va mas'uliyatli mehnatini e'zozlash, ularni qo'llab quvvatlash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor zahirida ana shunday ezgu maqsad mujassam.

("Toshkent oqshomi" gazetasi 2012-yil 29-sentabr)

1-topshiriq. Quyidagi savollarga o'z fikringizni bildiring.

- XXI asr o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?
- U qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim?
- Yurtimizda o'qituvchi-murabbiylar uchun qanday sharoitlar yaratilgan?
- O'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi uchun nimalar qilish lozim?

2-topshiriq. Maqollarni o'qing va yod oling.

Ustoz otangdek ulug'.

Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.

Otaning mehridan ustozning qahri afzal.

Yaxshi shogird ustozdan o'tar.

3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va yod oling.

Ona suti kabi niyatingiz pok,
Mehringiz saraton bag'riday
issiq,
Beg'ubor dilingiz nur kabi
oppoq,
Siymongiz dilimda, billurdek
tiniq.

Ustozni nur deydi, sevadi inson,
So'zlarin dur deydi, teradi inson,
Bergan ta'limingiz quyosh
nuriday,
Yo'limiz yoritdi, yashnadi
zamon.

Ustozim tilimda, dilimda
mangu,
Mehribon onamdek sevaman
mudom,
Ustozim so'zlari dilimda yog'du,
Shu sabab bo'loldim barkamol
inson.

Ustozim sevaman toki
hayotman,
Nomini nur kabi saqlab pokiza,
Ezgulik, haqlikni o'rgangan
zotman,
Bir umr ustozdan olib andoza.


3-topshiriq. “XXI asr o‘qituvchisi mening tasavvurimda” mavzusida kichik matn tayyorlang.

Publitsistik uslub, uning xususiyatlari

Publitsistik uslubning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari mavjud. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag‘ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistikaning yozma turiga kiradi.

Og‘zaki publitsistika notiqlikdir. Bunga kundalik voqealar axboroti, radio va televideniya chiqayotgan sharhlovchilar va boshlovchilarning nutqlarini misol qilib keltirish mumkin.

5-topshiriq. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.



15-mashg'ulot.

PEDAGOGIK ARTISTIZM

- Matn ustida ishlash.
- Grammatik ma'noni hosil qiladigan vositalar.

1-topshiriq. Matnni o'qing.

Pedagogik artistizm

Pedagogikaga nisbatan qo'llanganda, *artistizm* quyidagilarni anglatadi:

- pedagogik jarayon sharoitida organik (uyg'un) mavjud bo'lish qobiliyati;
- qiyofasini o'zgartirish qobiliyati, o'ziga torta bilish, jonlilik, keskinlik, ekspressiya;
- imo-ishoralar va mimikasining boyligi;
- hikoyachilik iqtidori;
- yoqimtoy bo'la olish;
- ilhomlanish, ruhlanish;
- ichki erkinlik hissi;
- ichki nazokat, obrazli tafakkur;
- obrazli assotsiatsiyalar orqali nostandart yechimlarga (qarorlarga) intilish;
- psixika xususiyatlari, nerv tizimi tipi.

Bayon qilinganlar *pedagogik artistizm* – pedagogik ijod jarayonining barcha bosqichlarida u yoki bu darajada faol bo'lgan fenomen ekani haqida xulosa qilishga imkon beradi. O'qitishda artistizmning o'rni va roli o'qituvchining kasbiy faoliyati takomillashgani sari o'zgarib borishi mumkin. U shaxsning sifati tarzida namoyon bo'lishi, kasbiy tajriba ortib borgan sari esa pedagog ishining barcha tarkibiy qismlariga integratsiyalashi, uning butun faoliyatini sintezlashi va yaxlit qilishi mumkin.

Artistik pedagogning *vazifasi* – ta’lim oluvchilarga emotsional ta’sir *o’tkazish*; ularning qalbida *iz qoldirish*, ma’lum kechinmalar uyg’otish; bolalar ongi va shuurida o’ziga ishonchni *mustahkamlash*; o’z munosabati, hissiyoti bilan taassurot *uyg’otish*; tasavvurini *ishga solish*. Bunda pedagogning *asosiy maqsadi* ta’lim oluvchida bilimlar yig’indisi, bolalarning o’quv jarayoniga ma’lum munosabati, ta’lim oluvchining o’z-o’zini realizatsiyalash uchun o’z vositalarini tanlashidagina iborat bo’lmaydigan e’tiqodlar tizimi asosida shaxsiy pozitsiyasining (nuqati nazarining) shakllanishiga ko’maklashishdan iborat.

Pedagogik artistizm ta’lim oluvchilar bilan aloqa o’rnatish, ma’lum ma’noda avans tariqasida bolalarning ishonchini qozonish, keyin mazkur dars, mashg’ulotning barcha holatlarini (sharoitlarini) hisobga olgan holda ish ko’rishga yordam beradigan ma’naviy va jismoniy sifatlarning murakkab qorishmasi sanaladi.

Pedagogik artistizmning tarkibiy qismlari: pedagogning o’z qiyofasini o’zgartira bilishi, ochiqligi, *bevositaligi*; o’z kechinmalari, ikkilanishlari, quvonchini boshqa kishilarga «yuqtira bilishi»; hayratga sola bilishi; estetik komponent; o’z-o’zini *prezentatsiyalash* texnikasini egallaganlik; tashqi maftunkorlikning mavjudligi; improvizatsiya; ijodiy kayfiyatni safarbar qilish, o’z kayfiyatini boshqara bilish; empatiya, refleksiya; kinetik vositalar; so’zamollik (notiqlik); ovoz jarangining ifodaliligi, ishontira bilish malakasi; so’z bilan *operatsiyalay* olish san’atini egallaganlik (nutqiy artistizm); xulq plastikasi; muloqotning noverbal vositalari (imo-ishoralar, mimika va b.).

2-topshiriq. Matndagi notanish so’zlar lug’atini tuzing. Ular ishtirokida birikmalar yozing.

3-topshiriq. “Artist” so’zini ijobiy va salbiy ma’noda qo’llab gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni izohlang.

4-topshiriq. «Artistizm” so’ziga sinkveyn tuzing.

Grammatik ma'noni hosil qiladigan vositalar

Grammatik ma'no deganda so'zning narsa, belgi, harakat kabilarni ifodalashi tushuniladi.

Grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalarga qo'shimcha va ko'makchilarni kiritish mumkin. Massalan, -lar – ko'plik qo'shimchasi; yap – zamon qo'shimchasi; -(i)m – egalik qo'shimchasi.

Ko'makchilar harakatning yo'nalishi (sari, tonom), birgalik (bilan) kabi grammatik ma'no ifodalaydi.

16-mashg'ulot.

OTA-ONANI E'ZOZLASH

- Matn ustida ishlash
- Ota-onaga hurmat haqida maqollar yod olish
- Matn va uning ko'rinishlari

1- topshiriq. Matnni o'qing va o'z fikringizni og'zaki bildiring.

OTA – ONANI E'ZOZLANG

Ota-onani e'zozlash va ulug'lash asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan el-yurtga xos olijanob an'analardan biridir. O'z ota-onasining qadrini bilmagan odam, do'stlarining ham hurmatiga arzimaydi. Ota-onaning qalbi mehr-muruvvatga to'liq bo'ladi, farzandlaridan jonini ham ayamaydi. Lekin yaxshi farzand ularning mehr chashmasidan oqilona foydalanadi, suiste'mol qilmaydi.

Farzandlarning ota-onasiga bo'lgan shirin so'zi, xushmuomalasi, mehribonliklari ustiga ularning jamiyat ustiga qilgan go'zal ishlari ham qo'shilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ota-onang umri boqiy bo'lib tetik yashashini istasang, doimo ularning ko'ngillarini shod et. Oqil o'g'il, komila qiz : “Ota-onamni shod qilish uchun nima ish qiloldim?”, - deb vijdoni bilan suhbatlashib turadi.

Insonlardagi vijdon va or-nomus ota-onasining qadr-qimmatini tushunishdan boshlanadi. Inson bo'lishning alifbosi shu, chunki barcha xalqlar qay tilda gapirmasin, dastlabki so'zlari ona tilida "ota-ona" deyishdan boshlanadi, insonning birinchi so'z debochasi ham ota, onadir.

Bizning dunyoga kelishimizga, o'sib-ulg'ayib kamolotga yetishishimizning birinchi sabablari ham – bu buyuk insonlardir. Ota-onaning jamoli, qora ko'zlari, qoshu sochlari, kuch qudrati, go'zal chehrasi, qaddu qomati – bularning hammasi bizda namoyon bo'ladi. Ular bizni katta hayotga taqdim qiluvchi ulug' zotlardir.

Farzand ota-onaga kuch quvvat baxsh etadi. Otalarimizning "Farzand ota-ona ko'zining oqu qorasi, belining quvvatidir" -degan qimmatli so'zlari farzandga bo'lgan mehr muhabbatni ifoda etadi. Ota-ona qayerda bo'lmasin – ishdami, uzoq safarda, ularning ko'z oldida doim bolalarning timsoli gavdalanib turadi, fikr-u zikri bolada bo'ladi. Albatta, bizga ko'rsatilgan bunday mehribonchilikni biz his etishimiz va o'zimizning namunali xulqimiz va odobimiz bilan javob qaytarishimiz zarur. Bekorga xalqimizda biror xayrli ish qilgan kishiga qarata "Seni tarbiya qilgan ota-onanga rahmat"-deb aytilmaydi. Shunday ekan ota-onamiz nomiga doimo rahmatlar yog'dirishimiz – farzandlik burchimizdir. Chunki ota-onalarning eng baxtlisi – bu farzandlari ortidan tashakkur eshitganlaridir. Ota-onangizni doimo izzat qiling va e'zozlang, chunki ular bizga g'animat.

2-topshiriq. Keksalarni e'zozlash mavzusida kichik matn tuzing.

3-topshiriq. Quyigadi maqollarni o'qing va davom ettiring.

1. Qarisi bor uyning – parisi bor. 2. Ota- onang davlating, farzandlaring – savlating. 3. Asl parchaning bahosi bo'lmas, Ota onaning - qarisi. 4. Otangga qilganing, bolangdan qaytadi.

Matn va uning ko‘rinishlari

Matn bu – yozilgan, ko‘chirilgan yoki chop etilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat yoki shu kabilarning bir parchasi. Matn bir necha gaplardan tashkil topadi. Ular o‘zaro mantiqan bog‘liq bo‘ladi. Matn *katta yoki kichik* bo‘lishi mumkin. Bitta abzatsdan tashkil topgan matn kichik matn, bir necha abzatsdan iborat matnlar katta matn deyiladi.

Matn ma‘lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, ko‘rinish, narsa-buyum izchil tasvirlash yoki tavsiflash maqsadida tuzilgan gaplardan iborat. Matn biron-bir voqea-hodisa, narsa buyum yoki shaxs haqida oddiy axborot bayonidan yoki ularga nisbatan munosabatini ham bildiradigan ijodiy tasviriyligidan iborat bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra avvalo matnlar *bayoniy matn va tasviriyl matnlarga* bo‘linadi. Shuningdek, mulohaza yuritishni talab qiluvchi alohida matn turi ham mavjud bo‘lib, bunday matnlar *muhokamali matnlar* deb aytiladi. Bunda asosiy fikr turi dalillar bilan isbot qilinishi va oxirida xulosa qismi berilishi kerak.

Bayoniy matnda voqea yoki buyum haqidagi axborot izchil bayon qilinadi. *Tasviriyl* matnda esa muallif ijodiy yondashib, voqea, buyum yoki qiyofani badiiy vositalar yordamida o‘z munosabatini bildirgan holda tasvirlaydi.



17-mashg‘ulot.

XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATI

- Universitet hududidagi shahobchalarda xizmat ko‘rsatish madaniyati mavzusida suhbat.
- Biror narsaning reklamasini ixcham va diqqatni tortadigan tarzda tayyorlash.

1-topshiriq. Matnni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

XUSHMUOMALA BO‘LING

Do‘konlarda “Sotuvchi va xaridor, o‘zaro xushmuomala bo‘ling” degan yozuvni ko‘p ko‘ramiz. Lekin shuning o‘zi kifoyamikan? Xarid va savdo madaniyati faqat shundan iboratmi?

Yo‘q, albatta. Sotuvchi ham, xaridor ham bir qator qoidalarni bilishi va ularga amal qilishi lozim. Aytaylik, non do‘konida barcha nonlarni ushlab ko‘raverish yaramaydi. Bu gigiyenaga ham xilof.

“Qo‘l bilan tegilmasin” deb yozib qo‘yilgan mollarni so‘roqsiz olib ko‘rish ham yaramaydi. Kiyimlarni, ayniqsa poyabzalni belgilangan joyda kiyib ko‘rish kerak.

Bir so‘z bilan aytsak, boshqalarning g‘ashiga tegadigan ishlardan o‘zini tiymoq lozim.

Uzog‘ingizni yaqin qiluvchi taksilar

Kundalik hayotimizni avtotransportlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uzog‘imizni yaqin qilib, manzilimizga bir zumda yetkazib qo‘yadigan avtoulovlar orasida yo‘nalishsiz taksilarning ham o‘z o‘rni bor. Ammo ular aholiga ko‘ngildagidek xizmat ko‘rsata olyaptimi?

Mulohaza

BOZOR MUNOSABATLARI:

“Xaridor – injiq, sotuvchi – qo‘pol”

Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida muomala madaniyati, mijoz va xizmatchi munosabatlari katta ahamiyat kasb etadi. Ammo, afsuski, ko‘pchilik sotuvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar buni his etmaydilar.

Bugun poytaxtimiz va viloyatlardagi ko‘plab savdo va xizmat ko‘rsatish tashkilotlarida xizmat qilayotgan xodimlarning xushmuomalaligi, shirinso‘zligi kishini quvontiradi, o‘z ishiga bu qadar mas‘uliyat bilan qarashidan xursand bo‘lasiz. Taassufki, ba‘zi joylarda, ko‘proq bozorlarda sotuvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar tomonidan qo‘pollikka yo‘l qo‘yilayotganiga ham guvoh bo‘lib qolamiz...

2-topshiriq. Xarid qilish vaziyatiga oid dialoglar tuzing va rollarga bo'lib o'qing. Masalan,

- Mana bu ko'ylak qancha turadi?
- 30000 so'm
- Xuddi shunday oq rangli ko'ylak yo'qmi?
- Bor.
- U necha pul?
- U 35000 so'm.
- Arzanroq bo'ladimi?
- 32000 so'm bera qoling.

SUHBAT

- Kechirasiz, do'koningiz qachon yopiladi?
- Biz soat 8-00 dan 21-00 gacha ishlaymiz.
- Tanaffus ham qilasizmi?
- Yo'q, biz dam olish kunlarisiz va tanaffuslarsiz ishlaymiz.
- Men mana bu kostyumni xarid qilmoqchiman.
- Kiyib ko'rasizmi?
- Mumkin bo'lsa . . .
- Albatta, men bilan yuring. Mana shu yerda bimalol kiyib ko'ravering. Menimcha, u sizga yarashadi.
- Ko'ringchi. Siz nima deysiz?
- Xuddi sizga tikilgandek. Xatto yosharib ketdingiz. Didingiz zo'r ekan.
- U qancha turadi?
- 270 000 so'm.
- Yonimda pul yo'q-da.
- Hechqisi yo'q. Istasangiz kechgacha, istasangiz ertaga olib ketsangiz ham bo'ladi.
- Men bugunoq olib ketaman. Hozir uyga borib kelaman.
- Bimalol borib kelavering.

KUTUBXONADA

- Kechirasiz, sizda biror kitobning bor yoki yo'qligini qanday bilsa bo'ladi?

- Bu juda oson. Katalogdan qaraysiz. Agar kitob bizda bo'lsa, u albatta katalogga kiritiladi.

- O'zbek tilidagi kitoblar katalogi qayerda?
- U kiraverishda, o'ng tomonda. Marhamat, qarab ko'ring.
- Mana, topdim, bor ekan.
- Qani, ko'raylik-chi? Bu juda qiziq kitob. Hozir olib kelaman.
- Rahmat.

OSHXONADA

- Assalomu alaykum. Xush kelibsiz.

- Salom. Marhamat qilib taomnomani bersangiz.

- Marhamat

- Bizga yarimtadan lag'mon, ikkinchisiga yarimtadan osh, bitta non, choy bersangiz.

- Qora choymi yoki ko'k choymi?
- Qora choy.
- Achiq-chuchuk kerak emasmi?
- Qarang, unutibman. Albatta keltiring.
- Xo'p bo'ladi. Hozir.
- Rahmat.
- Marhamat, taomlaringiz. Yoqmli ishtaha.
- Rahmat.
- Marhamat qilib hisobni keltirsangiz.
- Mana hisob. Sizdan 15000 so'm.
- Mana oling.
- Rahmat. Kelib turing.

SARTAROSHXONADA

- Assalomu alaykum. Navbatda oxirgi kim?
- Men oxirgiman. Siz mendan keyin bo'lasiz.
- Men sochimni oldirmoqchiman.
- Marhamat, o'tiring. Xo'sh, sochni qanday olamiz?
- Iloji boricha kaltaroq qilib olasiz.
- Boshingizni yuvamizmi?
- Mayli.
- Xizmat haqi qancha bo'ladi?
- O'n ming so'm.
- Marhamat. Oling.
- Menga emas, kassaga to'laysiz.
- Xo'p bo'ladi
- Yaxshi boring.
- Rahmat.

3- topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing.

5-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Пожалуйста, примите заказ. 2. Я хотел сдать пальто на химчистку. 3. Когда заказ будет готов? 4. Вы шьете мужскую одежду? 5. До скольких у вас перерыв. 6. Могу я вас спросить.



18-mashg'ulot. **YOSHLAR TASHABBUSI**

- "Bugunning yoshlari" mavzusida suhbat
- Bo'sh vaqtini o'tkazish rejasini tuzish
- Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

YOSHLAR TASHABBUSI – OBOD KELAJAK YO'LIDA

Yoshlikda olingan puxta bilim, o'rganilgan kasb-hunar hamisha yo'limizni yoritib turadi, bizni kamolot sari yetaklaydi. Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, iste'dodini yuzaga chiqarish, ilg'or g'oya va tashabbuslarini hayotga tadbqiq etishga yaqindan ko'maklashishda "Kelajak ovozi" yoshlar tashabbuslari markazining ham munosib hissasi bor. 2006-yilda tashkil etilgan ushbu markaz faoliyati yigit-qizlarni o'z qiziqishi bo'yicha to'g'ri yo'naltirish, iqtidori, ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish, ma'naviyatini yuksaltirishda ustuvor o'rin tutadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu yo'nalishda muhim omil bo'lmoqda. "Kelajak Lingvo" til o'rganish markazida ingliz, nemis, ispan, fransuz, arab, xitoy, yapon, koreys, rus tiliarini tarjimonlik va tilshunoslik nuqtai nazaridan puxta o'rganish imkoniyati yaratilgan.

Ilg'or texnologiyalarga qiziquvchi yoshlar uchun "Axborot texnologiyalari bo'yicha yosh mutaxassislar maktabi" – "IT–School" ham samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yerda yoshlar axborot texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi ma'lumotlardan boxabar bo'lish, dasturlash, veb-dizayn, veb-dasturlash, 3D formatdagi grafika kabi yo'nalishlar bo'yicha bilimini boyitmoqda. O'tgan vaqt mobaynida maktabga a'zo yosh dasturchilar tomonidan yigirmadan ortiq ijtimoiy ahamiyatga molik saytlar, jonajon Vatanimizning go'zal tabiati, betakror me'moriy obidalari bilan tanishtiruvchi zamonaviy formatdagi virtual gidlar, turli ilg'or ishlanmalar yaratildi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birga ilmfanning turli yo'nalishlarida izlanayotgan yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 2010-yilda mazkur jamoat tashkiloti qoshida Innovatsion g'oyalar markazi tashkil etildi. O'tgan vaqt mobaynida bu yerda yoshlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning ma'lumotlar bazasi yaratilib, vazirlik va idoralar, ilmiy muassasalarda

faoliyat ko'rsatayotgan yosh mutaxassislar g'oyalarini amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

(manba : www.uza.uz)

1-topshiriq. Matndagi ot, sifat, son, olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni toping va ularni morfologik tahlil qiling.

“KAMOLOT” YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI

O'zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati mamlakatimiz yoshlarini ixtiyoriylik, oshkoralik, huquq va majburiyatlar tengligi tamoyili asosida birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotidir. Harakat o'z safiga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 5,5 mln O'zbekiston yoshlarini birlashtiradi.

Harakatning asosiy maqsadi – mamlakatimiz yoshlarini ozod va obod Vatan yaratishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtirish, milliy g'oyamizga tayangan holda mustaqil O'zbekistonning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, dunyoqarashi teran va mustaqil fikrlovchi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni, bozor iqtisodiyoti asoslarini chuqur egallagan yoshlarni voyaga yetkazishga har tomonlama ko'maklashish, o'sib kelayotgan avlodning inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug'lashga, xalqimizning obro'si va nufuzini, yurtimizning shon-shuhratini oshirishga xizmat qiladigan uzoq muddatli keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta'minlashdan iboratdir.

Harakatning tashkiliy negizi – boshlang'ich tashkilotdir. Boshlang'ich tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiq Harakatning tuman va shahar bo'limlariga birlashadilar. Boshlang'ich tashkilot kamida besh nafar Harakat a'zosining xohishiga asosan, ularning yig'ilishi qarori bilan tuziladi. Harakatga a'zolik yoshidagi yigit-qizlar o'z qiziqishlari bo'yicha hamda turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Harakat tizimlari qoshida tuziladigan turli klublar va markazlarda birlashishlari mumkin.

Harakat homiyligida respublika “Kamalak” bolalar tashkiloti

faoliyat yuritadi. “Kamalak” bolalar tashkiloti o‘z safiga o‘n yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalarni va o‘smirlarni milliy istiqlol g‘oyasi asosida Vatanning sodiq farzandlari etib tarbiyalash, huquq va manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

2-topshiriq. Bo‘sh vaqtingizni qanday o‘tkazasiz? Bu haqida matn tuzing.

3-topshiriq. Internet saytlaridan O‘zbekiston yoshlari bilan bog‘liq mavzularda yangiliklar to‘plang.

Dialogik matnning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari

Matn nutq shakllariga muvofiq ravishda yozma va og‘zaki bo‘lishi mumkin. Yozma nutq ham, og‘zaki nutq ham bir shaxs nutqidan iborat bo‘lishi mumkin. Bir necha shaxs nutqidan iborat matn – dialogik matn deb ataladi. Unda so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni, ularning o‘zaro savol javoblarini bayon qiladi. Ikki kishi o‘rtasidagi har qanday suhbatni dialog sifatida e’tirof etish mumkin.

Dialogik matnning o‘ziga xos xususiyatlari ikki kishi o‘rtasida yuzaga kelgan suhbat jarayonida ochiladi. Shunday ekan, yuqorida ta’kidlanganidek, bu yerda hamsuhbatning maqsad va mavzusi, suhbatdoshlarning o‘zaro munosabati, yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, jamiyatda egallagan o‘rni va mavqei dialogik nutqning mazmunini belgilaydi.

19-mashg‘ulot.

MA’RIFAT O‘CHOQLARI

- “Alisher Navoiy” matni
- O‘zbek ma’rifatparvarlari asarlari ro‘yxatini tuzish
- Monologik matnda mazmun izchilligu va ohang

ALISHER NAVOIY

XV asr jahon ma'naviyatining buyuk siymosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug'ilgan. Hirot shahri XV asr birinchi yarmida Sohibqiron Amir Temur asos solgan ulug' saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kenja o'g'li Shohrux Mirzoning qo'l ostidagi obod manzillaridan biri edi.

1447-yilda Shohrux vafot etgach, Temuriy shahzodalar o'rtasida tojtaxt dardi xuruj qilib, yurtda taloto'p boshlandi va Alisher Navoiy xonadoni ham ko'p qatori vatanni tark etdi. Yosh Alisher uchun taqdir sinovlari boshlandi. Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur 1452-yilda Hirot taxtiga o'tirgach, Alisherning otasini Sabzavorga hokim etib tayinlandi. Lekin oradan ko'p o'tmay G'iyosiddin kichkina dunyodan ko'z yumdi. Bu paytda Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'ygan edi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husaynni o'z tarbiyasiga oldi, 1456-yili esa o'zi bilan Mashhadga olib ketdi. Keyinchalik Husayn Boyqaro sipohiylik yo'lini tanladi, Alisher esa zamonaning «malik ul-kalom»i Mavlono Lutfiy tahsini va hayratiga sazovor bo'lgan iste'dod egasi bo'lib yetishdi. «Faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutib erdi», deb yozadi Navoiy 1455-1458-yillar haqida.

1469-yilda Sulton Husayn iltimosiga ko'ra Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do'sti sharafiga bitilgan «Hiloliya» qasidasini unga taqdim etadi.

Hirot bu davrda nihoyatda ko'rkamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, she'riyat, nafis san'atlar rivoj oldi. Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Ixlosiya» xonaqohi, bemorlar uchun «Shifoiya» shifoxonasi, masjidi Jome' yoniga Qorixona qurildi. Ulug' amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo'lyozmalarni oqqa ko'chirish, ularni badiiy bezash bilan band edilar. Hirotda yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» va boshqa madrasalar bino etildi.

1483-yildan Alisher Navoiy o'zining buyuk «Xamsa» asarini yozishga kirishdi va uni uch yilda tugalladi. Besh dostonni o'z ichiga olgan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo'lib, Navoiyning barcha she'riy merosining deyarli yarmini tashkil qiladi. «Xamsa» Alishyer

Navoiy ijodining qalbidir.


Navoiy o'z "Xamsa"sini yaratishga 1483-yilda kirishgan bo'lsa, uning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi")ni o'sha yili yozib tugatdi. 1484-yilda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", 1485-yilda "Saddi Iskandariy" dostonini poyoniga yetkazdi. Shoir o'z "Xamsa"siga kiritilgan dostonlarda o'sha davr uchun muhim bo'lgan muammolarni qo'ydi, mutafakkir sifatida ilg'or qarashlarni ilgari surdi, o'zbek tilining qudratini olamga namoyish etdi.

Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotining so'nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning butun ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari, she'riyati qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o'tadi, madrasalarda keng o'rganildi.

Alisher Navoiy ijodini o'rganish, uning ilmiy tahlili bo'yicha so'nggi yillarda qator taniqli tadqiqotchilar ish olib bordilar va bugungi kunda ham Navoiyning merosi ko'pgina olimlarimizni ilhomlantirib keladi. Hozirda maktablar, xiyobonlar, ko'chalar buyuk shoirimiz nomi bilan yuritiladi. Uning nomida O'zbekiston Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

1-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzing.

2- topshiriq. Quyidagi jadvalni to'ldiring.



3-topshiriq. O'zbek ma'rifatparvarlaridan yana kimlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang

Monolog grekcha monos (bitta, yagona) va logos so'zlaridan olingan bo'lib, badiiy asarlarda ishtirok etuvchi shaxslarning o'z-o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan nutqidir.

Monolog o'z xususiyatiga ko'ra ikki xildir. Agar u personajning to'g'ridan-to'g'ri boshqalarga qaratilgan nutqi tarzida berilsa, ochiq shakldagi monolog yoki tashqi monolog hisoblanadi. Monolog personajning ichki nutqi, ya'ni, o'z-o'zi bilan so'lashuvi, suhbat tarzida ham berilishi mumkin. Bunday monolog yopiq shakldagi yoki ichki monolog deb ataladi.

20-mashg'ulot. MILLIY QADRIYATLAR E'ZOZI

- Milliy urf-odatlar, bayramlar haqida suhbat.
- Odob – axloq mavzusidagi hikmatlar
- Gapda so'z tartibi. Gap bo'laklarining tushib qolishi.

IBRAT

Bir ota o'smir o'g'lini uyidan olib chiqib, ko'chaning o'rtasida ayamasdan savalayotgan emish. Bu simi kim qanday tushunadi, degan ma'noda ana shu usulni tanlagan ekan. Shu payt qo'shni darvozadan bir qiz chiqib qolibdi. Qarasa, tuppa-tuzuk yigitchani otasi urayotganmish. Qiz bunga chiday olmay so'rabdi:

- Amaki, bu kimingiz bo'ladi?
- O'g'lim bo'ladi. – debdi otasi.
- O'g'lingiz nima gunoh qildiki, ko'chaga chiqib urasiz.
- Gunohi shuki, - debdi ota, - aytganimni qiladi.

Qiz hayron qolibdi. Qanaqa ota bu, o'g'li aytganini qilsa-yu, rahmat

eshitish o'rniga kaltak yesa. Qizning ko'z yosh qilayotgan bolaga rahmi kelibdi. "Mushtumzo'r" otadan xafa bo'libdi. Ota qizning holatini ko'rib, ichida debdi: "Hoy qizim, sendan yaxshi kelin chiqmaydi. Sen sirning nimaligiga tushunmading..."

Qiz yo'lga ketibdi. Ota yon-veriga qarasa, uzoqdan ko'hlikkina bir qiz kelayotganmish. Qiz yaqinlashishi bilan ota yana o'g'lini do'pposlay boshlabdi.

Qiz to'xtab otadan so'rabdi:


- Amakijon, o'g'lingiz nima gunoh qildiki, uyda emas, ko'chaga chiqarib uryapsiz?

- Nima desam, aytganimni qiladi, qizim. Shuning uchun adabini beryapman, - debdi ota.

- Qattiqroq uring, aqli kirsin, ana o'shanda o'z aqli bilan ish qiladigan bo'ladi, - deb qizcha yo'lida davom etibdi.

Buni ko'rgan ota: "E, farosatingga balli-ey, ona qizim", - deb izidan termulib qolibdi, - albatta, bir kuni seni kelin qilaman", - deb ko'ngliga tugibdi.

1-topshiriq. Milliy an'ana va udumlar nomli klaster tuzing.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

Milliy urf-odatlar deganda nimani tushunasiz?

Siz qanday milliy urf-odatlarni bilasiz?

O'zbek urf-odatlari haqida bilganlaringizni aytib bering.

O'z milliy urf-odatlaringiz haqida gapiring.

3- topshiriq. Maqollarni o'qing. Mazmunini rus tilida ayting.

Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i.

Yaxshi oshini yeydi, yomon boshini.

Yaxshidan vafo, yomondan jafo.

Yaxshilik to'rga eltar, yomonlik go'rga.

Yaxshilikka yaxshilik-har kishining ishi, yomonlikka yaxshilik- er kishining ishi.

Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi.

Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar.

Yaxshini bil o'zidan, yomonni bil ko'zidan.

Yaxshini ko'rib shukur qil, yomonni ko'rib fikr qil.

Yaxshilik qilsang yashir, yaxshilik ko'rsang oshir.

Odamdand yaxshi ot qolsin.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

ODOB SALOMDAN BOSHLANADI

Salom – suhbatning boshi. Salomlashyotib suhbatdoshlar bir-biriga sog'lik va tinchlik tilaydilar.

Salomlashishda ham ma'lum qoidalarga rioya etish zarur. Unutmang: birinchi bo'lib yoshi kichiklar salomlashadi. Ammo qo'l uzatishda ham birinchi bo'lib qo'l uzatmang.

Odatda, bir kishi ko'pchilikka salom beradi. Xonaga kirgan kishi u yerdagilarga salom berishi lozim.

Ayrim joylarda (hojatxonada) esa salomlashilmaydi.

O'zingdan kattalarga "Assalomu alaykum" deb salom bering. "Salom", "yaxshimisiz" kabi so'zlarni aytib salomlashmang. Bu ham odobdan emas.

Odatda, tengdoshlar shunday salomlashishadi.

Gapda so'z tartibi. Gap bo'laklarining tushib qolishi

So'zlar tartibi gap bo'laklarining nutqda o'rinishini bildiradigan sintaktik hodisadir. O'zbek tilida so'zlar tartibi asosan erkin, lekin unda so'zlarning bog'liq tartibi ham uchraydi. Ba'zi bo'laklar gapdagi turli o'rnlarda kela olsa, ayrim bo'laklar faqat muayyan o'rinda keladi.

So'zlarning sintaktik vaziyati, funksiyasi maxsus grammatik vositalar (turlovchilar, tuslovchilar, ko'makchilar kabi) asosida belgilanganda, so'zlar tartibi erkin bo'ladi.

Gap bo'laklarining tartibi ikki xil bo'ladi: odatdagi tartib va o'zgargan tartib.

O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi erkin bo'lsa ham, ular gapda ma'lum qoidalar asosida joylashadi.

O'zgargan tartib *inversiya* deyiladi. She'riyatda yoki so'zlashuv nutqida o'zgargan tartib qo'llanishi mumkin.

So'zlarning o'rin almashishi ularning grammatik holatiga jiddiy ta'sir etmaydi. Biroq bu gap mazmuniga, uslubiy jihatiga ta'sir etadi. Qiyoslaymiz: ***Men bozorda G'olibni uchratdim. G'olibni men bozorda uchratdim. Bozorda G'olibni men uchratdim.*** Bu gaplarda o'zbek tilining o'ziga xos mantiq urg'usining qo'llanish usuli namoyon bo'lmoqda. Birinchi gapda boshqa bironi emas, aynan G'olibni uchratganim, ikkinchi gapda boshqa joyda emas, aynan bozorda uchratganim, uchinchi gapda esa boshqa bironi emas, aynan men uchratganim haqidagi mazmun ifodalanyapti. O'zbek tilida mantiq urg'usi olgan so'z odatda kesimdan oldin joylashadi. Mantiq urg'usi kesimga tushganda, kesim joyini o'zgartirmaydi, balki o'z joyida yuqori ton – ohang bilan aytiladi, xolos.

O'zbek tilida eganing gap boshida, kesimning gap oxirida kelishi doimiy, me'yoriy hol hisoblanadi. Biroq badiiy uslubda, shior tipidagi buyruq va undov gaplarda, ayniqsa, og'zaki nutqda ega bilan kesimning o'zaro almashinib qo'llanish holatlari ko'plab uchraydi.

Masalan: ***Yashasin xalqlar o'rtasidagi baynalmilal do'stlik!***

Keldi bahor, gul bahor,

Erib bitdi oppoq qor, kabi.

21-mashg'ulot.

MAHALLAMIZ KELAJAGI

- Mahalla haqida suhbat.
- Mahallalar tarixi haqida.
- Gapning tuzilishiga ko'ra turlari.

MAHALLA - VATAN ICHRA VATAN

Oila ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahalla vatan ichidagi vatandir. Zotan, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Shunday mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog'day tayanchidir. Xursandchilik kunlari ham, boshga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lish xalqimizning muhim xususiyati sanaladi. Mahalla esa insonlar orasidagi bunday birlik va hamjihatlikning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mahalla shunday bir muqaddas dargohki, unda insonlar bir-biri bilan opa-singil, quda-anda, do'st-birodar, quvonch-u g'amlariga sherik, farzand tarbiyasida ahli mas'uldir. Yutuqlar ham, kamchiliklar ham mahalla ahliga baravar bo'lib tushadi. Shuning uchun ham xalqimizda "Otang – mahalla, onang – mahalla" degan naql bejiz aytilmagan.

Darhaqiqat, mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan, yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatuvchi, xalqning turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analri, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan - avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan.

1- topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Sizning mahallangiz qaysi tumanda joylashgan?
2. Uning nomi nima?
3. Mahallangizning nomini kelib chiqish tarixini bilasizmi?
4. O'z mahallangiz haqida gapirib bering.

Gapning tuzilishiga ko'ra turlari

Gaplar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sodda gaplar
2. Qo'shma gaplar

Sodda gaplar faqat bitta gapdan iborat bo'lib, uning grammatik asosi bitta bo'ladi: ***Yurtimizda so'lim joylar ko'p.***

Sodda gaplar grammatik asosiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Bir bosh bo'lakli gaplar.

2. Ikki bosh bo'lakli gaplar.

Bir bosh bo'lakli gap tarkibida faqat bitta bosh bo'lak, yo ega, yo kesim qatnashadi. Bir bosh bo'lakli gaplarning o'zi quyidagi turlarga bo'linadi: *shaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi topilmas, shaxsi umumlashgan, atov va so'z – gaplar.*

Ikki bosh bo'lakli gap tarkibida har ikki bosh bo'lak (ega va kesim) ishtirok etadi. Agar bunday gap faqat ega va kesimdan iborat bo'lsa, *sodda yig'iq gap* deyiladi.

Gapda ega va kesimdan tashqari ikkinchi darajali gap bo'laklari ham mavjud bo'lsa, *sodda yoyiq gap* hosil bo'ladi.

Qo'shma gaplar ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning ma'lum bir grammatik qonun-qoidalar asosida birikuvidan hosil bo'ladi: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.*

2- topshiriq. Quyidagi gaplarning tuzilishiga ko'ra sodda yoki qo'shma ekanligini aniqlang.

1. Onasi ularni kuzatib qaytib kirsam, o'g'li kiyim-boshi bilan karavotda cho'zilib yotibdi. 2. Ertasiga ham mavrid bo'lmadi. 3. Shamol kuchayib olovning tili yana ham uzunlashdi. U yashin tezligida qamishlarni yamlab borardi. Cho'l shamolidek telba shamol bo'lmaydi. 4. Mashina Yangichekka yaqinlashganda, bir necha otliq ko'rindi. 5. Havo bulut bo'ldi, lekin yomg'ir yog'madi. 6. Ikromjonning gapi rost edi. Ikromjon mo'ljalga olib o'q uzdi. 7. Shular qayoqqa boshlasa boraveraman.

3- topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Bir bosh bo'lakli gap turini aniqlang.

1. Mana Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda. 2. Vaqtini to'xtatib bo'lmaydi. 3. Erta eksang, erta o'rasan. 4. Sharqda keksalarni donishmandlarga tenglashtirishadi. 5. Ertaga barvaqtroq kelaman.

22-mashg'ulot.

XALQ SAYLI

- Navro'z bilan bog'liq xalq udumlari mavzusida suhbat.
- O'zbekiston Milliy bog'i bayramda qanday bo'lishini tavsiflab berish.
- Bog'langan qo'shma gap.

NAVRO'Z


Navro'z Sharq xalqlari orasida bir necha ming yillardan buyon nishonlanib kelmoqda. Ko'p asrlar davomida bir qancha bosqinchi qo'shinlar Sharq xalqlarining umumiy bayramini yo'q qilishga harakat qildilar. Ammo Navro'z barhayotligicha qolaverdi. Navro'z biron bir sanani sun'iy ravishda nishonlash emas, kun va tun tenglashganligini anglatuvchi bayramdir. U tabiatning o'zidan kelib chiqqan. Navro'zdan keyin kunlar uzayadi. Uzoq qishdan so'ng ko'kda quyoshning yuz ko'rsatishi, qirda maysa-giyohlarning nish urib chiqishi xalqimiz uchun haqiqiy shodiyonaga aylangan. Nav-yangi, ro'z-kun, ya'ni yangi kun deb atalishi ham bejiz emas. Navro'z yurtimizga go'zal bahor faslining kirib kelib, kelinchakdek o'z yashil sepini yoyishi bilan boshlanadi.

Navro'z - dehqonchilikning yangi mehnat kuni, tabiatga va yerga mehr-muhabbatning uyg'onishi, o'zaro nizo, urushlar, ginalarning kechirilishi, tinch-totuvlik, yaxshi qo'shnichilik aloqalarini o'rnatish kabi hayotiy mazmunlar bilan boyitilgan.

Navro'z - rahm-shafqatning boshlanishi, tabiatni asrashga da'vat, o'tganlarni xotiralash, birinchi ekin kunidir. Ulug' bobomiz hazrati Alisher Navoiy aytganlaridek, xalqimizning har bir kuni Navro'zday nurafshon bo'lsin!

1- topshiriq. Matn yuzasidan savol-javob o'tkazing. Navro'z haqida bilganlaringizni aytib bering.

2-topshiriq. Xalq bayramlari va sayllari bo'yicha klaster tuzing.



3- topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

QADRIYATLAR QADR TOPMOQDA

Xalqimizning bayramlari ko'p: Navro'z, Mehrjon, Hosil bayrami. Men bu bayramlarni yaxshi ko'raman. Bu bayramlarda xalq sayllari o'tadi.

Navro'zga bag'ishlangan xalq sayllari ayniqsa, zo'r o'tadi. Kattakatta doshqozonlarda osh, sumalak kabi taomlar tayyorlanadi.

Lekin muhimi bu emas. Shahar markazlari, dalalarda, bog'larda xalq sirki artistlarining tomoshalari boshlanadi. Masxarabozlar, dorbozlar yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashadi.

Sayllar milliy o'yinlarsiz o'tmaydi. Polvonlar ham shu kuni o'zlarining nimaga qodirligini ko'rsatish uchun gilamga chiqishadi. Dunyoga yuz tutayotgan o'zbek milliy kurashisiz sayl bo'larmidi axir.

Saylda hamma xursand. Har kim miriqib dam oladi. Bayramlar ertangi kunimizga ishonchimizni mustahkamlaydi.

Xullas, ozod yurtga bayramlar yarashadi. Ona O'zbekistonimizning har kuni bayram bo'laversin.

Bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot

Qismlari teng bog'lovchilar, **bo'lsa, esa** so'zlari, **-u, -yu, -da** yuklamalari yordamida bog'langan gaplar ***bog'langan qo'shma gaplar***

hisoblanadi. Bog'langan qo'shma gaplar o'zaro teng huquqli qismlardan tarkib topadi.

Sarbon shundoq dedi-da, quchog'ini ochib Abubakr tomon kela boshladi.

Bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning teng bog'lovchilarning qaysi turi bilan birikishiga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Biriktiruv** bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
Bahor keldi va kunlar iliy boshladi.

2. **Zidlov** bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
Biz ko'p kutdik, biroq undan darak bo'lmadi.

3. **Ayiruv** bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
Bugun yo biz g'olib bo'lamiz, yo durang bo'ladi.

4. **Bo'lsa, esa** so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
Hamma rozi, sen esa o'z bilganingdan qolmayсан.

4- topshiriq. Gaplarni ko'chiring, bog'langan qo'shma gaplar qanday bog'lovchi vositasida bog'langanligini ayting.

1. Havo bulut bo'ladi, lekin yog'ingarchilik bo'lmaydi.
2. O'qituvchi sinfga kirdi va bolalar bilan salomlashdi. 3. Go'zal goh kuladi, goh ko'z yoshi yuzini yuvadi. 4. Tadbir so'ngida konsert berildi va badiiy film namoyish qilindi.

5- topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я много думал, но так и не пришел к конкретному решению.
2. Было многолюдно, и мы чуть не потеряли друг – друга. 3. Раньше я его не знал, но был о нем наслышан. 4. То солнце светит, то ветер поднимает пыль с полей и становится прохладно. 5. Карим и Назир учатся в одной группе. 6. Ходить было трудно, так как шел дождь. 7. Не сетуйте на жизнь, ибо она полна тревог и забот. 8. То шел снег, то переходил в дождь. 9. Сегодня дежурят Икбол или Саида.

6- topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Adham goh kulib, goh yig'lab, bo'lgan voqeani aytib berdi. 2.

Tohir yoki Anvar kelganida, shu ishni ularga topshirardik. 3. Shamol oldindan esardi, shuning uchun yurish qiyin bo'ldi. 4. Nodira ham, Noiba ham faqat a'lo baholarga o'qiydi. 5. Unga gaplarimni yetkazing, toki bekorga kutib yurmasin.

7-topshiriq. Bog'langan qo'shma gapning har bir turiga ikkitadan gap tuzing.

8-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Bog'langan qo'shma gaplarni topib, qismlarini qanday bog'lovchi vositasida bog'langanligini ko'rsating.

1. Turobjon bu gapni ularga aytdi-yu, ammo xotinining ahvolini ko'rib achchig'idan tushdi. 2. Shu payt tog' cho'qqisidan katta bir tosh yumaladi va yo'ldagi boshqa toshlarni qo'porib, dahshatli toshbo'ron boshlandi. 3. Endi Yodgorning xo'jayindan qarzi ikki yuz tangaga va otasidan qolgan qarzi bilan ming tangaga yetgan edi. 4. O'qishi ham yaxshi, talabalar orasidagi obro'si ham yaxshi. 5. Do'stlar to'planishdi va biz uzoq suhbatlashdik

23-mashg'ulot. **XIZMAT SAFARI**

- O'zbekistonning sanoat shaharlari haqida suhbat.
- O'z viloyatidagi sanoat korxonalarini tavsiflash.
- Ergash gapli qo'shma gap.

O'ZBEKISTON SANOAT HUDUDLARI

O'zbekiston Respublikasida sanoatning rivoj topishida ko'pgina shahar va hududlar muhim rol o'ynaydi. Chunki aynan hududlarda davlatimiz sanoatiga katta hissa qo'shuvchi sanoat obyektlari joylashgan. Toshkent viloyatida joylashgan Angren shahrining barpo etilishi bu hududda ko'mir shaxtasining ochilishi bilan bog'liq. Chunki aynan Angrenda joylashgan "O'zbekko'mir" kombinati mamlakatimizning barcha sanoat korxonalarini va aholimizni ko'mir bilan ta'minlaydi. Angrenda chiqariladigan ko'mirning 2/3 qismi ochiq usulda qazib olinsa, qolgan bir qismi "Yerostigaz" stansiyasida yer qa'rida gazga aylantirilib

Angren GRES va Yangi Angren GRES larni gaz bilan ta'minlab turadi. Shuningdek, Angrenda "Angren rangli metallar", "Sanoat kartonsavdo" hissadorlik jamiyati, "Angrenkulol" hissadorlik jamiyati, "O'zbek rezina texnika" ishlab chiqarish birlashmasi, "Kaolin" O'zbek-Germaniya qo'shma korxonasi va yirik avtokorxonalar, noruda materiallar karyeri, uysozlik kombinati ishlab turibdi. 2012-yilda Prezidentimiz farmoniga ko'ra zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart sharoitlarni yaratish, Angren shahrining va unga yaqin hududlarning resurs salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Angren erkin industrial zonasi tashkil etildi. Angren maxsus industrial zonasining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etib, bu muddat yana uzaytirilishi mumkin. Angren MIZ faoliyat yuritadigan muddat mobaynida uning hududida maxsus soliq tartibi va bojxona imtiyozlari amal qiladi. Bu hududda faoliyat yurivutchi barcha investor va korxonalar ko'p imtiyozlardan foydalanadilar. Bunday industrial zona 2008-yilda Navoiyda ham tashkil etilgan.

Ma'lumot uchun

Sanoat obyektlari joylashgan hududlar:

Navoiy shahri - Navoiy tog'-kon metallurgiya zavodi.

Toshkent viloyatining Bekobod, Angren, Olmaliq va Ohangaron tumanlari va shaharlari - Ohangaron va Bekobod sement va shifer zavodlari, AGMK, Bekobod metall zavodi va hokazolar.

Qashqadaryo viloyati - Sho'rtangazkimyo kompleksi, suyultirilgan gaz qazib oluvchi zavodlar, Sho'rtan gaz mahsulotlari, Muborak neftni qayta ishlash zavodi.

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi va boshqalar.

1- topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing, matn mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning. Matnni ma'noli qismlarga ajrating va reja tuzing.


2- topshiriq. Shaharlar orasidagi masofani aniqlang va ularni o'zaro taqqoslang.

1. (Samarqand –Toshkent) Samarqanddan Toshkentgacha 365 km.
2. (Toshkent – Namangan)
3. (Toshkent – Nukus).....

4. (Qarshi – Termiz)
5. (Farg‘ona – Toshkent)
6. (Buxoro – Urganch).....
7. (Samarqand – Buxoro).....
8. (Termiz – Toshkent)

Suhbat uchun savollar:

- O‘zbekiston Respublikasida nechta viloyat bor?
- O‘zbekiston aholisi qancha?
- O‘zbekistonning yirik shaharlarini aytib bering?
- O‘zbekistonda qaysi sohalar yaxshi rivojlangan?
- O‘zbekistonning hududi qancha?
- Respublika qaysi davlatlar bilan chegaradosh?



Ergash gapli (ergashgan) qo'shma gaplar

Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar hisoblanadi. *Biz zalga kirganimizda, konsert hali boshlanmagan edi.*

BOSH VA ERGASH GAP

Ergashgan qo'shma gaplar doimo ikki qismdan tashkil topadi: 1) bosh gap; 2) ergash gap. Mazmuni izohlanayotgan gap *bosh gap*, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap *ergash gap* hisoblanadi. Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi: 1) ergashtiruvchi bog'lovchilar; 2) ko'makchili qurilmalar (*shuning uchun, shu sababli, shu tufayli va boshqalar*); 3) yuklamalar; 4) nisbiy so'zlar (*kim - o'sha, nima-shu, qayer-shu yer va boshqalar*); 5) *deb* so'zi va boshqalar.

Ergashgan qo'shma gaplar mazmuni hamda grammatik shakllanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Kesim ergash gapli qo'shma gaplar. *Gapning rosti shuki, yig'loqi torlarni chertishga o'zimning ham toqatim yo'q.*

2. Ega ergash gapli qo'shma gaplar. *Shunisi hayajonliki, men uning ko'zlarida zarracha ham yosh ko'rmadim.*

3. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar. *Bilasizmi, xo'jayinning Nuri degan qizlari bor (Oybek).*

4. Aniqllovchi ergash gapli qo'shma gaplar. *Kimning bilimi kuchli bo'lsa, uning mulohazalari ham chuqur bo'ladi.*

5. Hol ergash gapli qo'shma gaplar.

Bosh gap tarkibida hol vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti, payti, holati, miqdor-darajasi kabilarni bildirgan ergash gaplarga hoi ergash gap deyiladi.

Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar, shart mayli shakllari; sabab, maqsad, shart bog'lovchilari; deb so'zi yordamida bog'lanadi. Hol ergash gaplar holning ma'no turlariga muvofiq o'z ichida payt, o'rin, sabab, maqsad, shart, miqdor-daraja ergash gaplar singari bir necha turlarga bo'linadi.

6. Ravish ergash gapli qo'shma gaplar. *Yulduzlar bitta-bitta so'nib, ufq oqara boshladi.*

7. O'rin ergash gapli qo'shma gaplar. *Ko'z qayerda bo'lsa, ko'ngil ham shu yerda bo'ladi (maqol).*

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Istagim shu, hech so'nmasin yongan chirog'ing. 2. Biz istaymiz, barcha ellar, elatlar bir-birlari bilan bo'lsin yana yaqinroq. 3. Shuni unutmangki, biz ozod zamonda yashayapmiz. 4. Kimki halol bo'lsa, u

hurmatga loyiq. 5. Hech shubha yo'qki, biz g'olib bo'lamiz. 6. Yurak tandir emaski, o't yoqib qizdirsang.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Ergashgan qo'shma gap turini aniqlang.

1. Mening fikrim shu, siz uni bekorga xafa qilyapsiz. 2. Biznikiga kelsang, birga dars tayyorlaymiz. 3. Bahor kelsa ham, kunlar ancha sovuq. 4. Umid qilamanki, bizni unutib yubormaysiz. 5. Yulduzlar bitta-bitta so'nib, ufq oqara boshladi. 6. Sizdan o'tinib so'rayman, biz bilan qoling.

5- topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Когда я окончу учебу, мы переедем в Самарканд. 2. Если хорошо постараться, эту работу можно закончить за два дня. 3. Карим настолько увлекся чтением, что не заметил как я ушел. 4. Мы все знаем, что счастья можно добиться лишь честным трудом. 5. Несмотря на то, что шел дождь, болельщики не покидали стадион.

6- topshiriq. Ikkinchi ustundan birinchi ustundagi gaplarning davomini topib yozing.

Kunduzlari issiq bo'lsa-da,
Quyosh botgan bo'lsa ham,
Tomosha tugagan bo'lsa ham,
Qor yog'ib turgan bo'lsa-da,
U yangi uy olgan bo'lsa ham,


bolalar uyga kirishni istashmas edi.
kechalari ancha salqin bo'ladi.
ko'chib o'tishni xayoliga keltirmasdi.
zalda hali odamlar to'la edi.
hali hammayoq yorug' edi.

24-mashg'ulot.

O'ZBEKISTON TRANSPORTI VA YO'LLARI

- O'zbekiston transporti va yo'llari mavzusida suhbat.
- Transportda yurish odobi.
- Ergash gapli qo'shma gap (davomi).

1-topshiriq. Quyidagi klasterni to'ldiring:



O'ZBEKISTON HAVO YO'LLARI

«O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasi bilan O'zbekistonga xush kelibsiz!». Bu jumlaning siz albatta «O'zbekiston havo yo'llari» havo layneri borta bo'lganingizda eshitasiz. Bu jumla nafaqat oddiygina rasmiylik bo'lib qolmasdan, balki O'zbekistonning avvalambor o'ziga xos sharqona mehmondo'stligi, bag'rikengligidan dalolat beradi.

O'zbekiston eng yosh mustaqil davlatlardan biri bo'lishiga qaramasdan, u juda katta o'tmish va sivilizatsiyani o'zida saqlab kelgan zamindir. Buxoro, Samarqand, Xiva, Farg'ona kabi shahar nomlarini eshitmagan madaniyatli inson bo'lmasa kerak albatta. Ular o'zining betakror va jozibakor me'morchiligi, go'zalligi, chuqur va boy o'tmishimizning aksi sifatida dunyo hamjamiyatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Insonlarning shu kabi turistik markazlarida bo'lish istaklari kundan kun oshib bormoqda. Masofa esa-hech narsa emas, O'zbekistonni turli mamlakatlar bilan bog'lovchi havo trassalari tufayli ular qisqaradi.

Bu borada O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasi katta yutuqlarga erishib, umumjahon aviatsion hamjamiyatida eng ishonchli va jadal rivojlanib borayotgan aviakompaniyalar sifatida tan olingan.

O'zbekistonda fuqarolik aviatsiyasining butun infratuzilmasi tashkil etilgan va bu tarmoq xalq xo'jaligining eng zamonaviy va ilg'or jabhalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda zamonaviy samolyot parkida Eyrbas-310, Boeing-767, Boeing-757, RJ-85 kabi havo laynerlari, XXI

asrning navigatsiya tizimi, yangi aerodrom va aeroportlar mavjud. Bularning barchasi parvozning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlaydi.

Yevropa va Janubiy sharqiy Osiyo havo yo'llari kesishgan joyda joylashgan O'zbekiston yo'lovchi va yuk tashishni ta'minlovchi xalqaro transport tizimiga kiradi. Bu borada esa Toshkent aeroporti Markaziy Osiyodagi eng katta aeroportlardan biri hisoblanadi. Qayta ta'mirlashdan so'ng Toshkent aeroporti soatiga mingdan oshiq yo'lovchilarni qabul qilish imkoniga ega bo'lib, barcha xalqaro standartlarga javob beradi.

Poytaxt aeroportidan tashqari, O'zbekiston havo yo'llari infratuzilmasida 12 ta ichki aeroportlar mavjud bo'lib, ulardan uchasi «Xalqaro» hisoblanadi.

Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga yetib borish uchun 1 soatgina RJ-85 samolyotida parvoz qilsangiz bo'ldi, siz manzildasiz.

Albatta, O'zbekiston bo'ylab sayohatda, o'zbek xalqi mehmondo'stligi, madaniyati va an'analari bilan tanishish ko'pchilik sayyohlarda katta taassurot qoldiradi, «O'zbekiston havo yo'llari» bilan parvoz esa sayohatingizni xavfsizligi va qulayligini ta'minlaydi. «O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasi bilan Toshkentga xush kelibsiz!»

2-topshiriq. Ko'rsatilgan manzillarga yetib borish yo'nalishini og'zaki ifodalang

- Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona.
- Amir Temur muzeyi.
- Nizomiy nomidagi TDPU.
- Milliy bog'.
- Alisher Navoiy nomidagi kinoteatr.
- O'zbek Milliy akademik drama teatri.

3-topshiriq. “Jamoat transportida” mavzusida dialogik matn tuzing.

Ergashgan qo'shma gaplar (davomi)

Ergashgan qo'shma gaplar mazmuni hamda grammatik shakllanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

8. Payt ergash gapli qo'shma gaplar. *Qachon uni ko'rmay, u yoshlar orasida bo'ladi.*

9. Sabab ergash gapli qo'shma gaplar. *Olim qiziqroq gap aytdi shekilli, Nodir qah-qah urib yubordi.*

10. Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar. *So'zim unga qanday ta'sir etarkan degan niyatda diqqat bilan unga tikildi (A.Qahhor).*

11. Shart ergash gapli qo'shma gaplar. *Qalb salomat bo'lsa, fikr ham salomat bo'ladi (Said Ahmad).*

12. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar. *Havo bulut bo'lsa ham, yog'ingarchilik bo'lmaydi.*

13. Natija ergash gapli qo'shma gaplar. *Bo'lim mudiri shunday kuldiki, ko'zoynagi siljib ketdi.*

14. O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar. *Ona farzandiga mehrini berganidek, yer ham bizni parvarish qiladi, ardoqlaydi.*

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Ular Toshkentga kelishganda, kun choshgohdan oshgan edi. 2. Oylar o'tib, Akbarali anchagina o'rtoqlar orttirdi. 3. Sen ishonmasang, boshqalar ishonadi. 4. Zangori osmon shunday tiniq, shunday beg'uborki, ko'zni oladi. 5. Xolmirzaning jahli chiqdi shekilli, xonadan tez chiqib ketdi. 6. Ikki chinor yonma-yon tursa uni bo'ron ham yiqita olmaydi. 7. Qani endi u hayot bo'lsa, qizining baxtini ko'rsa. 8. Qo'rqqoqlik juda zararlidir, chunki u irodani foydali harakatlardan to'xtatib qo'yadi.

5-topshiriq. O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarni topib ko'chiring. Mazmunini tushuntiring.

1. Ayol shu qadar kuyib yig'ladiki, kechqurun dadam kelganda oyim bir mungli mushtiparning hojatini chiqarishni yolvorib so'radi. 2. Inson hamma narsaga ko'nikganiday, Gulsanam ham taqdirga tan berdi. 3. Go'yo uning yuragini o'ragan bulut tarqaganday, yuzi yorqinlashib ketdi. 4. Oppoq nozik yuzi quyoshda shunday tiniq ko'rindiki, go'yo u nurdan yaralganday. 5. Birdan boshi aylanib, ko'ziga xirmon ko'rindi.

6-topshiriq. Payt ergash gapli qo'shma gaplarga va shart ergash gapli qo'shma gaplarga misol yozing.

7-topshiriq. Gaplarni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling. Rus va o‘zbek tillaridagi shart ma’nosining ifoda vositalarini bir-biriga qiyoslang.

1. Если ты приедешь рано, то мы вместе поедem за город.
2. Если ты пришёл бы во время, мы бы не опоздали.
3. Если бы все трудились как следует, не было бы всего этого.
4. Если кто-то узнает об этом, нам придётся все рассказать.
5. Если вы хотите быть здоровым, нужно соблюдать режим.

25-mashg‘ulot.

O‘ZBEK SAN’ATI USTALARI

- “Yunus Rajabiy” matni.
- Bugungi o‘zbek kinosi bo‘yicha bahs-munozara.
- Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.

O‘ZBEKISTON SAN’ATI

O‘zbekiston tasviriy san’ati o‘zining qadimiy ildizlariga ega. XV-XVI asrlarda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali kabi buyuk rassomlar asos solgan an’analar hozirgacha davom etib kelmoqda. Respublika tasviriy va amaliy san’at bilim yurtida qadimiy hunarmandchilik turlarining san’at darajasiga ko‘tarilgan ganchkorlik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik sirlari yosh avlodga o‘rgatilayotgan bo‘lsa, rassomchilik kollejida tasviriy san’atning rang-tasvir, portret, peyzaj, miniatyura, natyurmort kabi turlari o‘qitilmoqda. O‘zbek rassomlari Chingiz Ahmarov, Abdulhaq Abdullayev, Bahodir Jalolov, Ro‘zi Choriyev, Rustam Xudayberganov, Muzaffar Abdullayevlarning asarlari dunyodagi ko‘pgina nufuzli ko‘rgazmalarda namoyish qilingan.

Kino san’ati ham O‘zbekistonda juda yuqori darajada rivoj topgan. Kinoning barcha turlari – badiiy film, hujjatli film, teleseriallar, multiplikatsiya, ilmiy-ommabop filmlar sanoatining shuhrati MDH mamlakatlarida mashhur. Har yili «O‘zbekfilm» kinostudiyasida tarixiy, sarguzasht, detektiv, sevgi va hayot hamda mehr-vafo haqidagi o‘nlab filmlar suratga olinadi. «Mahallada duv-duv gap», «O‘tgan kunlar»,

«Kelinlar qo‘zg‘aloni» kabi filmlarni o‘zbekistonliklar juda sevib tomosha qilishadi.

O‘zbek teatr san’ati ham o‘z tarixiga, rivojlanish bosqichi ham o‘ziga xos an’analariga ega. Teatr san’ati darg‘alari Abror Hidoyatov, Sora Eshonto‘rayeva, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, G‘ani A‘zamov, Soyib Xo‘jayev kabilar o‘zbek teatr san’atini yuqori pog‘onaga ko‘targanlar. Ular ishtirokidagi har bir spektakl tomoshabinlarga olam-olam ma’naviy ozuqa bergan.

O‘zbekistonda, shuningdek, opera, balet, estrada, me’morchilik kabi san’at turlari ham katta yutuqlarga ega bo‘lgan holda rivojlanib bormoqda.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbek bastakorlaridan kimlarni bilasiz?
2. Ularning qaysi asarlarini bilasiz?
3. Zamonaviy ijrochilardan kimlarni sevib tinglaysiz?
4. O‘zbek mumtoz ashulalarini eshitasizmi?
5. Ularning nomlarini bilasizmi?
6. O‘zbek estrada xonandalaridan kimlarni bilasiz ?
7. Hozirgi zamonaviy estrada guruhlariga munosabatingiz?

2- topshiriq. Matnni o‘qing. Uning yuzasidan savol-javob qiling. Matn mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.



YUNUS RAJABIY

Yunus Rajabiy O‘zbekistonda maqom maktabini yaratgan madaniyat arbobidir. 1940-1941-yillarda Moskvada bastakorlar kurslarida o‘qib yurganida, u Yevropa mumtoz musiqasi, klassik bastakorlar ijodi bilan tanishdi.

Yunus Rajabiy atoqli madaniyat arboblari domla Halim Ibodov, Xoji Abdulaziz Rasulov, Shorahim Shoumarov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedovlardan maqomlar o‘rgandi.

Yunus Rajabiy “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Xolisxon” kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar yaratdi.

“Bayot”, “Girya”, “Dugoh Husayniy”, “Ko‘cha bog‘i” kabi

ashulalarni xalqimiz Yunus Rajabiy tufayli sevib qolgan.

Bastakor 1930-yillardayoq xalq musiqasi namunalarini notaga yozib olishga kirishgan, keyinroq ularni nashr eta boshlagan. “O‘zbek xalq muzikasi” kitobining I-V jildlari Yunus Rajabiy yozib olgan musiqa namunalaridan iborat. Unda Toshkent – Farg‘ona maqom yo‘li, Buxoro “Shosh maqomi” alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston xalq artisti, respublika Fanlar Akademiyasining akademigi Yunus Rajabiy yaratgan taronalarni xalqimiz hanuz sevib tinglaydi.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap haqida ma’lumot

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o‘zaro grammatik bog‘lovchilar yordamisiz birikuvidan tuzilgan qo‘shma gaplar **bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar** bo‘ladi: *Suv keldi – nur keldi. Yomg‘ir tingan, osmon tiniq, mayin shabada esadi.*

Tarkibidagi soda gaplar mazmuni bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, maxsus bog‘lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar **bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar** sanaladi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari ishlatiladi.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Tinish belgilariga e’tibor bering.

1. Qo‘shning tinch – sen tinch. 2. Suv keldi – nur keldi. 3. Vaqting ketdi – naqding ketdi. 4. Men shu yerda kutib turaman, o‘zing borib kela qol. 5. Xalqimiz mehmondo‘st : topgan-tutganini mehmonining oldiga qo‘yadi. 6. Qayerdadir xo‘roz qichqirdi: tong otishi yaqin.

4-topshiriq. Quyidagi maqollarni o‘qing va ma’nosini tushuntiring.

1. Dono o‘zini ayblaydi – axmoq do‘stini. 2. Kiyimni tozalikda saqla, obro‘ni yoshlikdan. 3. Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar. 4. Ota – xazina, aka-uka tayanch, do‘st har ikkovidir. 5. Qo‘shning tinch – sen tinch.

26-mashg'ulot. TOSHKENT TEATRLARI

- Toshkent teatrlarida qo'yilayotgan spektakllar haqida suhbat.
- "O'zbek san'ati ustalari" mavzusida referat tayyorlash.
- Bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning o'zaro ma'nodoshligi.

1-topshiriq. Berilgan matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.



Национальный Драматический театр Узбекистана

В аудитории театра имеются 540 посадочных мест. Билеты можно приобрести заранее или напрямую до начала спектаклей.

В этом театре спектакли проходят на узбекском языке. Для зрителей, не владеющих узбекским языком, предлагаются интересные музыкально-пластические представления, одно из которых "О, женщина", которое поставлено на основе легенд и песен Узбекского фольклора.



Академический Русский Драматический Театр Узбекистана

Театр создан в 1934 году. Основатели театра - художественный руководитель В.А. Чиркин и директор М.К. Вулконский. Основой репертуара стала современная пьеса,

поднимающая проблемы сегодняшнего дня, ставящая вопросы социальные, нравственные, этические. В разное время это были спектакли по пьесам В. Вишневского, А. Арбузова, К. Симонова, В. Розова, М. Рощина, И. Дворецкого, А. Салынского, А. Гельмана, М. Шатрова, А. Чхaidзе и многих других.



Государственный Большой театр оперы и балета имени Алишера Навои

ГАБТ имени Алишера Навои является единственным Большим театром на всей территории Центральной и Юго-Восточной Азии. Его достижения - это великое достояние узбекского народа, гордость нации. Следующий сезон для театра будет юбилейным, ему исполнится 75 лет.



Театр оперетты (Ташкентский Государственный театр музыкальной комедии)

Театр оперетты образован в 1972 г. Впервые занавес театра был открыт в августе 1973 г. спектаклем Штрауса «Весёлая война» в постановке А.Гинзбурга. За эти годы театр поставил свыше 250 спектаклей. За эти годы поставлены спектакли Штрауса «Летучая мышь», «Король вальса», «Цыганский барон», Кальмана «Марица», «Сильва», «Баядера», «Голландочка», «Фиалка Монмартра», Легаро «Весёлая вдова», «Граф Люксембург»...



Культурно-творческий центр "Аладдин"

В январе 1998 года была основана независимая театральная труппа-театр «Аладдин». За время своего существования, на площадке театра «Аладдин» создано более 20 сценических проектов, среди которых спектакли по пьесе американского драматурга Теннесси Уильямса «Трамвай Желание», болгарского автора Христо Бойчева «Полковник Птица», классика французской драматургии Жанна Франсуа Реньяра «Единственный Наследник» и многие другие.



Молодежный театр Узбекистана

Молодежный театр Узбекистана до 1998 г. назывался ТЮЗ и был основан 30 апреля 1928 года. На протяжении своей истории театр неизменно обращается к разным категориям зрителей. Для малышей игрались и играют яркие сказочные феерии, призванные пробудить творческий потенциал маленького зрителя-соучастника сценического процесса: "Три поросенка", "Терем-шок", "Приключения Фунтика" режиссёра Мустафина



Республиканский Кукольный Театр

В 1979 году, в год 40-летия коллектив Республиканского театра кукол отметил свое новоселье в новом замечательном здании на проспекте Космонавтов 1, о котором мечтало не одно поколение ташкентских кукольников. Фойе театра представляет собой восточный сказочный город, выполненный из цветной майолики. В перерыве юные зрители могут пробежаться по ступенькам его таинственных замков или спуститься в уютный дворик с цветущим садом и мраморным фонтаном.



Республиканский Театр юного зрителя

Театр удобно расположился в теневой зоне на одной из центральных улиц города, недалеко от станций метро "Пахтакор" и "Алишер Навоий". В этом театре находится 347 мест. Билеты можно приобрести как по предварительному заказу, так и непосредственно перед представлением. Все постановки театра ориентированы на детскую аудиторию ("Золушка", "Огненный клинок", "Озорник" на основе рассказов великого узбекского классика Г.Гуляма. "Волшебник изумрудного города" и другие).



Драматический Театр имени Абнора Хидоятова

Театр открыт в 1968 году спектаклем «Дийдор». За это время было сыграно более 300 спектаклей. Театр своеобразен в своем роде, каждый посетивший его сможет ощутить подъем душевных и физических сил. Абнору Хидоятову не исполнилось ещё и шестнадцати лет, когда он стал одним из первых актёров театра. Было это в 1916 году, а в двадцатом Абнор – уже известный артист...



Музыкальный Театр имени Мукими

Театр был основан в ноябре 1939 года, тогда ещё «Узбекский музыкально-драматический театр». Однако его деятельность началась ещё 1929 году и назывался он «Узбекский оперный театр», объединявший в себе как оперное искусство, так и музыкальную драму. Позднее, в 1939 году произошло разделение на оперный (ныне ГАБТ им. Навои) и музыкальный (ныне Государственный музыкальный театр имени Мукимий).



Театр танца "Офарин"

Театр танца Алии Шалхаровой - "Офарин" создан в июле 2003 года. В марте 2004 года презентовал свой первый хореографический спектакль "Раккоса" ("Танцовщица") на сцене ГАБТ имени Алишера Навои. За четыре года своей деятельности "Офарин" представил зрителям пять сольных программ: "Раккоса", "Мечты сбываются", "Танец - жизнь моя", "Колыбельная для планеты" (Нидерланды - Узбекистан), "Сны" (Великобритания - Узбекистан).

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

- Sizning fikringizcha hozirgi kunda teatr san'atida qanday yutuq va

kamchiliklar mavjud

- Bunga sabab nima?
- Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilinishi kerak?
- Yanada yuqori natijalarga erishish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?
- Bir xil ampuadagi aktyor deganda nima tushunasiz?
- Tipaj so'ziga ta'rif bering?
- Komik va tragik aktyorlarga qanday talablar qo'yiladi?
- Kino va teatr san'atiga oid qanday yangiliklarni bilasiz?

2-topshiriq. Quyidagi aktyorlar (aktrisalar) qaysi spektakl va kinofilmlarda rol ijro etishgan?

Lutfixon aya Sarimsoqova, Nabi Rahimov, Razzoq Hamroyev, Baxtiyor Ixtiyorov, Sora Eshonto'rayeva, Amin Turdiyev, Nozim To'laxo'jayev, Pirmat Pirmuxamedov, Rixsi Ibrohimova, Mehri Bekjonova, To'ti Yusupova, Obid Jalilov, Gulchehra Jamilova, To'lqin Tojiyev, Saida Rametova, Yoqub Ahmedov, Obid Yunusov, Murod Rajabov, Yodgor Sa'diyev, Fatxulla Ma'sudov, Hojiakbar Nurmatov, Alisher Uzoqov, Ulug'bek Qodirov, Dilnoza Kubayeva, Alisher Xamroyev, Farrux Soipov, Asal Shodiyeva.

Bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning o'zaro ma'nodoshligi

Zidlik, sabab, shart, payt munosabatlari bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar bir-biriga ma'nodosh bo'la oladi.

Bahor keldi, kunlar iliy boshladi.

Bahor keldi va kunlar iliy boshladi.

Bahor kelsa, kunlar iliy boshlaydi.

3-topshiriq. Berilgan qo'shma gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Вы уже спали, когда я к вам приходил ночью. Я хочу сказать вам то, о чем вы ещё не знаете. Мы должны делать то, что требуется по закону. Декан сказал, что все должны участвовать на соревнованиях. Я много думал, прежде чем сказать об этом.

4-topshiriq. Quyidagi savollar ishtirokida do'stingiz bilan birgalikda dialog tuzing.

1. Sizni san'atning qaysi turi ko'proq qiziqtiradi?
2. San'at turlari bo'yicha teatr san'ati nechanchi o'rinda turadi?
3. Siz teatrga ko'proq kimlar bilan borishga moyilsiz?
4. Siz so'nggi marotaba teatrga qachon borgansiz?
5. Sizningcha, teatr bugungi kun muammolarini qaysi janrlarda ifodalashi kerak?
6. Teatr hozirgi kunda yoshlarimizni nimasi bilan jalb qila oladi?
7. TVdagi badiiy filmlar bilan tetarda sahnalashtirilayotgan asarlar o'rtasida farq bor, agar tanlash joiz bo'lsa, siz qaysi birini tanlagan bo'lardingiz?
8. Teatrlarning jamiyatimizdagi o'rni nimalardan iborat?

27-mashg'ulot. QAHRAMONLAR UNUTILMAYDI

- Vatan ucnun kurashgan qahramonlar haqida suhbat.
- Xalq qahramonlari rasmlari asosida matn tuzish.
- Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

Qadimdan ona-Vatan himoyasi yigit kishi uchun sharaflı kasb sanalib keladi.

Sharqda ham, g'arbda ham yurt osoyishtaligini muhofaza etishga, bu ishga o'zini bag'ishlaganlarga hurmat va e'tibor bilan qaraganlar. Bu o'rinda Amir Temurning "Askarlari qudratli yurt boy bo'lur, boy yurtning askarlari qudratli bo'lur" degan so'zlarini eslash kifoya.

Istiqbolga erishgan O'zbekiston ham o'z harbiy doktrinasini qabul qildi. Qurolli kuchlarini tashkil etdi.

O'zbekiston qurolli kuchlari quruqlikdagi qo'shinlar, havo hujumidan mudofaa, harbiy havo kuchlari, Muhandislik qo'shinlari, Maxsus qo'shinlar va Milliy Gvardiyadan iborat qo'shin turlarining har

biri muayyan maqsadlarni ko'zlab, aniq vazifalarni hal etish uchun tuzilgan.

Xalqimiz o'z himoyachilarini cheksiz hurmat qiladi. Hozirda harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarning nufuzi, ijtimoiy maqomi ortib bormoqda. Minglab yoshlar o'zlarini sharaflig va o'ta mas'uliyatli kasb – zobitlikka tayyorlab, buyuk bobolarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Pahlavon Mahmud, Muqannalar an'analari davomchisi bo'lishni orzu qilmoqdalar.

14-yanvar Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilinishi, bu kun keng nishonlanishi, harbiylarga bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishidir.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Notanish so'zlar lug'atini tuzing. Matn yuzasidan savol-javob qiling. Matn mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Qahramonlik nima?
2. Vatan uchun kurashgan insonlar mangu barhayot deganda nima tushunasiz?
3. Vatan ozodligi uchun kurashgan insonlar haqida nimalar bilasiz?

Rezyume

Rezyume – [fr. *resume* ^ *resumer* – qisqacha bayon qilmoq] Yozilgan, aytilgan yoki o'qilgan matn mazmunining qisqacha bayoni. Avtoreferatning rezyumesi.

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Rezyume nima?
2. Rezyumening hajmi qanday?
3. Rezyume yozish tartibi qanday?

4-topshiriq. Berilgan matnga rezyume tayyorlang.

TO'MARIS

Turon xalqlarining ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" (mil. avv. V asr) asarida yozilishicha, Ahamoniylar davlati asoschisi Kir II mil.

avv. 530-yilda Turonga bostirib kirganida, To‘maris massagetlar qabilasining malikasi bo‘lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo‘ylari va Qizilqumda yashashgan. To‘maris massagetlar podshosining xotini bo‘lib, u erining vafotidan so‘ng davlatni boshqargan. Erondan kelgan bosqinchilar qo‘shini bilan massagetlar o‘rtasida shiddatli janglar bo‘lgan. Dastlabki jangda To‘marisning o‘g‘li Sparangiz (Sparganis) boshchiligidagi massagetlar g‘olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo‘li bilan Sparangiz va ayrim massagatlarni asir olishganda, ornomusga chiday olmagan Sparangiz o‘zini o‘ldirgan. To‘maris o‘g‘lining halokatidan esankirab qolmay, o‘z xalqining manfaatini o‘ylab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so‘raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o‘rtada ayovsiz jang bo‘lgan. Gerodot massagetlar va forslar o‘rtasidagi jang tafsilotlarini o‘z asarida quyidagicha tasvirlaydi: “Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o‘rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo‘lgan. Avval har ikkala qo‘shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o‘qqa tutdilar. Kamon o‘qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq vaqt davom etdi. Ko‘p qon to‘kildi. Nihoyat, massagetlar g‘alaba qozondilar. Fors qo‘shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo‘lgan. U to‘liq 29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasadi topilgach, malika (To‘maris)ning buyrug‘i bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to‘lg‘azilgan meshga solingan”.

28-mashg‘ulot. O‘ZBEK ADABIYOTI BO‘STONI

- “Abdulla Oripov” matni
- Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

1-topshiriq. Berilgan matnga annotatsiya tayyorlang.



ABDULLA ORIPOV

Abdulla Oripov Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dehqon oilasida 1941-yili dunyoga keldi. Obidiyda qishloq sovetidagi o'rta maktabni 1958-yili oltin medal bilan tugatgach, O'rta Osiyo Davlat dorilfununi jurnalistika bo'limiga kirib, uni 1963-yili muvaffaqiyatli bitirib chiqdi. 1963-yildan buyon turli nashriyotlarda muharrirlik, Yozuvchilar uyushmasi kotibi, mualliflar huquqini himoya qilish idorasining rahbari vazifalarida xizmat qilgan.

A.Oripovning talabalik yillarida yaratilgan she'rlari respublika vaqtlı matbuotida bosilib chiqdi. 1965-yili birinchi she'rlar to'plami «Mitti yulduz» chop etildi, shundan buyon shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotirot» (1974), «Yurtim shamoli» (1974), «Hayrat» (1979), «Hakim va ajal» (1980) «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, unda shoirning she'rdan she'rga, to'plamdan to'plamga, yildan yilga o'sib, ijodiy barkamollashib borganligiga guvoh bo'lamiz.

Abdulla Oripov she'riyatining hozirgi bosqichi yana ham o'zgacha, ma'naviy-badiiy jihatdan yuksaklikka ko'tarilmoqda. Uning «Haj daftari»ga kirgan «Hadis»lari ham buni to'la tasdiqlaydi. Hozirgacha u 50 ta hadis-she'r yaratgan bo'lsa, kelgusida uni yuzga yetkazmoqchi. U mustaqil O'zbekiston madhiyasining muallifi hamdir.

Abdulla Oripov iste'dodli shoir bo'lganidek, iste'dodli tarjimon hamdir. U Dantening «Ilohiy komediya» asarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan o'girdi. Abdulla Oripov Nekrasov, L.Ukrainka, Shevchenko asarlarini ham ona tiliga tarjima qilgan.

Abdulla Oripov – noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy g’urur, isyonkor ruh, diniy-axloqiy teranlik shoir she’riyati asoslarini tashkil etadi. O’zbek xalqining milliy uyg’onishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurash yo’lida Abdulla Oripov shaxsi va o’tkir she’riyati misli ko’rilmagan o’rin tutganini qavd etib o’tish joiz. Uning asarlari o’zbek she’riyatini hamon boyitmoqda.

2-topshiriq. She’rlardan birini ifodali o’qing va yod oling.

ONA

Ko’kda yulduz uchsa nogahon,
Bitdi, - derlar, -qaysi bir taqdir.
Bunday g’amni ko’tarmoq oson,
Bu, ehtimol, bizlar haqqadir.

Ba’zi tunlar ko’kka tikib ko’z,
Eslab deyman onamni shu on,
Ona ketsa, yulduz-ku yulduz
Qulab tushsa arzirdi osmon.

DORBOZ

Bulutlarga yondosh, osmon ostida kiprikdagi yoshday turibdi dorboz
Qilichning damiday arqon ustida ko’zlarini yumib yuribdi dorboz
Odamlar, odamlar, uni olqishlang, qarang, u naqadar epchil va o’ktam
Biz-chi, ey, ba’zi bir ko’zi ochiqlar eplab yurolmaymiz katta yo’lda ham.

SEN BAHORNI SOG’INMADINGMI

Uyg’onguvchi bog’larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog’ingdan rang olgan dedim -
Lolazorga burdim yuzimni,

Uchratmadim ammo o'zingni,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

Mana, bugun Navro'zi olam,
Do'stlarimga gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgilim erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrin bo'yi chorlab o'tarman,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

3-topshiriq. Gaplarni to'ldiring.

1) Abdulla Oripov 1941-yili Qashqadaryo . . . dehqon tug'ildi.

2) 1965-yilda Abdulla Oripovning birinchi . . . "Mitti yulduz"... .

3) Uning "Birinchi muhabbatim", "Yo'lim boshlar", "Yoshligimiz" kabi qo'shiqlar xalqimizning sevimli . . . aylangan.

4) Abdulla Oripov mustaqil O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining

Annotatsiya

Annotatsiya (lot. annotatio qayd) – qisqacha ta'rif. Kitob, maqola, qo'lyozma mundarijasini, g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini va b. jihatlarini ochib beradi. Annotatsiyani, masalan, kitobning o'zida, bibliografik ko'rsatkichlarda va kutubxona kataloglarida uchratish mumkin. Uning vazifasi o'quvchilarda muayyan kitob, maqola, qo'lyozma to'g'risida umumiy tasavvur tug'dirish va ularga adabiyotlar tanlashda yordam ko'rsatishdir.

29-mashg'ulot.

"MUHAMMAD YUSUF " MATNI USTIDA ISHLASH

- **"Muhammad Yusuf"** matni ustida ishlash.
- Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

1- topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

MUHAMMAD YUSUF



Muhammad Yusuf iste’dodli shoirlardan biri edi. U rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Umrining so‘nggi yillarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi vazifasini bajardi. 1998- yilda shoirga «O‘zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon berildi.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyati Marhamat tumanining Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topgan.

O‘rta maktabdan so‘ng Rus tili va adabiyoti institutiga kirib, uni 1978-yilda tamomladi. 1978-1980-yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980-1986-yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992-yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida, «O‘zbekiston ovozi» gazetasida ishladi. Umrining so‘nggi yillarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi vazifasini bajardi.

U o‘nga yaqin she’riy to‘plamlar, ko‘plab qo‘shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurdi. Uning dastlabki she’rlari «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasida 1976-yilda e‘lon qilindi.

U rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shoir muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo‘shiq to‘qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi.

Uning she’rlari ravon va soddaligi bilan xalqonadir.

1998-yilda shoirga «O‘zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon berildi. Afsuski, u 2001-yilning 1-avgust kuni 47 yoshida bevaqt vafot

etdi.

Muhammad Yusuf vafotidan keyin «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989), «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1991), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989-yilda esa «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar tashkilotining mukofoti berildi.

Shoirning «Yolg'onchi yor» (1994) she'riy to'plami keyingi yillardagi eng sara asarlaridan tashkil topgan .

2-topshiriq. Matnda uchragan asarlar, ularning kim yoki nima haqida ekanini ozbek tilida gapirib bering.

3-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Muhammad Yusuf kim?
2. U qachon va qayerda tugilgan?
3. Muhammad Yusuf qayerda oqigan?
4. Uning birinchi to'plami qachon chiqqan?
5. Uning qanday she'riy to'plamlari bosilib chiqarilgan?

Taqriz

TAQRIZ (arabcha, bayon qilish, so'zlash, tasdiqlash). Taqriz janrining bosh vazifasi u yoki bu (ilmiy, badiiy asarlar, spektakl, kinofilm va sh.k.) asarning tahlili orqali uning ilmiy jarayon va muallif ijodiyotidagi o'rmini aniqlash, unga xos bo'lgan yutuq hamda kamchiliklarni isbotlash va baholashdan iborat.

Taqriz xarakteriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Masalan, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi taqrizda asar haqida bibliografik malumot beriladi. Tanqidiy yoki publitsistik maqola – taqrizlarda konkret asar munosabati bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi. Esse (adabiy o'ylar) xarakteridagi taqrizda taqrizchi o'z fikr-tuygularini, asarni o'qish jarayonida hosil bo'lgan taassurotlarini, kechinmalarini lirik planda ifodalaydi. Nihoyat, muallif o'z asariga ham taqriz yozishi mumkin(avtoretsenziya). Bunda muallifning asarga qarashlari bayon

qilinadi yoki u biron munosabat bilan munozaraga kirishadi.

4-topshiriq. Sevimli kitobingizga taqriz yozing.

30-mashg'ulot.
O'TKIR HOSHIMOV.
“DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR”

- “O‘tkir Hoshimov” matni ustida ishlash.
- Referat, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

O'TKIR HOSHIMOV
(1941-2013)

O‘tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentda ishchi oilasida tug‘ildi. U o‘rta maktabni bitirgach, 1959-1964-yillarda Toshkent Davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo‘limida ta’lim oldi. O‘tkir Hoshimov “Toshkent haqiqati”, 1966-yildan “Toshkent oqshomi” gazetasi muharririyatida bo‘lim mudiri, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida bosh muharrir o‘rinbosari, “Sharq yulduzi” jurnalining bosh muharriri vazifalarida ishladi.

O‘tkir Hoshimov o‘z ijodini she‘r va ocherklar yozishdan boshladi. Uning birinchi ocherklar to‘plami 1962-yilda “Po‘lat chavandoz” nomi bilan nashr etildi. So‘ngra “Cho‘l havosi” (1963), “Odamlar nima derkin...”, “Shamol esaveradi”, “Bahor qaytmaydi” (1970), “Qalbingga quloq sol” (1973), “Uzun kechalar” (1975), “Nimadir bo‘ldi” (1976), “Quyosh tarozisi” (1980), “Dunyoning ishlari” (1982) hikoya va qissalar to‘plamlari hamda “Nur borki, soya bor” (1979), “Ikki eshik orasi” (1986) romanlari bosilib chiqdi. 1974-yilda esa “Birovning tashvishi” nomli psixologik dramasi sahnalashtirildi.

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. O‘tkir Hoshimov qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. U qayerda o‘qigan?

3. O'tkir Hoshimov qayerlarda va qanday lavozimlarda ishladi?
4. Uning birinchi to'plami qachon bosilib chiqdi?
5. O'tkir Hoshimov qanday dramatik asarlar va romanlar yozgan?
6. U qaysi romanlari uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan?
7. Uning qaysi romanlarini o'qigansiz?

2-topshiriq. Yozuvchi O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan keltirilgan parchalarni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.

Ona tili

Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi. O'limi oldidan onasini ona tilida yo'qlaydi.

Mehr

Quyosh buloq suviga ham, mag'zavaga ham, chaqirtikanakka ham baravar nur sochaveradi.

Yer chuchmomani ham, chaqirtikanakni ham baravar o'stiraveradi.

Ota-onaga bolaning yaxshi-yomoni yo'q.

Do'st

Do'st degani daraxt yaprog'iga o'xshaydi. Bahor chog'i – behisob. Kuz kelganda – sanoqli. Yoshlik chog'i – behisob. Keksayganda sanoqli.

Referat

Referat (lot. refero-axborot beryapman) - biror ilmiy asar, maqola, o'qilgan kitob va sh.k mazmunining qisqacha yozma va og'zaki bayoni, o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqida axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalarning qisqartirilgan sharhli tahlilini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi ma'ruza.

Referat, odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilmiy nazariyalar, ilmiy xulosalar tahlil etilishi va tanqid qilinishi mumkin. O'zbekistonda referat ilmiy tadqiqot muassasalarida, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumiy ta'lim maktablarida ko'p qo'llanadigan didaktik

vositadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining fakultativ mashg'ulotlardagi maxsus axborotlari ham referat deyiladi. Dissertatsiya yuzasidan tayyorlanadigan referat (avtoreferat)da dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari ifodalanadi.

3-topshiriq. Mutaxassislik faniga oid biror mavzuda referat yozing. Uni darsda himoya qilishga tayyorlaning.

4-topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'z orniga qo'ygan holda gap tuzing.

1. Onadan zot dunyoda bormi ulug'roq ?
2. Ham men o'qib olim qani edi bo'lsam!
3. Narsani yoqqan o'zingga ham ko'r boshqalarga ravo.
4. Desang ko'raman dunyo, o'qi.

31-mashg'ulot.

ELEKTRON PEDAGOGIKA

- Elektron pedagogika.
- Kurs ishi matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

1-topshiriq. Guruhlarda ishlash texnikasidan foydalanib, glossariyni o'zbek tiliga tarjima qiling.

«Э-ПЕДАГОГИКА»

Гипертекст обозначает комбинации текста на определенном языке, и предоставляет возможность компьютеру осуществлять переход к различным кускам информации на основании ссылок.

Дистанционное образование – целенаправленное и методически организованное руководство учебно-познавательной деятельностью лиц, находящихся на расстоянии от образовательного центра, осуществляемое посредством электронных средств связи.

Интернет-технологии — информационные, телекоммуникационные и иные технологии, а также сервисные услуги, на основе которых происходит деятельность в сети или с помощью Интернет.

Информатизация — процесс изменения жизни за счет повышения эффективности и распространения всех видов информации и знаний, которые включены в общественное производство.

Информационное общество — общество, в котором большинство граждан участвуют в процессе создания, сбора, хранения, обработки или распространения информации.

Мультимедиа — комбинация разных медиа с использованием звука, образов и текста, взаимодействие визуальных и аудио эффектов под управлением интерактивного программного обеспечения.

Парадигма (от греческого paradigmа-образец, эталон) — господствующая теория, положенная в основу решения теоретических и практических проблем.

Телекоммуникации — процесс дистанционной передачи данных на основе информационно-коммуникационных технологий.

Электронная библиотека — распределенная информационная система, позволяющая надежно сохранять и эффективно использовать разнородные коллекции электронных документов (текст, графика, аудио, видео и т.д.) через глобальные сети передачи данных в удобном для конечного пользователя виде.

Электронный учебник — это учебник, в котором основные задачи передачи знаний решаются с использованием возможностей компьютера и компьютерных сетей.

2-topshiriq. Glossariyni o'zingiz bilgan terminlar bilan to'ldiring.

3-topshiriq. Berilgan sxemani o'zbek tiliga tarjima qiling va uni matn ko'rinishida bayon qiling.

МОДЕЛЬ ПЕДАГОГА

СОЦИАЛЬНЫЙ ЗАКАЗ НА ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КАДРЫ

1. Закон «Об образовании».
2. Национальная программа по подготовке кадров.
3. Указы, постановления Президента Республики Узбекистан.
4. Общечеловеческие, морально-нравственные, профессионально-значимые ценности в формировании личности педагога.
5. Государственные образовательные стандарты.

ЛИЧНЫЕ КАЧЕСТВА

1. Политико-правовые знания и культура
2. Нравственное совершенство
3. Идеологический иммунитет и идейная борьба
4. Религиозная толерантность
5. Экологические знания и культура
6. Здоровый образ жизни и физическая культура
7. Экономические знания, умения и навыки

ПЕДАГОГ

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА

1. Мотивационные качества
2. Интеллектуальный потенциал
3. Волевые качества
4. Эмоциональные качества
5. Практические навыки
6. Самообладание

ПРАКТИЧЕСКАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ

1. Психолого-педагогическая подготовка
2. Мастерство организации и проведения занятий
3. Владение методами и средствами воспитания в образовательном процессе
4. Организация самостоятельной и творческой работы
5. Профессиональное саморазвитие
6. Осуществление мониторинга успеваемости
7. Профессиональное мастерство

4-topshiriq. O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlardan qaysilarni bilasiz? Ularning mazmuni haqida qisqacha axborot tayyorlang.

Kurs ishi

Kurs ishi – oily o‘quv yurtlari talabalari tomonidan o‘quv rejasidagi umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha bajariladigan mustaqil ish. Kurs ishi professor-o‘qituvchilar rahbarligida to‘plangan nazariy bilimlardan muayyan masalani yechishda mustaqil foydalanish ko‘nikmasini egallash yoki mavzuni chuqur o‘rganish maqsadida bajariladi.

Kurs ishi – ilmiy-tadqiqot ishi elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan, o‘qituvchi rahbarligida umumilmiy va mutaxassislik fanlaridan bajariladigan talabalarning mustaqil ish turlaridan biri bo‘lib, o‘z oldiga talabalarning mustaqil ijodiy ishlash malakasi va ko‘nikmalarini rivojlantirishni, zamonaviy ilmiy-tadqiqot usullarini egallashlarini, biror bir masalani, fan bo‘limining mavzusini chuqur o‘rganishlarini maqsad qilib qo‘yadi.

Kurs ishining hajmi A4 formatda 15-20 varaqdan iborat bo‘ladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi manbalar soni kamida 20-25 ta atrofida bo‘lishi kerak.

32-mashg‘ulot. BIZNES OLAMIDA

- “Pul tarixidan” matni.
- Bitiruv malakaviy ish, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang.

PUL TARIXIDAN

Turli xalqlarda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan.

Masalan, Qadimgi Yunoniston, Rimda, arab va hind qabilalarida pul o'rnini **chorva** bosgan. XX asr boshlarida Afrikaning ba'zi bir xalqlarida **chorva tuyog'**idan pul o'rnida foydalanilgan. Tinch okeani va Afrika **qit'asi** xalqlarida qimmatli **chig'anoqlar** pul vazifasini bajargan. Markaziy Afrikada - **fil suyagi**, Qadimgi Misrda – **bug'doy**, Xitoyda – **tuz**, Mo'g'ulistonda - **choy ayirboshlash** jarayoni **pul muomalasi** o'rniga o'tgan.

Qadim zamonlardan beri pul vazifasini **qimmatbaho metallar** ham o'tab kelgan. Miloddan oldingi uch minginchi yillarda Shumer davlatida **asal** va **kumush** pul vazifasini bajargan. Kumush pullar miloddan oldingi ikki minginchi yillari Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

2-topshiriq. Matn bilan tanishing. Asosiy tavsiyalarni daftaringizga ko'chirib oling.

BIZNES-REJA QANDAY ISHLANADI?

O'z (shaxsiy) ishingizni boshlamqchi bo'lsangiz, albatta biznes-reja tuzishingiz kerak. Mazkur jarayonni yengillashtirish uchun quyidagi besh bosqichda ish tutishni tavsiya etamiz:

1. Maqsadingizni aniqlang. Birinchi bosqichda kim uchun ma'lumot tayyorlashingiz kerak, kompaniyangiz haqida ular nimani bilishi kerakligini tushunib oling. Kompaniya faoliyatining qaysi tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish maqsadga muvofiq, qaysilari haqida kamroq gapirish, qaysilari to'g'risida esa umuman gapirmaslik zarurligini belgilang.

2. Biznes-rejaning taxminiy mundarijasini tuzing. Maxsus talablarni hisobga olgan holda tuzilgan mundarija oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Biroq mundarija qanchalik batafsil yozilsa, biznes-rejani tayyorlash shuncha oson kechadi.

3. Keyingi bosqichda mundarijani diqqat bilan tekshirib chiqish kerak. Kelgusida biznes-rejangizni o'qiydigan odamlarning fikrini va o'z

maqsadingizni e'tiborga olib, ahamiyatli deb hisoblangan ma'lumotlarni kengaytirish, juz'iy tomonlarni ilovada berish mumkin.

4. Biznes-rejani yozing. Ko'pchilik ishni bozorni o'rganish va moliyaviy ma'lumotlarni to'plashdan boshlaydi. Siz mazkur ma'lumotlardan rejaning strategiyasini belgilash uchun, taxminlar qilish uchun foydalanasiz. Biznes-rejaning qoralamasini tayyorlang. Bunda umumiy bo'linga katta e'tibor bering, unda boshqa barcha bo'limlarga tegishli ijro, moliyalashtirish masalalari bo'yicha umumiy ma'lumotlar mujassamlashtiriladi.

5. Biznes-rejani menejment bo'yicha mutaxassisga bering. U rejaning qamrovi, o'qishga qulayligi, bayonning mantiqiyligi, ishning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqsin. So'ng ko'rsatilgan takliflarni hisobga olib, biznes-rejangizga o'zgartirishlar kiriting. Va, albatta, ushbu rejani muntazam ravishda yangilab boring.

Omad sizga yor bo'lsin!

Lug'at

faoliyat	—	деятельность
bo'rttirib ko'rsatish	—	преувеличивать
taxminiy	—	приблизительный
mundarija	—	содержание, оглавление
batafsil	—	подробный, подробно
juz'iy	—	незначительный
qoralama	—	черновик
ijro	—	исполнение, реализация
moliyalashtirish	—	финансирование
mujassamlashtirmoq	—	вобрать в себя
qamrov	—	охват
bayonning mantiqiyligi	—	логичность в изложении, логика изложения
rasmiylashtirish	—	оформление
muntazam ravishda	—	постоянно, регулярно, систематически

Bitiruv malakaviy ishi

Oliy ta'lim muassasalari hamda ayrim o'rta maxsus ta'lim muassasalarini bitiruvchilarning o'quv-tadqiqot xarakterdagi yakunlovchi ishi. BMI da, odatda, talaba mutaxassislikka oid muayyan masalani mustaqil tadqiq etadi. Bu bilan uning o'z ixtisosi bo'yicha mustaqil ish olib borishga qay darajada tayyorlanganligi tekshiriladi.

BMI ni yozish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- mavzuni to'g'ri tanlay olish;
- mavzuga oid adabiyotlarni o'rganib chiqish;
- mavzu bo'yicha faktik materiallar yig'ish;
- u yoki bu holatlarning ilmiy va amaliy ahamiyati hamda qiymatini asoslab berish, xulosalar chiqarish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismlari

BMI tarkibi, odatda, quyidagi qismlarning bosqichlilik bilan joylashtirilishidan tashkil topadi.

1. Titul varag'i (sarvaraq).
2. Mundarija.
3. BMI ning umumiy tavsifi.
4. Asosiy tadqiqiy boblar (uch bob shaklida).
5. Umumiy xulosalar.
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.
7. Ilovalar.

3-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Подписав договоры, главы государств провели пресс-конференцию. 2. Заработав свой первый миллион, он уже не смог остановиться. 3. Миша, не выходя из комнаты, может приобрести, например, мебель или хотя бы пиццу. 4. Человек, который всегда говорит смеясь, очень быстро надоедает окружающим. 5. Не

вставляйте из-за письменного стола, не дописав сочинение до точки.
6. Не проявив инициативу, нельзя достичь успеха в бизнесе.

33-mashg'ulot.

“XXI ASR – AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRI”

- “XXI asr – axborot texnologiyalari asri” matni.
- O'tilgan nazariy mavzularni takrorlash.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Undagi zamonaviy texnologiyalarni anglatuvchi terminlarni ko'chirib oling. Ularni rus tiliga tarjima qiling.

XXI ASR – AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRI

Biz yashayotgan davrda texnika va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Kompyuterlarning yangi va yanada yangi avlodlari hech kimni ajablantirmay qo'ydi.

Uyali telefon aloqasi turmushimizda mustahkam o'rin oldi. Biz nafaqat ovoz yordamida suhbatlashishimiz, balki SMS (qisqa nomalar xizmati) orqali muloqot o'rnatishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunda kichkinagina apparat yordamida suratga tushirishimiz, ovoz yozib olishimiz, sevimli kuy-qo'shiqlarni tinglashimiz mumkinligi bizga juda qo'l kelmoqda.

Internet imkoniyatlarimizni tobora kengaytirmoqda. Uning yordamida dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqida tezkorlik bilan xabar topishimiz, kasbimiz yoki sevimli mashg'ulotimizga oid bilim va materiallarni olishimiz, masofaviy ta'lim tizimi xizmatidan foydalanishimiz, yoqtirgan ashula va filmlarimizni ko'chirishimiz, virtual do'kondan mahsulot xarid qilishimiz mumkin.

Elektron pochta, ISQ, forum, chat va boshqa xizmatlar aloqa o'rnatish sohasida katta taraqqiyot ro'y berganini namoyish qilmoqda.

Avval plyonkaga tushirilgan tasvirni qog'ozga chiqarish katta

mashaqqatga aylangan bo'lsa, hozir raqamli texnologiyalar yordamida bu ish tez va soz bajarilmoqda.

Ertaga nima bo'ladi – vaqt ko'rsatadi. Lekin bir narsa aniq: texnologiyalar inson hayotini qiziqarli va mukammal qilishga yordamlashaveradi.

Lug'at

sur'at	–	темп
ajablantirmoq	–	удивлять
muloqot o'rnatmoq	–	установить общение
qo'l kelmoq	–	пригодиться
xarid qilmoq	–	купить, приобрести
taraqqiyot	–	развитие
ro'y bermoq	–	происходить

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Nima sababdan XXI asr axborot texnologiyalari asri hisoblanadi?
2. Kundalik hayotingizda axborot texnologiyalarining o'rni qanday?
3. Mashg'ulotlarga, xususan, "O'zbek tili" darslariga tayyorgarlik ko'rishda kompyuterdan, Internet tarmog'idan qanday foydalanish mumkin?
4. Til o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini bilasizmi?
5. Sizningcha, o'zbek tilidan multimedia darsligi qanday bo'lishi kerak?

3-topshiriq. Quyidagi maqollarni ko'chiring, ma'nosini tushuntiring. Rus tilida muvofiq'i bo'lsa, ayting.

1. Dono o'zini ayblaydi, axmoq do'stini.
2. Kiyimni tozalikdan saqla, obro'ni yoshlikdan.
3. Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.
4. Egri ozadi, to'g'ri o'zadi.
5. Sodiq sadoqatni qo'ldan bermaydi, sotqin

xoinlik qiladi, qahramon oxirigacha kurashadi. 6. Ota – xazina, aka-uka – tayanch, do‘st har ikkovidir. 7. Qo‘shning tinch - sen t inch.

4-topshiriq. Qo‘shma gaplarning turini aniqlang.

1.Katta ariqning narigi sohili ularniki, berigi sohili bizniki.2. Hamma quvnoq, hammaning yuzida baxt balqib turibdi. 3.Aprel oyining oxirlari bo‘lsa-da, kecha xuddi sentabrdagidek qop-qorong‘i edi.4. Yoz oylari jazirama issiq boshlanganda, soyning suvi butunlay qurib qolardi.5. Men uni taniyman, allaqaysi bir zavodda ishlaydi.

34 -mashg‘ulot.
ISH QOG‘OZLARI. ARIZA.
TUSHUNTIRISH XATI

- Ariza hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.
- Tushuntirish xati hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi

“O‘zbek tili nutq uslublari” nomli klaster tuzing



Ish qog'ozlari. Ariza. Tushuntirish xati
Ariza

Ariza – eng ko'p qo'llanadigan hujjat turlaridan biri.

Ariza biror tashkilot yoki mansabdor shaxs nomiga yoziladi. Unda biror iltimos, taklif, shikoyat bayon qilinishi mumkin. Ariza quyidagi zaruriy qismlarga ega:

1. Ariza yo'llanadigan tashkilot nomi yoki mansabdor shaxsning F.I.O.
2. Arizachining F.I.O. (to'liq), manzili yoki lavozimi.
3. Hujjat nomi.
4. Asosiy matn (talab, iltimos, shikoyat).
5. Ilova qilinadigan hujjatlar (agar zarur bo'lsa).
6. Arizachining imzosi, familiyasi, I.O.
7. Sana.

Ariza shakli

kimga kimdan ARIZA Asosiy matn Ilova (zarur hollarda) sana imzo I.O. Familiyasi		
--	--	--

1-topshiriq. Quyidagi mazmunda arizalar yozing:

- kotiba vazifasiga, o'qituvchi (muhandis, sex boshlig'ining o'rinbosari, provizor, kichik ilmiy xodim, hisobchi, oila shifokori,

tarjimon, soliq inspektori) lavozimiga ishga qabul qilishni soʻrab;

- moddiy yordam koʻrsatishni soʻrab;
- talabalar turar joyidan oʻrin berilishini soʻrab;
- yozgi oromgohga yoʻllanma ajratilishini soʻrab.

TUSHUNTIRISH XATI

Tushuntirish xati xizmat, oʻqishga aloqador masalani, uning biror jihatini yozma izohlovchi hujjatdir. Shaxsiy tushuntirish xatida xodim (talaba, oʻquvchi) tomonidan sodir etilgan ayrim oʻrinsiz xatti-harakat tafsiloti, uning sabablari bildiriladi va dalillar bilan izohlanadi.

Tushuntirish xati shakli

			kimga
			kimdan
TUSHUNTIRISH XATI			
Matn			
Oʻqish (ishga) kelmaganligi, topshiriqni bajarmaganligi va boshqa holatlar izohlanadi.			
Asoslovchi hujjat ilova qilinadi (agar boʻlsa)			
(Ilova: _____)			
Sana	Imzo	I.O. familiyasi	

2-topshiriq. Talaba nomidan fakultet dekaniga topshirilgan vazifa vaqtida bajarilmagani va buning sabablari haqida tushuntirish xati yozing.

3-topshiriq. Guruh yig'ilishi o'tkazilmagani va uning sabablari keltirilgan tushuntirish xati yozing.

4-topshiriq. Quyidagi so'z va birikmalar tarjimasini yozing va ularni yod oling.

betobligim tufayli
noqulay ob-havo tufayli
xomashyo vaqtida yetkazib berilmaganligi sababli
ma'lumot o'z vaqtida berilmaganligi sababli
oilaviy sharoitlarimga ko'ra

35-mashg'ulot.

TARJIMAI HOL. TAVSIFNOMA. TAVSIYANOMA

- Tarjimai hol hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.
- Tavsifnoma hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.
- Tavsiyanoma hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.

TARJIMAI HOL

Tarjimai hol – u yoki bu shaxs tomonidan o'z hayoti va faoliyati aks ettirilgan hujjat. U qat'iy shaklga ega emas, qisqa yo to'liq bo'lishi mumkin. Garchi ixtiyoriy tarzda yozilsa-da, unda ayrim majburiy qismlar bo'lishi shart:

1. Hujjat nomi.
2. Matn:

- muallifning F.I.O.
 - tug'ilgan sanasi va joyi;
 - ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (F.I.O. ish joyi va lavozimi);
 - ma'lumoti va ixtisosligi;
 - mehnat faoliyat turlari;
 - oxirgi ish joyi va lavozimi;
 - mukofot va rag'batlantirishlar;
 - oilaviy ahvoli;
 - manzili.
3. Sana.
4. Imzo.

Tarjimai hol shakli

TARJIMAI HOL		
Men, (familiyasi, ismi va otasining ismi), (tug'ilgan sanasi, joyi) _____ oilasida tug'ildim.		
Oila a'zolarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ish (o'qish) joyi, lavozimi) _____ (O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati, olgan mukofotlari) _____		
Bo'ydoqman (turmushga chiqqanman, _____ ta farzandim bor)		
Mening turar joyim: _____		
sana	imzo	I.O. Familiyasi

1-topshiriq. Tarjimai holingizni yozing.

TAVSIFNOMA

Tavsifnoma – ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Odatda, tavsifnomaning birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati,

ikkinchisida shaxsiy tavsifi, uchinchisida esa yuqorida bayon qilinganlarning xulosasi beriladi bu hujjat qanday maqsadda berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma shakli

Tavsiflanayotgan shaxsning ismi, ota ismi va familiyasi, tug'ilga yili, millati, ma'lumoti, lavozimi TAVSIFNOMA MATN Tavsiflanayotgan shaxsning o'qish (mehnat) faoliyati, o'z ishiga munosabati, kasbiy mahorati, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy sharoiti, mukofotlari haqida ma'lumot beriladi va xulosalanadi, tavsifnoma nima maqsadda berilgani ko'rsatiladi. tashkilot rahbari imzo I.O. Familiyasi muhr sana

2-topshiriq. Guruh murabbiyi nomidan kursdoshingizga tavsifnoma yozing.

TAVSIYANOMA

Tavsiyanoma - biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan

rasmiy hujjat. Tavsifnomada shaxsning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari qayd etiladi, tavsiyanomada esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajar olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

TAVSIYANOMA	
Matn Tavsiya etilayotgan shaxsning xususiyatlari: kasbiy malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlar va faoliyati baholanadi; tavsiya etilayotgan lavozim, a'zolikka munosibligiga ishonch bildiriladi.	
imzo	Tavsiyanoma beruvchining lavozimi, I.O. familiyasi
sana	

3-topshiriq. Kursdoshingizni «Kamolot» YIH a'zoligiga tavsiya qilib, tavsiyanoma yozing.

4-topshiriq. Quyidagi fe'llarning o'tgan zamondagi majhul nisbat (bo'lishli va bo'lishsiz) shakllarini hosil qiling, ular bilan gaplar tuzing. Masalan: *gapirmoq - gapirildi, gapirilmadi; Majlisda talabalar jamoat ishlarida faol ishtirok etishlari kerakligi haqida gapirildi. Aynan qanday tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgani haqida gapirilmadi.*

imzolamoq, qurmoq, ajratmoq, bajarmoq, baholamoq, rioya qilmoq, amalga oshirmoq.

36-mashg'ulot.
ISHONCHNOMA. BILDIRISHNOMA.
HISOBOT

- Ishonchnoma hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.
- Bildirishnoma hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.
- Hisobot hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.

Ishonchnoma

Ishonchnoma – muayyan muassasa yoki ayrim shaxs tomonidan ikkinchi bir shaxsga uning nomidan ish ko'rish uchun yozma tarzda ishonch bildirilgan vakolatli hujjat.

Xizmat va shaxsiy ishonchnomalar farqlanadi.

Shaxsiy ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (u ishlamagan taqdirda fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

Ayrim hollarda tayyor (qolipli) ishonchnomalardan foydalaniladi (avtomobilni boshqarish uchun ishonch bildirilganda).

Shaxsiy ishonchnoma shakli

ISHONCHNOMA	
Men, (ishonch bildiruvchining F.I.O.), (ishonchli shaxsning F.I.O.) ga (qavsda pasport ma'lumotlari) (ishonch mazmuni, ya'ni topshirilayotgan vazifa bayoni (ba'zan muddati bilan) ... uchun ishonch bildiraman.	
Ishonch bildirgan shaxsning lavozimi, imzosi, ism-familiyasi	
sana	yumaloq muhr

Rasmiy (xizmat) ishonchnoma shakli

ISHONCHNOMA		
Tashkilot, idoraning uchburchak muhri, ishonchnoma raqami va berilgan sana		
Matn		
Ishonch bildirilgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (to'liq), narsalar olinadigan muassasa nomi, nimalar olinishi, ishonchnoma berilishi sababi		
Ishonchnoma (sana) gacha amal qiladi		
Rahbar lavozimi	(imzo) (muhr)	I.O. familiyasi

**1-topshiriq. Oylik stipendiyangizni olish uchun kursdoshingiz
nomiga ishonchnoma yozing**

Bildirishnoma

Bildirish (bildirishnoma, bildirgi) – muayyan idora, uning rahbariga
biror voqeaga tegishli masalalar yuzasidan axborot berish maqsadida
taqdim etiladigan hujjat.

(kimga, kimdan)
xabar yuborilgan idora,
rahbarning to'liq nomi – ga
yo'lovchi shaxs lavozimi,
to'liq nomi-dan

BILDIRISHNOMA

matn sarlavhasi...
haqida

Matn

Topshirilgan vazifa va unga aloqador masalalar haqida axborot
beriladi, iloji bo'lsa, ilova ro'yxati keltiriladi.

Bildirishnoma
tayyorlagan
shaxs(lar) lavozimi

imzo (lar)

I.O.Familiyasi

sana

2-topshiriq. Navro'z munosabati bilan o'tkazilgan hasharda bajarilgan ishlar yuzasidan bildirishnoma yozing.

3-topshiriq. Berilgan fe'llardan fe'lning vazifadosh shakllarini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sakramoq, o'ynamoq, bilmoq, tashvishlanmoq, sevmoq, anglamoq,

sezmoq, bajarmoq, qurmoq, gullamoq, kulmoq, qatnamoq, o'tirmoq, kengaymoq, suzmoq, qadrlamoq, chizmoq.

4-topshiriq.. Quyidagi gaplarda nuqtalar o'ruiga tegishli fe'llarni qo'ying va rus tiliga tarjima qiling.

1. Kun qaytib, kechki salqin tushib...
2. Po'latjon ishdan charchab...
3. Majlisimiz kech soat sakkizda...
4. Kelasi yil biz chet elga...
5. Men bozorga borib, olma, uzum, nok, qovun...

Hisobot

Hisobot — xizmat faoliyati to'zasidan muayyan ish, vazifa yoki topshiriqlarning bajarilishi haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Hisobot shakli

Hisobot sarlavhasi (idora, xo'jalik yoki shaxsning qachon, qanday faoliyati) ... haqida		
HISOBOT		
Matn		
Ma'lum muddatga belgilangan ish, vazifaning qay darajada bajarilgani haqidagi axborot bayoni.		
lavozim nomi	imzo	I.O. Familiyasi
sana		


Shakl va mazmuniga ko'ra bildirishnomaga o'xshasa-da, hisobot qanday ishlar rejalashtirilgani, ularning bajarilganlik darajasi, bu boradagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar batafsil berilgani bilan ajralib turadi.

Hisobot shakli 1-shaxs nomidan yoziladi va hisobot beruvchi tomonidan imzolanadi.

37-mashg'ulot.
MAJLIS BAYONI.
MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA

- Majlis bayoni hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.
- Bayonnomadan ko'chirma hujjatining zaruriy qismlari, rasmiylashtirish tartibi.

«Hujjat turlari» nomli klaster tuzing.



Majlis bayoni

Majlis bayoni – majlis, yig‘ilish va sh.k. qatnashchilarining chiqishlari, shuningdek ularning qarorlarini qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U qisqa (kun tartibi, ma’ruzachi va muhokamada so‘zga chiqqanlarning ism-familiyasi, qaror) va to‘liq (qatnashchilarning hamma fiklari keltiriladi) bo‘lishi mumkin.

Bayonnomaning zaruriy qismlari:

1. Tashkilot muassasa nomi.
2. Sarlavha (kengashayotgan tashkilot yoki yig‘ilish nomi).
3. Hujjat nomi (majlis bayoni).
4. Sana.
5. Raqami.
6. Yig‘ilish o‘tkazilgan joy.
7. Tasdiq xati (zarur bo‘lganida).
8. Raislik qiluvchi va kotib ism-familiyasi.
9. Matn:
 - qatnashchilar ro‘yxati yoki soni;
 - kun tartibi;
 - eshitildi;
 - so‘zga chiqdilar;
 - qaror qilindi.
10. Ilovalar (agar bo‘lsa).
11. Imzolar.

Majlis bayoni shakli

Tashkilot nomi ___ - sonli MAJLIS BAYONI	
Joyi Rais Kotib Qatnashdilar:	Sana

KUN TARTIBI

- 1.
- 2.
- 3...

ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

SO'ZGA CHIQDILAR:

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

QAROR QILINDI:

- 1.
- 2...

ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

SO'ZGA CHIQDILAR:

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

QAROR QILINDI:

- 1.
- 2...

Rais

imzo

Familiyasi.I.O.

Kotib

imzo

Familiyasi.I.O.

Majlis bayonidan ko'chirma

Zarur hollarda majlis davomida qilingan qarorlardan ko'chirma olinadi. Majlis bayonidan ko'chirma tegishli shaxslarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Majlis bayonidan ko'chirma quyidagi qismlardan iborat:

1. Tashkilot muassasa nomi.
2. Hujjat nomi (majlis bayonidan ko'chirma).
3. Sana (yg'ilish sanasi).
4. Shartli raqam.
5. Ko'chirma rasmiylashtirilgan joy.
6. Matn:
 - kun tartibi;
 - eshitildi;
 - so'zga chiqdilar;
 - qaror qilindi.
7. Imzolar.
8. Ko'chirmaning tasdiq xati.

Majlis bayonidan ko'chirmada qatnashchilar soni yoki ro'yxati keltirilishi mumkin.

Majlis bayonidan ko'chirmada faqat korxona yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan qismgina o'z ifodasini topadi. Bir necha qaror qabul qilingan bo'lsa, faqat tegishli masala bo'yicha qilingan qaror keltiriladi.

3-topshiriq. Majlis bayonidan ko'chirma rasmiylashtirish tartibini ko'rib chiqing va uning namunasini tayyorlang.

4-topshiriq. Quyidagi qoliplashgan birliklarni eslab qoling, ularni qo'llab gaplar tuzing:

zimmasiga yuklatilsin, belgilab qo'yilsinki, yuqori tashkilotlardan so'ralsin, ...ning ... -bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Tashkilot nomi

_____ - sonli MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA

Joyi

Sana

KUN TARTIBI

3.

ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruzaning qisqa bayoni)

QAROR QILINDI:

1.

2....

Rais

imzo

Familiyasi.I.O.

Kotib

imzo

Familiyasi.I.O.

38-mashg'ulot.

BILIMLARIMIZ AMALIYOTGA

- Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:
Ta'lim muassasasi. Pedagogik amaliyot turlari. Mening ish joyim.
- Semestr davomida fan bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash

1-topshiriq. Quyidagi matnda uchragan murakkab jummalarni soddalashtiring, matnning umumiy mazmunini bayom eting. Kasbiy ta'limning xususiyatlari haqida o'z fikringizni bildiring.

KASBIY TA'LIM

Kasbiy ta'limga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Ta'lim islohotlari natijasida gimnaziya, litsey, kollej va boshqa turdagi yangi o'quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi;

2. Oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy ta'limni tashkil qilish, alohida bo'lim va fakultetlarning tashkil etilishi;

3. Iqtisodiy ta'limning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog'lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

4. Iqtisodiy ta'lim muassasalarining aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etishi va boshqalar.

Kasb ta'limi uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilib borildi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratining shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi islohatlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Kasb mahorati deyilganda bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

2-topshiriq. She'ni ifodali o'qing, notanish so'zlar lug'atini tuzing.

YASHASHGA NE YETSIN

Usmon Azim

Yashashga ne yetsin!.. Dunyo – sehrli,
O'lguncha sehriga to'ymaydi ko'zing.
Boshingdan goh nurday quyar mehrini,
Goh toshlar yog'dirar – yetmaydi to'zim.

Goh qorin g'amida chekasan zahmat,
Obro' talashmoqdan goh dilda tugun...
Ammo chin yashashni istasang, faqat
O'zbekiston uchun yashamoq mumkin.

O'lim ham bor narsa – kalxatday uchar
Chumchuqday joningni bergani qurbon.
Birovning titragan tovushi o'char,
Birov o'z g'amida adoyi tamom.

Mayli, o'limni ham aylagin hurmat,
Bandasi dunyodan bitta on qarzdir...
Chindan qurbonlikka jahd qilsang, faqat
O'zbekiston uchun jon bermoq arzir.

Mangu yashamoqning sirimi? Oshkor!
Bekorga har taraf uringaydirsan:
Magarkim, jon berding yurt deb necha bor,
Onchakim, qaytadan tirilgaydirsan.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

VATAN

(T. Sodiqovadan)

Vatan o'zi nima? Vatan – onaning allasi taralgan, beshigingning izlari chizilgan zamin. Ajdodlaring ko'milgan qabriston, ota-onangning izlari qolgan ko'chalar, sening lahjangda so'zlashadigan, qosh-u ko'zi xuddi sening kabilar yashaydigan miqaddas zamin Vatandir.

Ilk bor bahorni tanigan, birinchi marta varrak uchirgan, ilk bor hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan muqassan makon Vatandir.

O'z jonidan yaratgani uchun ham ona yaxshi-yu yomon bolasini tishida tishlab o'tadi. Vatan ham shunday: qadamlaringni ko'ksiga qo'yib, suyab yashaydi seni. Osmoni ko'rpang, maysasi dimog'ingni bosib yotadigan muqaddas bolishingdir. Vatan mung'aygan tandirli, pastakkina tomli kulbangdan boshlanadi. Unga bo'lgan muhabbating ham shu ostonada tug'iladi.

QADRIYATLAR QADR TOPMOQDA

Xalqimizning bayramlari ko'p: Navro'z, Mehrjon, Hosil bayrami. Bu bayramlarda xalq sayllari o'tadi.

Navro'zga bag'ishlangan xalq sayllari ayniqsa, zo'r o'tadi. Kattakatta doshqozonlarda osh, sumalak kabi taomlar tayyorlanadi.

Lekin muhimi bu emas. Shahar markazlari, dalalarda, bog'larda xalq sirki artistlarining tomoshalari boshlanadi. Masxarabozlar, dorbozlar yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashadi.

Sayllar milliy o'yinlarsiz o'tmaydi. Uloq, qizquvdi kabi o'yinlar hech kimni befarq qoldirmasa kerak.

Polvonlar ham shu kuni o'zlarining nimaga qodirligini ko'rsatish uchun gilamga chiqishadi. Dunyoga yuz tutayotgan o'zbek milliy kurashisiz sayl bo'larmidi axir.

Saylda hamma xursand. Har kim miriqib dam oladi. Bayramlar ertangi kunimizga ishonchimizni mustahkamlaydi.

Xullas, ozod yurtga bayramlar yarashadi. Ona O'zbekistonimizning har kuni bayram bo'laversin.

IBN SINO VA TARBIYA

Yigit bilan qiz turmush qurishibdi. Oradan to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soatu to'qqiz daqiqa o'tgach, farzand ko'rishibdi.

– Bolamizni qanday tarbiya, qilamiz? - debdi ona.

– Uni shunday tarbiya qilaylikki, katta bo'lganda el-yurtga foydasi tegadigan bo'lsin, - debdi ota. Xotini:

– To'g'ri aytasiz, men ham shuni o'ylab turgan edim. Yaxshisi, ustoz Ibn Sinodan so'rab ko'raylik-chi, u kishi nima derkin, - debdi. Bu gap eriga ham ma'qul tushibdi. Er-xotin bolani ko'tarib, Ibn Sinonikiga kelishibdi. U bir kichik tor kulbada yashar, shunday bo'lsa-da, dong'i olamga ketgan ekan.

Ibn Sino ularni yaxshi kutib olibdi, nima ish bilan kelganliklarini so'rabdi.

– Bolamizning tarbiyasi haqida bizga maslahat bersangiz. Toki katta bo'lgach, el-yurtga foydasi tegadigan kishi bo'lsa? - debdi eri.

– Qachon tug'ildi? - deb so'rabdi Ibn Sino.

– Erta bilan tug'ildi, - deb erining o'rniga xotini javob beribdi.

– Ey bolalarim, - debdi Ibn Sino, – bola erta tongda tug'ilgan ekan, hozir choshgoh bo'ldi, kechikibsizlar. Bola tug'ilishi bilan uning tarbiyasi haqida qayg'urish kerak edi.

SHAHIDLAR XIYOBONIDA

Bizning o'ziga xos hikmat va ibratga boy bayramlarimiz juda ko'p. Istiqlol yillarida qadimiy qadriyatlarimiz va bugungi ma'naviy ehtiyojimizga asoslangan yangi bayramlarimiz ham paydo bo'ldi. Masalan, Prezidentimiz farmoniga binoan 9-may Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilindi.

O'tganlarni xotiralash, ularni yod etishni xalqimiz insoniylikning muhim bir sharti deb bilgan. Xotira va qadrlash kuni bizni o'z farzandlik

burchimizni, insonlik burchimizni sharaf bilan ado etishga undaydi, insonning Vatan ozodligi yo'lidagi jasoratini qadrlashga da'vat etadi.

Shu bois mamlakatimiz poytaxtining qoq markazida Xotira maydoni barpo etildi. Bu maydonda milliy me'morlik ruhidagi ayvonlar qad rostladi, Motamsaro ona siymosi bunyod etildi, maxsus kitoblarda ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan va halok bo'lganlar nomi qayd etilgan. Bu kitoblarda nomi tilga olingan ota-bobolarmiz yurtning kelajagi uchun jon fido qilganlar, ularni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusiga binoan, shahrimizning Yunusobod dahasida ham qatag'on qurbonlarining ruhini shod aylash maqsadida shahidlar xotira maydoni ham barpo etildi. Barchaga ma'lumki, ilgari bu joylar odam kam yuradigan, xosiyatsiz joy sifatida nom olgan edi, ammo hozirgi kunda u barcha ziyorat qiladigan maydonga aylantirildi. Maydonda Shahidlar xotirasi muzeyi ochildi. Bu muzeyda xalq ozodligi uchun kurashganlikda ayblab qatag'onga uchragan buyuk yozuvchi shoirlar, san'at arboblari va olimlarga oid ma'lumotlar mavjud. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Behbudiy va boshqalar shular jumlasidandir.

Yurtimizda ajdodlarimizni yodlab qilinayotgan ishlarning barchasi millat xotirasi uyg'onayotganidan, insonning qadr-qimmatini tiklanayotganidan dalolat beradi.

Xotira uyg'ongan, ajdodlar ruhi e'zozlangan yurtda tinchlik barqarorlik mustahkam bo'ladi, avlodlar savobli va xayrli ishlarga qo'l urishga shoshiladilar. Bularning barchasi esa oxir oqibatda Vatanning kelajagini yanada nurafshon etadi.

MARDLIK

Mardlik bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mardlik – inson qalbidagi quyosh, u mardlarga nur sochadi. Mard kishida, haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof, nomardlarda yolg'izlik, yomonlik, ojizlik, makkorlik, xasad, adovat, razolat, yuzsizlik, xiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlarni uchratish mumkin.

Mard kishi bir so'zli, jasoratli, botir bo'ladi. O'z orzu-niyatlarini amalga oshirishda faqat iqtidoriga, bilim, kuch-g'ayratiga

ishonadi. Zinhor-bazinhor ota-onasining davlatiga uchmaydi.

Mard kishi o'z obro'-e'tiborini, nomini va sha'nini hamisha ulug' qo'yadi. Mard kishi yurtining qalqoni va xalqining suyanchig'i bo'ladi. O'g'il-qizlarini voyaga yetkazadi, ularning o'zi yetolmagan armonlari, amalga oshmagan ishlarini ro'yobga chiqarishini orzu qiladi.

XIVA

Xivani bejiz Sharq durdonasi deb atamaydilar. Bu Al Xorazmiy, Shayx Najmiddin Kubro, Paxlavon Mahmud, Ogahiy va Feruzni voyaga keltirgan va taqdim etgan mo'jizaviy makondir. 1997 yil 20 oktyabrda Xivaning 2500 yilligi nishonlandi. Xiva mana necha davrlardan buyon gullab yashnab kelmoqda. Kun sayin husniga husn qo'shilib kelayotgan bu shahar o'zining baland minoralari-yu, sharqiy me'morchiligi bilan dunyoning turli chekkalaridan sayyohlarni o'ziga jalb etadi.

Xiva tarixi Xorazm tarixi va uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealari bilan chambarchas bog'liq. Xorazm yoki Xvarizm, tarjimada quyosh shaxri ma'nosini anglatib, u tarixda Tuproq qal'a, Qirg'iz qal'a, Quyqirilgan qal'a, Xazorasp kabi qadimiy shaharlarning tarixiy va madaniy markazi hisoblangan. Bu yerdan eramizdan avvaligi 2000 (ikki minginchi) yillar, neolit davriga tegishli qishloq xo'jaligida foydalanilgan birinchi sug'orish qurilmalari topilgan. Bu uning tarixi qanchalar uzoq ekanligidan darak berib qoladi.

Xivaga eramizdan avvalgi 5 asrda asos solingan bo'lib, kup asrlar davomida u Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan, Buyuk Ipak yulining nuqtalaridan biri hisoblangan. Afsonalardan biriga ko'ra, karvonsaroyda to'xtagan savdogarlar u erda joylashgan zilol buloqlardan suv ichib lazzatdan "Xey Vax" – iborasini kup qo'llaganlar va shu tufayli Xeyvak so'zi paydo bo'lgan.

Boshqa afsonaga ko'ra esa, Nuh payg'ambarning o'g'li Sim katta g'arqlikdan keyin cho'lda kezib yurib uxlab qoladi va tushida 300 ta yonib turgan ma'shalani ko'radi. Uyg'onib u xursandligidan

TOSHKENT

Toshkent – juda qadimiy va navqiron shahar. Uning yoshi 2000 yildan oshib ketgan. U tarixda Choch, Shosh, Binkent kabi nomlar bilan atalgan.

Toshkent - go'zal shahar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida uning chiroyi yanada ortib bormoqda. Ko'plab yangi binolar, ko'chalar barpo etilmoqda.

1997-yilda Toshkent metrosining birinchi yo'nalishi ish boshlagan. Hozirda uning Chilonzor, O'zbekiston va Yunusobod yo'llari bo'ylab poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Uning Alisher Navoiy, Amir Temur xiyoboni, Chorsu, Chilonzor kabi go'zal va ozoda bekatlari kishi ko'zini quvontiradi.

Toshkentda ko'plab madaniy muassasalar mavjud. Bog'lar, teatrlar, konsert zallari xalqimiz xizmatida. Toshkentda bir qancha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi shular jumlasidandir. Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hikoya qiladilar.

Toshkentga har kuni minglab sayyohlar, chet ellik ishbilarmonlar, xalqaro delegatsiyalar tashrif buyuradilar. Shahrimiz mehmonlarni iliq qarshi oladi. Ular uchun shinam mehmonxonalar qurilgan. Muhimi mehmondo'st O'zbekiston xalqi ularni ochiq chehra bilan kutib oladi. Jahonga yuz tutgan O'zbekistonimizning qadimiy va hamisha navqiron poytaxti Sharq yulduzi deb bejiz tarannum etilmasligini mehmonlarimiz ham ta'kidlashmoqda.

MAHALLALAR TARIXI HAQIDA

XVIII asrga kelib Toshkent ma'muriy hududiy jihatdan 4 qism – dahalariga bo'lingan. Dahalar o'z navbatida bir qancha mahalla va guzarlardan tashkil topgan: dahalarda mahallalar soni va ularning katta-kichikligi turlicha bo'lgan. Ba'zi yirik mahallalar bir nom bilan atalsa ham, uning keyinroq paydo bo'lgan qismlari tartib raqami bilan masalan 1-Eshonguzar, 2-Eshonguzar yoki hududiga qarab Katta Kamolon va

Kichik Kamolon kabi. Aholi soni o'sgan sayin mahallalar kengaygan yoki yangilari paydo bo'lgan.

Mahalla ma'muriy holati jihatidan o'z ichki tartib-qoidalariga ega jamoa tashkiloti sanalgan va uni mahalla aholisi tomonidan saylangan boshliq (oqsoqol) boshqargan. 20-asr boshlariga kelib ular yuzboshi mavqeida ko'rilgan. Oqsoqollarga mahallaning jamoat ishlari, marosimlari, yig'inlarini boshqarish hamda manfaatlarini himoya qilish vakolati berilgan. Bir mahallada 50tadan 150tagacha xonadon bo'lgan. Shahar markazidagi mahallalar chekkalaridagiga nisbatan qadimiy bo'lib, aholi ham zich yashagan. Ba'zi mahallalarning nomlari o'sha joyda rivojlangan kasb-hunarni anglatgan (Pichoqchilik, Etikdo'z), boshqalari etnik atamalar (O'zbekmahalla, Tojikko'cha, Mo'g'ulko'cha) yoki relyefi orqali ifodalangan (Sassiqlihovuz, Chuqur ko'prik, Balandmasjid va h.k.).

Mahallalarning masjidi va choyxonasi uning gavjumroq erida joylashgan, aholining turli ma'rakalari uchun zarur umumiy mulki saqlangan. Bir nechta mahallaga bir umumiy markaz – guzar, unda masjid, hunarmandchilik ustaxonalari, Choyxona, nonvoyxona, do'konlar hamda bozorcha xizmat ko'rsatgan.

Mustaqillik yillarida "Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida"gi farmon va qonun asosida mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'ldi. Ularning faoliyat doirasi kengaydi. Mahallalar yuridik shaxs sifatida o'z mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob raqami – jamg'armasiga ega bo'ldi. Rahbariyat (rais, kotib)ning nufuzi ortdi, vazifalari aniq belgilandi. Mahallalar o'z xududlarida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash, to'lovlar sistemasida ishtirok etib, mahalla va aholi ahvolini yaxshilashga ko'maklashish kabilarda faol qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi.

USTOZ

Insonning dunyoga kelishiga sababchi ota-onasi bo'lsa, uning ilm-hunar o'rganishi, hayotda o'z o'rnini topishida ustozning o'rni beqiyosdir. Shu bois bo'lsa kerak, o'zbek xalqida "Ustoz otaday ulug'" - degan naql bor.

Ilm shunday narsaki unga butun kuch sarf etilmasa qo'lga kirmaydi. Insonda aql va ilm bo'lmasa uni hech kim qadrlamaydi. Hunarmand kishi hech qachon xor bo'lmaydi, og'ir kunlarda xunar tufayli o'z rizq-ro'zini topadi. Mana shu ilm va hunarga bo'lgan chanqog'imizni faqat ustoz qondira oladi.

Sharqda ustoz va murabbiylar qadimdan hurmat va e'tibor topgan. Fikrimizning tasdig'i sifatida Alisher Navoiy ustozining nabirasiga otdan tushib salom bergani haqidagi hikoyani eslashning o'zi kifoya. Shoir ahli ustozlar sha'niga ko'plab she'rlar bitsa, qo'shiqchilar uning madhini kuyga solib keladilar.

Qadimdan ota-bobolarimiz ustozlarga cheksiz ishonch bildirganlar, farzandini ustoz tarbiyasiga berar ekanlar "Eti sizniki, suyagi bizniki" deb aytganlar. Ya'ni ustozdan farzandiga nisbatan ham mehribon, ham qattiqqo'l bo'lishini istaganlar. Ustozlar esa yosh avlodga nafaqat, ilm yo hunar, balki yashash tarzi, hayot mazmunidan saboq berganlar. Istiqlol yillarida ustozlar yanada e'tibor va qadr topdi. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 1-oktyabrning Ustoz va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami sifatida nishonlana boshlagani fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda ta'lim sohasining ko'plab vakillari davlatimizning eng yuksak mukofotlariga, xatto "O'zbekiston qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgani ham yurtboshimizning, xalqimizning ustozlarga hurmati va ishonchi namunasi, deb bilish mumkin.

Ustoz bo'lish oson emas. Muallim faqat biror narsani bilish emas, balki bilgan narsasini o'quvchiga to'g'ri etkaza olishi zarur, bu esa - bir san'atdir. Shu tufayli mashaqqatli kasb egalari va o'z ishlarining fidoisi bo'lmish ustozlarimizning mehnatini qadriga etish va ularga hurmat ehtirom.

TAMARAXONIM

Tamaraxonim (Tamara Artyomovna Petrosyan) 1906-yilda tugʻilgan. U oʻzi arman qizi boʻlsa ham, Oʻzbekistonning mashhur xonandasi, raqqosasi, balet ustasi boʻlgan.

1919-yilda u endi oʻn uch yoshga kirgandi, ammo shunga qaramay Tamaraxonim sahnaga chiqqan va mashhur boʻlgan edi. Tamaraxonim juda yoshligidanoq oʻzbek sanʼati shuhratini dunyoga yoydi hamda Parij, Londonda konsert berdi.

Yosh boʻlsa ham, Tamaraxonim 1926-yilda birinchi oʻzbek raqqosalar studiyasini tashkil etdi.

Qiyinchiliklarga qaramay u mashhur Yusup qiziq Shakarjonov va Usta Olim Komilov bilan birgalikda sahnaga ommaviy raqslarni olib chiqdi. Tamaraxonim garchi oʻzbek boʻlmasa-da, oʻzbek milliy lapar va yallalarini olamga mashhur qildi.

YUNUS RAJABIIY

Yunus Rajabiy Oʻzbekistonda maqom maktabini yaratgan madaniyat arbobidir. 1940-1941-yillarda Moskvada bastakorlar kurslarida oʻqib yurganida, u Yevropa mumtoz musiqasi, klassik bastakorlar ijodi bilan tanishdi.

Yunus Rajabiy atqoli madaniyat arboblari domla Halim Ibodov, Xoji Abdulaziz Rasulov, Shorahim Shoumarov, Mulla Toʻychi Toshmuhammedovlardan maqomlar oʻrgandi.

Yunus Rajabiy “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Xolisxon” kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar yaratdi.

“Bayot”, “Girya”, “Dugoh Husayniy”, “Koʻcha bogʻi” kabi ashulalarni xalqimiz Yunus Rajabiy tufayli sevib qolgan.

Bastakor 1930-yillardayoq xalq musiqasi namunalarini notaga yozib olishga kirishgan, keyinroq ularni nashr eta boshlagan. “Oʻzbek xalq muzikasi” kitobining I-V jildlari Yunus Rajabiy yozib olgan musiqa namunalaridan iborat. Unda Toshkent – Fargʻona maqom yoʻli, Buxoro “Shosh maqomi” alohida oʻrin tutadi.

Oʻzbekiston xalq artisti, respublika Fanlar Akademiyasining

akademigi Yunus Rajabiy yaratgan taronalarni xalqimiz hanuz seviz tinglaydi.

BOTIR ZOKIROV

(1936-1985)

O'zbek professional estrada san'ati asoschilaridan biri, dunyo tan olgan estrada yulduzi Botir Zokirov Toshkent shahrida san'atkorlar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Karim Zokirov o'zbek opera san'atining sarbonlaridan biri, onasi Shohista Saidova o'zbek xalq qo'shiqlari, laparlari va yallalarining ajoyib ijrochisi edi. Umuman Zokirovlar oilasi o'zbek xalqining musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan sulola sanaladi. Botir Zokirovning bolaligi, yoshligi, san'at muhitida o'tadi. Uning xotirasi va eshitish qobiliyati juda kuchli edi. Rasm chizishga, she'r yozishga ishqiboz edi. San'atda birinchi ustozlari otasi Karimjon aka, onasi Shohista opa bo'ldilar. U yoshlikdan qo'shiqni dildan seviz kuylashni odat qildi. Uning birinchi qo'shig'i «Qaydasan, seni kutaman» deb atalgan. O'n to'rt yoshida u «Majnun» deb nomlangan suratni chizdi. 1952-yili Toshkent davlat konservatoriyasining vokal fakultetiga o'qishga kirdi. O'sha davrda estrada san'atida qaldirg'och sanalgan «Yoshlik» estrada ansambliga qatnay boshladi. 1958-yilda shu ansambl bazasida O'zbekiston Davlat estrada orkestri tuzildi. Orkestrni tuzishda Botir Zokirov jonbozlik ko'rsatdi. 1957-yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek dekadasida mashhur arab kompozitori Dorish Al-Attoshning «Arab tangosi» qo'shig'i birinchi marta yangradi va chaqmoq kabi Botir Zokirov nomini qo'shiqsevarlar qalbiga olib kirdi. Botir Zokirov O'zbek milliy estrada san'atini rivojlanishini jon dilidan istar edi. U faqat xalqona milliy estrada san'atining tarafdori edi va bu haqda kuyinib matbuotda fikrlarini bildirar edi. Shu yo'lda tinimsiz izlanar edi. Umrining oxirgi yillarida ukasi Farrux Zokirov rahbar bo'lgan mashhur «Yalla» ansambli bilan birgalikda ijod qildi. U sahnaga qanday yonib chiqqan bo'lsa, umrining oxirigacha shunday yonib kuyladi. Hamisha har qanday vaziyatda iymoniga, e'tiqodiga, o'ziga sodiq qoldi. Bu buyuk san'atkor o'zbek estradasiga asos soldi. Yoshlikdan chirmab olgan surunkali kasallik natijasida 49 yoshida olamdan o'tdi. «O'zbekiston

xalq artisti» faxriy unvoni bilan, vafotidan so'ng prezidentimiz farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

TOSHKENT METROPOLITENI

Poytaxtimizda transportning barcha turlaridan keng foydalaniladi. Shahrimizda eng yangi rusumli avtomobillardan tortib ot aravalarni ham uchratish mumkin. Lekin shularning ichida eng qulay transport vositalaridan biri Toshkent metrosidir.

1966-yil Toshkent zilzilasidan so'ng zilzila oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Toshkentga sobiq ittifoq shaharlaridan juda ko'p mutaxassislar keladilar. Buning natijasida ikki yil ichida Toshkent aholisi bir yarim barorar oshadi, hududi esa uch barobar kengayadi. 1968-yilda metro loyihasi tuziladi. Loyihada Toshkentning seysmik holati va yozgi issiq harorati inobatga olinadi.

Toshkent shahar yo'lovchilar transporti korxonalari uyushmasi tarkibida Toshkent metro qurilishi 1972-yilda qurila boshlagan. Uning asosiy yo'nalishi shaharning markazidan o'tgan.

Toshkent metrosining birinchi yo'nalishi 1977-yil 6-noyabrda ish boshlagan, o'shanda atigi yettita bekat mavjud bo'lib, metro shahar markazini Chilonzor dahasi bilan bog'lagan. Uning uzunligi 12 km.

Metro qurilishi va loyihalashtirishda Moskva, Kiyev, Leningrad, Tbilisi, Baku shaharlarining mutaxassislari yordam berdilar.

2001-yil 26-oktabrda esa Yunusobod metropoliten liniyasi ishga tushib, uning uzunligi 6,4 km tashkil etadi.

Endilikda Toshkent metrosining uzunligi 36,2 km, va 29 ta stansiyaning tashkil etadi.

Shahar metro quruvchilari Sergeli tumanida uzunligi 18 km bo'lgan to'rtta yerusti va ikkita yerosti metro stansiyalarini qurishni rejalashtirganlar.

Hozirda Toshkent metrosining uchta yo'nalishi bo'ylab poezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Ular "Chilonzor", "O'zbekiston" va "Yunusobod" deb nomlanadi.

Metroning har bir bekating bezagi bekat nomining mazmunidan kelib chiqib qurilgan. Ayniqsa, Navoiy, Hamid Olimjon, Kosmonavtlar

bekatlari antiqa usullarda bezatilgan.

Bizning Toshkent metrosi dunyodagi eng chiroyli va ozoda metrolardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu qulay va zamonaviy transport xizmatidan shahrimiz aholisi va mehmonlari juda mamnunlar.

KIM BIRINCHI BO'LIB SALOM BERISHI KERAK?

Yoshi katta odam bilan yoshi kichik odam uchrashsa, albatta, kichik odam birinchi bo'lib salom beradi. Lekin qo'l uzatish hamisha kattadan. Odamlar to'plangan xonaga kirsangiz bunda, shubhasiz, siz salom berishingiz shart. Bir kishi olddiga ikkinchi kishi kelsa, albatta kelgan kishi salom beradi.

Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi. Bir misol keltiraylik, taxminan 2000 yil ilgari Hindistonda "Mangu qonunlar" kitobi yozilgan. Yoshi kattalarga birinchi bo'lib salom beruvchilar to'rt narsaga erishadi: uzoq umr ko'radi, obro'li, bilimli va kuchli bo'ladi deyilgan.

Aslida esa kamtar, odobli kishi qachon men salom berishim kerag-u, qaysi paytlarda boshqalar menga salom berishi lozim, deb o'ylamaydi. Bunday kishilar birinchi bo'lib salom beraveradilar.

TRANSPORTDA YURISH QOIDALARI

Ko'chada, jamoa orasida yurgan-turganda amal qilinishi lozim bo'lgan bir qator odob qoidalari mavjud. Ularga amal qilish har bir kishining vazifasidir. Inson uzoq-yaqin yo'lga otlanganda, avvalambor, ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan poklanishi kerak. Uzoq safarlarga asosan jamoat transportlarida qatnaymiz. Jamoat transportlarida yurishning esa o'ziga xos tartibi bor:

- o'zingizga qulay bo'lishi barobarida o'zgalarga ham qulay vaziyat yarating.

- jamoat transporti ichida chekilmaydi, spirtli ichimliklar ichilmaydi.

- hammaning ko'zi oldida yog'li taomlar tanavvul qilinmaydi.

- baland ovozdagi gapirilmaydi, chunki yo'lovchi sherigingizning salomatligi zaif bo'lishi mumkin. Baland ovoz, shovqin-suron ularga

malol keladi.

- jamoat transportiga o'tkir atirlardan foydalanib chiqilmaydi. Hammaning didi har xil, sizga yoqqan hid, boshqa bировga yoqmasligi mumkin.

- nojo'ya so'zlar tilga olinmaydi, bu odobdan emas.
- uzoq yo'lga chiqqanda har bir inson kiyinish odobiga rioya qilishi lozim.

Jamoat transportida ochiq-sochiq kiyinish atrofda qilarga nisbatan hurmatsizlik bo'lishi bilan birgalikda, o'sha insonning naqadar didsiz, tarbiyasiz ekanligini ko'rsatib turadi.

Yana bir mulohazali masala ustida to'xtalib o'tamiz. Hozirgi kunda qo'l telefonlaridan foydalanish keng urf bo'lgan. Yoshlarimiz unutmasligi kerakki, qo'l telefonlari o'yinchoq, ko'z-ko'z qilinadigan matoh yoki maqtanish vositasi emas. Telefon - ehtiyoj. Uni ehtiyoj darajasida ishlatish lozim. Ko'pchilik yoshlarimiz o'z telefonlarini noo'rin paytda, noo'rin joylarda bo'lar-bo'lmasga baralla qo'yib foydalanadilar. Vaholanki, telefondan foydalanish ham madaniyatni talab qiladi.

Olis yo'llarda keta turib, ufqli osmonga, bepoyon dalalarga, orqangizdan mung'ayib qolayotgan dov-daraxtlarga qarab xayolingizdan nimalar kechadi?!

Oq yo'!! Safaringiz bexatar bo'lsin!

Yuqoridagi mavzu bo'yicha aytilgan fikr-mulohazalarni davom ettiring.

SOVCHILIK

Vatan ostanadan, hovli bo'sag'adan, oila sovchilikdan boshlanadi. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik iplarini bog'lashga da'vat etilgan kishidir. Sovchi kamida ikki, yo'qsa uch-to'rt kishidan iborat bo'lib, ikki jinsdagi erkak va ayol sovchilar ham bor. Har ikki to'p alohida, mustaqil harakat qiladi.

Odatda sovchilar kayvoni, el orasida obro'-e'tiborli, tagli-tugli, oqilu fozil kishilardan tanlanadi. Chunki ularning vazifasi og'ir, mas'uliyatli. Sovchining gap-so'zi mantiqli, ishonarli, "tosh bosadigan", zalvorli bo'lmog'i lozim.

Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo'lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning qo'lini so'rab borishadi. Umr savdosining pishish-pishmasligi, avvalo, kuyov bo'lmishning o'zi, ota-onasi, qarindosh-urug'i, qolaversa, sovchilarning mahoratiyu tajribasiga, quda bo'lmishlar ko'ngil qulfiga kalit sola olishiga ko'p jihatdan bog'liq. Ayni paytda o'z vazifalarining butun mas'uliyatini bo'yniga olgan bunday kishilar, har ikki oilani, ularning farzandlarini yaxshi bilganlar. Bilishmasa so'rab-surishtirishgan. Muayyan tasavvur qilishgach, undan so'ng vazifalariga kirishganlar. Bo'lmasa, birovning guldek farzandi umriga zomin bo'lib, bir tomonni o'tday kuydirib, bir umr o'zgalar domongirligida yashashni katta gunoh deb bilishgan.

Sovchilar "qizi borning nozi bor" degan naqlga amal qilib, vaqt o'tkazib, kelin bo'lmishnikiga uch-to'rt marta boradilar. Odatda sovchilikdan qaytgan mutasaddilarni "bo'rimi yo tulki" deb qarshi olinadi. Agar ular ishni o'rnatib, xushxabar bilan qaytishsa, sovchilar "bo'ri" deb javob berishadi. Bu gal ish pishmagan bo'lsa, "tulki" deyishadi.

Ayol sovchilar ham qizning "ostonasini cho'ktiradilar". Yigit bilan qiznikiga bo'zchining mokisidek qatnayverib, kovushlarini to'zitadilar. Ayol va erkak sovchilarning maqsadlari ro'yobga chiqqach, o'sha zahotiyoyq non sindiriladi. Ya'ni "non sindirish" fotiha bilan sovchilik taomili o'z vazifasini o'tab bo'ladi.

Holva - ko'pincha, go'daklikdan qiz bolaga nisbatan brriladi. Vaqt o'tib unga sovchi kelishi, fotiha o'qilishi, holvayu patir ushatilishi ko'zda tutilib, shunday deyiladi.

Ilgari zamonlarda sovchilar to'ppadan-to'g'ri, dabdurustdan kirib borishni odat qilmaganlar. Ayol sovchilardan biri to tong sahardayoq, hali hamma uyqyda ekanligida qiznikiga borib, uning ostanasi ostini supurib qaytganlar. Ertalab turib bunga ko'zi tushgan ota-onalar nima voqea ekanligini anglashgan, o'zlarini bilmaganlikka solib, zimdan tayyorgarlik ko'ra boshlangan. So'rab kelishi ehtimoli bo'lgan xonadonlarninigi ahvol-ruhiyasi bilan ham kishi bilmas tanishib olganlar. Shundan so'ng sovchilarning kelishini kuta boshlashgan. Sovchilarning birinchi elchiliklaridayoq hech kim rozilik berib qo'yavermagan, garchand, ko'ngillarida moyillik bo'lsada, qizlarining, qolaversa, o'zlarining qadr-qimmatlarini, sha'nlarini yuqori ko'tarishga uringanlar.

AKADEMIK MAHMUD SALOHIDDINOV

Mahmud Salohiddinovich Salohiddinov – atoqli matematik olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori. U O'zbekistonda differensial tenglamalar sohasidagi hozirgi zamon ilmiy maktabining tashkilotchisi va rahbari, respublikada fan va ilmiy ta'limni tashkil etish va rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan jamoat va davlat arbobidir.

M.S.Salohiddinov 1933-yil 23-noyabrda Namangan shahrida tavallud topdi. 1950- yil O'rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi, uni imtiyozli diplom bilan tamomladi. U 1958-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi. Shu bilan butun umrini O'zbekistonda matematik bilimlarni rivojlantirishga bag'ishladi. 1967-1985-yillarda O'zFA vitse-prezidenti, 1988-1994-yillarda esa prezidenti bo'lib ishladi.

Mahmud Salohiddinovich sermazmun ilmiy, ijodiy faoliyatini doim pedagogik va davlat ishlari bilan birga olib bordi. U 1985-1988-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri vazifasida ishlab, oliy maktabni rivojlantirish va uning kadrlar salohiyatini ko'tarishga katta hissa qo'shdi. Toshkent davlat universitetida o'zi asos solgan differensial tenglamalar kafedrasini mudiri bo'lib ishladi. **Ajoyib pedagog**, ilmga chanqoq yoshlarning sevimli murabbiyi, shu bilan birga, juda **talabchan**, mehribon, xushfe'l, **adolatparvar** inson.

Matematikani va oliy ta'limni rivojlantirishga qo'shgan hissasi, sermahsul pedagogik faoliyati va yuqori malakali ilmiy mutaxassislarni tayyorlagani uchun M.S.Salohiddinov "Hurmat belgisi" ordeni va medallar bilan taqdirlandi.

AYLANA VA DOIRA

Atrofimizda dumaloq narsalar juda ko'p. Ularning ba'zilari doirani eslatadi. Bular — obi non va quymoq, medal va tangalar, limon bo'lagi... Yana boshqalari, masalan, halqa, velosiped g'ildiragi, uzuk kabilar aylanaga juda o'xshaydi.

Aylananing doiradan nima farqi bor? Aylana bilan cheklangan

narsalarning hammasi — doira. Aylana esa shu doiraning chetlarigina, xolos.

Aylana — faqat chiziq. Oq qog‘oz ustiga stakanni qo‘yib, atrofidan qalam yurgizib chiqsak, hosil bo‘lgan ingichka dumaloq chiziq aylana bo‘ladi. Aylana chizish uchun sirkuldan ham foydalanish mumkin. Agar sirkul bo‘lmasa, qog‘oz varag‘ini yog‘och taxtacha ustiga qo‘yib, o‘rtasiga bitta knopka qadang, tagiga pishiq ip bog‘lab qo‘ying, ipning ikkinchi uchiga qalam bog‘lang. Qalamni ip bog‘langan joyidan ushlab, tarang torting-da aylanma chiziq chizib chiqing, shunda aylana hosil bo‘ladi.

Doira — yassi shakl, uni qirqib tayyorlash mumkin. Hali chizgan aylanangizni atrofidan qaychi bilan qiyib chiqsangiz, doira hosil bo‘ladi. Sirkul qo‘yiladigan yoki haligi knopka qadaladigan nuqta aylana va doira markazi hisoblanadi.

Limon bo‘lagi va velosiped g‘ildiragi markazini topish oson.

MASOFAVIY TA’LIM

Masofaviy ta’lim – bu masofadan Internet tarmog‘i orqali o‘qitish usuli bo‘lib, uning asosida respublikamizda ma’lum sohalar bo‘yicha test-tajribalar o‘tkazilmoqda. Bunday kurslarga qabul qilinish uchun talaba, yashash joyidan qat’i nazar, o‘z kompyuterida Internetdagi «Masofaviy ta’lim» sahifasiga joylashtirilgan anketani to‘ldiradi. So‘ng tizimdagi kurslar ro‘yxatidan zarurini tanlaydi, ariza yozib yuboradi. O‘qituvchi arizani ko‘rib chiqadi va talabani o‘qishga qabul qiladi, o‘qish haqidagi ma’lumotlarni (o‘qituvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, kurs materiallari, kurs jadvali va hokazolarni) talabaning elektron pochtasiga yuboradi. Talabalar barcha topshiriqlarni mustaqil ravishda kurs materiallarini o‘rgangan holda bajaradilar va virtual auditoriyada muhokama etadilar. Ushbu ta’lim shaklining e’tiborga loyiq jihatlari ko‘p. Masalan, masofaviy ta’lim talabaga o‘qitish shartlarini tanlash erkinligini beradi, bu esa zamonaviy jamiyatda shaxsning erkin shakllanishi tamoyiliga muvofiqdir. Bundan tashqari, masofaviy ta’lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha yutuqlarini qo‘llagan holda katta hajmdagi ma’lumotni bera oladi, tez va sifatli nazorat qiladi, axborot uzatish bilan birga muloqotni ham ta’limning asosiy komponenti darajasiga ko‘taradi. Masofaviy ta’lim kursini ishlab chiqish va tatbiq etish metodist, dasturlovchi, dizayner,

menejer kabi kasb egalaridan iborat bo'lgan katta jamoaning birgalikda olib boradigan ish jarayoni natijasi bo'lishi kerak

KARTON KOMPYUTER

Amerikalik dizayner Brendon Makaluso dunyodagi eng g'ayrioddiy kompyuterni yaratdi. Uning g'ayritabiiliigi shundaki, ustki qismi kartondan yasalgan va u «Rekompyut» deb ataldi. Ushbu ixtironing yaqin kunlarda Nyu-Yorkda bo'lib o'tadigan «Griner Gadjets Dizayn» tanlovida birinchi marta qatnashishi rejalashtirilmoqda.

Ixtirochining so'zlariga qaraganda, yangi mahsulotning ustki tuzilishida na plastika, na metall bor, faqatgina ko'p taxlamli kartondan tashkil topgan xolos. Buning yordamida ishlab chiqarishning o'zida nafaqat arzon narxga erishiladi, balki atrof-muhitga ham sezilarli foyda keltiriladi. Shuningdek, karton kompyuter ichida havo aylanishiga to'sqinlik qilmaydi, bu esa tashkil etuvchi qismlarni samarali sovutish imkonini beradi. Quvvati bo'yicha ShK oddiy kompyuterlardan farq qilmaydi.

Stanford universiteti Quyosh energiyasi, elektr zahiralarni yig'ish hamda yashil energiyaning boshqa manbalarini tadqiq qilish uchun yangi institut tashkil etdi. Buning uchun 100 mln. dollardan ortiq mablag' sarf etilgan. «IANS» (IANS) axborot agentligi bu haqda San-Fransiskodan xabar tarqatdi.

Institut tashkil etgan «Silikon vodiysi»da «Xyulet Pekard» (Hewlett Packard), «Gugl» (Google) kabi axborot texnologiyalarini tadqiq etuvchi dunyoning yirik kompaniyalari faoliyat yuritadi. Shuningdek, bu yerda Kaliforniya universitetining 500 mln. dollarlik energiya tadqiqot instituti ham joylashgan.

– Eng katta quvvat manbai bu Quyoshdir, – deydi yangi institutning direktori Lin Or. – Lekin biz Quyosh nurini elektr energiyasiga aylantirish jarayonini arzonlashtirishimiz kerak. Yangi markaz ayni shu faoliyatni amalga oshirishga mo'ljallangan. Biz bu yerda Quyosh energiyasini qayta ishlashda kerak bo'ladigan nanotuzilmali mahsulotlarni tayyorlash borasida tadqiqotlar olib boramiz”.

NIMA SABABDAN QUYOSH TUTILADI?

Quyoshning tutilishida uch samoviy jism: Oy, Yer va Quyosh ishtirok etadi. Ma'lumki, Oy Yer atrofida aylanadi, Yer esa o'z navbatida to'xtovsiz Quyosh atrofidagi orbita bo'ylab harakat qiladi. Shunday qilib, vaqti-vaqti bilan Oy Yer va uni yoritadigan Quyosh o'rtasiga tushib qoladi. Shu holatda quyosh tutilishi degan hodisa ro'y beradi. Quyosh faqat yangi oy chiqqan kezlar tutiladi, chunki ayni shu vaqtda Oy Yerning Quyoshga qaragan tomonida joylashgan bo'ladi. Agar Oyning orbitasi ham Yerning orbitasi joylashgan tekislikda bo'lganida edi, Quyosh har yangi oy chiqqanida kech tutilar edi. Biroq Oy Yer atrofidagi 29,5 kunlik harakati vaqtida, odatda, Yer bilan Quyosh o'rtasidagi to'g'ri chiziqni chetlab o'tadi.

Munajjimlar Quyosh tutilishi boshlanishini va u qancha davom etishini oldindan sekund-sekundigacha aniq aytib bera oladilar. Shuningdek, ular oldindan bu tutilish to'la, qisman yoki halqasimon bo'lishini ham ayta olishadi.

Agar Oy Quyoshni butunlay to'sib qo'ysa, bu to'la tutilish deyiladi. Ammo Yer bilan Oy o'rtasidagi masofa doimo bir xil bo'lmaydi va u ko'pincha juda uzoq bo'ladi. Bu esa Quyosh tutilishiga hamisha ham imkon beravermaydi, shunda Oyning qora gardishi butun Quyoshni to'sib qo'yadi, biroq uning aylanasi bo'ylab ingichka ko'rinib turadi. Bu quyoshning halqasimon tutilishini bildiradi. Oyning Quyosh yuzasini qisman to'sib qo'yishi qisman tutilish deyiladi.

Quyosh har yili kamida ikki marta tutiladi. Ularning soni beshtagacha ham yetishi mumkin. Yer sharining ma'lum bir qismida quyoshning to'la tutilishini har 250—300 yilda bir marta kuzatish mumkin. Shuning uchun munajjimlar butun Yer yuzi bo'ylab Quyoshning to'la tutilishi ortidan «quvib» yurishadi.

AKKUMULATOR

«Akkumulator» so'zi lotincha bo'lib, «to'plagich», «yig'gich» degan ma'nolarni bildiradi. Akkumulator elektr quvvatini to'playdi. Eng oddiy akkumulyator sul'fat kislotaga botirilgan ikki qo'rg'oshin plastinkadan iborat. Elektr quvvatini to'plash uchun akkumulyator «zaryadlanadi»,

ya'ni u orqali elektr toki o'tkaziladi. Shunda qo'rg'oshin plastinkaning sirtqi qavati boshqa moddaga – qo'rg'oshin oksidiga aylanadi. Endi akkumulatorga elektr motor yoki lampochkani ulash mumkin. Qo'rg'oshin oksid yana qo'rg'oshinga aylana Boshlaydi, to'plangan elektr quvvatini «qaytarib» beradi va lampochka yonadi, elektr motor ishlay Boshlaydi. Akkumulator o'zi to'plagan elektr quvvatini «qaytarib» bo'lgach, u yana zaryadlanadi va elektr to'plagich qaytadan ishlay boshlaydi.

USHINSKIY PEDAGOGIKA FANI VA TARBIYA SAN'ATI HAQIDA

Ushinskiy pedagogika masalalariga bag'ishlangan bir qancha maqollari bilan birga, 1861-yilda quyi sinflarda rus tilini o'qitish uchun «Detskiy mir» nomida xristomatiya nashr qildirdi.

Ushinskiyning Smolnii institutidagi ilg'or faoliyati muassasaga rahbarlik qilayotgan amaldorlarda va ayrim reaksion kayfiyatlardagi o'qituvchilarda norozilik uyg'otadi. Ushinskiyni daxriylikda, dvoryan qizlardan «mujiklar» tarbiyalamoqchi bo'lganlikda ayblay boshlaydilar. 1862-yilda u ishdan bo'shatildi, chet elda boshlang'ich ta'lim va xotin-qizlar maorifining yo'lga qo'yilishini o'rganish hamda pedagogikadan darslik tuzish bahonasi bilan chet el safariga jo'natildi.

Ushinskiy Germaniya va Shveysariyadagi xotin-qizlar o'quv yurtlarini, bolalar bog'chalari, yetimxonalar va maktablarni sinchiklab va tanqidiy o'rgandi; 1884-yilda «Rodnoe slovo» hamda o'qituvchi va otanalarga mo'ljallangan «Rodnoe slovo»ga qo'llanmasini yozdi va nashr qildi. 1867-yilda Ushinskiy pedagogika faniga qimmatli hissa bo'lib qo'shilgan o'zining asosiy asari —«Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asarini yozdi. Ushinskiy o'zining bu asarida psixologik tajriba ma'lumotlariga asoslanib, oddiy psixologik hodisalarni tekshirdi va psixologiyani odam anatomiyasi va fiziologiyasi negiziida bog'ladi. Ushinskiy bolalar psixologiyasini tadqiq etishga birinchi marta asos solgan psixologlardandir.

Tarbiyaning xalqchilligi haqidagi g'oya Ushinskiyning pedagogik nazariyasidagi eng asosiy g'oyadir. Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi, Ushinskiyning fikricha, keng ma'noda olingan pedagogika ta'lim-tarbiya tajribalarining umumlashtirilgan xulosasi

bo'lmog'i, falsafaga, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, tarixga asoslanmog'i lozim.

XALQ OG'ZAKI IJODIDAN

Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og'zaki ijodining eng qadimgi, aziz va ommaviy janrlaridandir. Ularda tarixiy hayot ro'y bermagan bo'lsa-da, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar hikoya qilinadi. Badiiy to'qima bu janr asarlarining asosiy xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun olimlar afsonalarning ayrimlarini ertaklarga tenglashtirganlar. Ayrim afsonalar esa miqlarga o'xshab ketadi. Bunday namunalarda biror narsa-predmetning paydo bo'lishi, rasm-rusum yoki odatlarning boshlanishi haqida ma'lumot beriladi.

Bu janr namunalariga aytib beruvchi shaxs asar mazmunini saqlagan holda ma'lum o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Afsonalarda mazmun jihatidan xilma-xil voqealar hikoya qilinadi. Ular xalqimiz tarixini o'rganishda turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analarni sharhlashda, joy nomlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Rivoyatlar afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar to'laligicha ajdodlarimiz tomonidan o'ylab topilgan to'qima hikoyatlardan iborat bo'lsa, rivoyatlar hayotda ro'y bergan qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi. Ular mazmunan afsonalardan deyarli farq qilmaydi, ammo bu asarlar zaminida aniq tarixiy dalil ildizi mavjud bo'ladi. Bu asarlar ko'pincha sodir bo'lgan tarixiy voqea ishtirokchisi tomonidan yozib qoldiriladi yoki aytib beriladi, Ajdoddan avlodga meros sifatida o'tib bizgacha yetib keladi. Shuning uchun rivoyatlar o'tmish voqealari haqida bizga ma'lumot berishi bilan qiziqarlidir. Ularda tariximiz sahifalari, mashhur allomalar hayotidan lavhalar, ayrim joy nomlarning paydo bo'lishi o'z askini topadi.

O'zbek xalqi orasida Imom Buxoriy, Beruniy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk allomalar haqida yaratilgan o'nlab rivoyatlar hamon saqlanib kelmoqda.

Yuqoriga aytilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: rivoyatlar xalq og'zaki ijodini epik turiga kirgan ommaviy janrlardandir.

Bunday asarlar voqeaga guvoh bo'lgan shaxslar tomonidan yozib qoldiriladi yoki avloddan- avlodga og'zaki tarzda merosga aylanadi.

NUTQ O‘STIRISHDA BARMOQ MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Bolaning qo‘l kafti va barmoqlarini harakatlantirish o‘ziga xos rivojlanuvchi ta’sirga ega. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, qo‘l va barmoqlar ishtirokidagi o‘yinlar tana va ongging o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Qo‘lning oddiy harakatlari nafaqat qo‘lning balki, lab, yuz mushaklari zo‘riqishlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishini oldini oladi, tovushlar talaffuzini yaxshilashga ham yordam beradi.

Barmoqlarning mayda harakatlari bo‘g‘inlar artikulyatsiyasiga o‘ziga xos ta’sir etadi. Barmoqlar rivojlantishi evaziga miyada nutqning ravon bo‘lishi kuzatiladi. Barmoq mashqlari nafaqat qiziqarli, balki maroqli hamdir.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda barmoq, mashqlaridan foydalanish bolaga kompleks yondashishga imkon beradi. Barmoq mashqlarining nutq ishtirokida bajarilishiga yordam beradi.

DUNYO TILLARI VA O‘ZBEK TILI

Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqa qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Respublikamizning turli mamlakatlarida bo‘lib, o‘rganib – o‘rgatib qaytmoqdalar. Agar siz Toshkentdan poezdga o‘tirib, Moskva va u orqali Parijga safar qilsangiz, yo‘lingizda qozoq, tatar, rus, belarus, frantsuz, singari tillardagi gaplarni eshitasiz.

Bu jarayonda ularning odatlari ona tilingizga qaysi bir jixati bilan yaqin, shu bilan birga nimasi bilandir farqli ekanligi ona tilimizga o‘xshamasligini guvoni bo‘lamiz. Bir – biriga yaqin, umumiy jixatlari ko‘p bo‘lgan tillar qarindosh, biri- biridan uzoq, umumiy jixatlari bo‘lmagan tillar qarindosh bo‘lmagan tillar hisoblanadi. Hozirgi kunda yer yuzida mavjud bo‘lgan 3000 dan ortiq til hind-evropa, turkiy, xom-som, xitoy-tibet singari bir necha til oilalariga bo‘linadi. Masalan o‘zbek, turk, turkman, qirg‘iz, qozoq, tatar, uyqur, ozorbayjon, qeroqolpoq, bolgar singari tillar bir oilaga mansub bo‘lib, ular turkiy tillar oilasi nomi bilan yuritiladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar

ham bir tilidan kelib chiqqandir. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tili Dunyo tillari tizmida turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida erkin rivojlanib o‘tib bormoqda.

AVLONIY TIL VA SO‘Z ODOBI HAQIDA

Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo‘lgan muhabbatidir. Avloniyning uqtirishicha, har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotidir.

Avloniy so‘zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mavqeiga umuminsoniy nuqtai nazardan baho berdi. Uning o‘qtirishicha So‘z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgon tarozisidir. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan biladilar.....

Avloniy rostgo‘ylik va to‘g‘riso‘zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri sifatida baholadi. Uning fikricha, haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga, haqqoniyat yo‘li chiqar. Insoniyatning ildizi bilan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir. Kishilarni yaxshilikka undash, yomonlikdan qaytarish, dunyodagi barcha insonlarga ezgulik istagi bilan yashash chinakam olijanoblikdir. Odamlar umr bo‘yi bir-birlari bilan aloqada bo‘ladilar. O‘zaro yordamga, hamkorlikka hojat sezadilar. Shunday ekan, rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Avloniy o‘zining butun pedagogik faoliyati va ma‘rifatparvarlik faoliyatida o‘z xalqining baxt-saodati yo‘liga bag‘ishladi. Xalqi Vatani oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajardi. O‘zbek pedagogikasi rivojiga salmoqli ulush qo‘shdi. Mana shu ma’noda Avloniy siymosi, faoliyati biz uchun g‘oyat qadrlidir.

IBN SINO JISMONIY VA AQLIY TARBIYA HAQIDA

Ibn Sino «Tib ilmlari qonuni» asarida bola katta bo‘lib, yetilgan chog‘ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning o‘qtirishicha, odamning yig‘itlik, yetuklik yoshida hamda ulg‘aygan

yoshida sog'lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo'lgan jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanishi kerak. Ulug' mutaffakir jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo'lgan badanni turli xil mashg'ulot harakatlariga o'rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg'ulotlar bilan o'z vaqtida va mustaqil shug'ullanib boruvchi odam hech qanday davolanishga muhtoj bo'lmaydi.

Ibn Sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarni aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, hunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir. Chunki ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

MUSIQA

Tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. O'tmishda musiqa ziyolilikning albat namunasi bo'lgan. Ma'rifat va ma'naviyat axlining jonkuyar xomiysi Alisher Navoiy bolalik chog'larida alifbo qatori musiqa nazariyasini Xoja Burxondan puxta o'zlashtirgan, ustoz, tog'asi Muhammad Ali G'aribiy, yaqin do'stlari bilan musiqiy ijod va ijro sohalarida muntazam suxbatlar o'tkazib kelgan.

Turli yo'nalishdagi musiqa maktablari paydo bo'ldi: Buxoroda «Shoshmaqom» ijrochilik maktabi, Samarqandda maqomchilik va bastakorlik, Farg'onada sozandalik va katta ashulachilik maktablari.

Hozirgi kunda musiqa ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida bo'lib, 300 dan ziyod bolalar musiqa maktablari, 5 o'rta maxsus musiqa maktab-internatlari, 14 musiqa (san'at) bilim yurtlari va Toshkent davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi.

MUXTOR ASHRAFIY

O'zbek musiqa san'atining atoqli namoyondalaridan biri mashhur kompozitor va dirijyor, murabbiy va jamoat arbobi Muxtor Ashrafiy

o'zbek musiqa madaniyatini rivoj topishiga katta xissa qo'shgan san'atkordir.

Muxtor Ashrafiy 1912-yili 11-iyunda Buxoro shahrida sozanda oilasida tug'ildi. Daslab sharq musiqa maktabida, keyinchalik musiqa texnikumida o'qib etuk sozanda va maqomdon ustalardan dutor chalishni va maqom ijrochiligi yo'llaridan ta'lim oladi. 1928- yilda esa Samarqand musiqa va xoreografiya insitutini talabasi bo'ldi va bu dargohda etnograf va kompozitor N.N.Mironovdan kompozitarlik va dirijyorlik ilmini, nazarny va notalashtirish uslublarini o'rganadi. Shu yillari Samarqand radiosida ham ishlaydi, qushiqlar hamda ko'p ovoqli asarlar yaratadi. Institutni bitirgach, 1931 yilda Toshkentdagi o'zbek davlat musiqiy teatriga dirijyor va musiqa raxbari qilib tayinlandi. 1943-1947-yillari M Ashrafiy o'zbek opera teatri dirijyori, musqa rahbari va direktori, 1947-1962, 1970-1966- yillari Samarqand opera va balet teatri direktori, badiiy rahbari, bosh direjyori, 1966-1975-yillarda Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatri musiqa raxbari va bosh dirijyori lavozimlarida ishiladi. M. Ashrafiy 1926-yildan boshlangan dirijyorlik faoliyatida «Farhod na Shirin», «Gulsara», «Arshin mololon» musiqali drama komediyalaridan boshlab, «Zaynab va Omon», «Maysaraning ishi», «Uluqbek», «Layli va Majnun», «Zulmatdan ziyo», «Karmen», «Aida», «Traviata» operalari, «Jizel», «Shopeniana», «Shelkunchik», «Spartak», «Paxta» baletlari singari o'zbek kompozitorlari va jaxon klassik kompozitorlarining yuzdan ortiq asarlariga dirijyorlik qildi.

M.Ashrafiy jahonning ko'p sahnalarida o'z dirijyorlik mahoratini namoyish etgan bo'lib, uning asarlari ham turli davlatlarda musiqa jamoalarida ijro etilgan.

Ustozning san'atimiz rivojiga tushgan buyuk ishlari munosib taqdirlangan bo'lib, 1939 -yili O'zbekiston va 1951- yili sobiq ittifoq xalq artisti faxriy unvonlariga, uch marta davlat mukofotlari, Javoharlal Neru (1972) va Jamol Abdul Nosir (1973) nomli xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan. Muxtor Ashrafiy 1975 -yili Toshkentda vafot etdi.

QASAMYODGA SODIQ BO'L, O'G'LON!

Qasamyod maqaddas. Unga amal qilish, axdiga sodiq qolish sharaflı burchdir. Buni anglagan, tushunib yetgan har bir o'g'lonning ko'zida bu

kun shijoat, o'ziga ishonch tuyg'usi chaq nab turadi. Birin - ketin yurt o'g'lonlari Vataniga, xalqiga, yurtboshiga sodiq bo'lish uchun qasamyod qabul qila boshlaydi. Onalarning ko'zidagi sevinch yoshlari, otalar chehrasidagi yorqin tabassum tadbirga fayz bergandek, shukuh bag'ishlaganek....

Bundan buyon zimmaga g'oyat mas'uliyatli vazifalar yuklatiladi. Bunday sharaflı vazifalarni a'lo darajada bajarish uchun esa o'tkir zehn, izlanish, nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tartib intizomga rioya etish talab qilinadi. Kelajakda fidokorona xizmat bilan xalqimiz ishonchini hamda qabul qilgan qasamyodlarini oqlashlariga ishonch bildiriladi.

Ularning eng ulug', eng aziz ayyom kuni qasamyod qabul qilishlarida ulkan ramziy ma'no bor. Bu Vatan hurriyati buyuk baxt ekanligi, tinchlik va osoyishtalik eng oliy ne'matligi hamda bularni asrashga mas'ul ekanliklariga ishoradir. Yurtga bo'lgan mehru – muhabbatini, sadoqatini qasamyodda bitilgan so'zlar bilan uyg'un tarzda izhor etishga, ona Vatan sha'nini yuksaklarga ko'tarishga tayyor ekanligi, Vataniga, xalqiga, Prezidentiga sodiq bo'lishga qasamyoddir.

KURASH

Juda qadimiy o'yin - odatlarimizdan biri kurashdir. Bu o'yin - odat haqida siz yaxshi tasavvurga egasiz. Chunki kurash odatimiz, hayriyatki, yo'qolib izsiz ketgan udumlarimiz qatoriga kirmay qolgan. Buning sababi, obrazli qilib aytganda, har bir zamon, ayniqsa, bizning zamonamizda kundalik turmush, hayot kechirishning o'zi kurashdan iborat bo'lib qolganligi tufayli shunday bo'lgandir...

Kurash qadimiy va erkin kurash turlariga bo'linadi. Bu odatning tarixi bir qadar uzundur. Kurash bizning xalqimiz orasida paydo bo'lib taraqqiyot yo'liga kirgandan buyon tarkib topib, rivojlanib, takomillashib bordi. Milliy kurashni biz hozirgi kunda sport turi sifatida qayd etamiz. Aslida esa, bu odat xalq hayotining juda muhim tarmog'i bo'lib, uning taqdiri - a'molini belgilagan.

Qadimda yalpi qirg'in, o'lim qurollari bo'lmagan paytlarda, pahlavonlari u yoki bu xalq, qo'shin, katta lashkar g'alabasini, bu bilan esa shu podsholikning taqdirini hal qilganlar. Polvonlik bitta - ikkita

shaxs misolida emas, balki umumxalq siymosida ommalashgan. Yaxshi chavandozlik, kamondan bexato o'q otish, chapdastlik bilan qilich chopish, epchillik, jasurlik, tantilik va mardlik, xalollik kurashchilarning bosh fazilatlarini sanalgan.

O'ZBEKISTON

O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rta va shimoliy qismida joylashgan. Shimoli-sharqda Qirg'iziston, Shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, Janubi-sharqda Tojikiston Respublikalari bilan, Janubda qisman Afg'oniston bilan chegaradosh.

Respublika hududi janubi-sharqdan shimoli-g'arbga cho'zilgan va yer yuzasi ham shu yo'nalishda yirik daryolar oqimiga mos pasayib boradi. Shimoli-g'arbida Orol dengiziga tutash. Maydonining ko'p qismi tekislik, oz qismi tog', adir va tog' oldidan iborat. O'zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. Bu ikki azim daryo orasidagi hudud Turon past-tekisligi deb ataladi. Bu tekislikning ko'p yeri Qizilqumdan iborat, ba'zi joylarda qirlar uchraydi. Respublikaning sharqi va janubi-sharqiy qismida Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Xisor tog'lari bor.

Bu tog'lar orasida Farg'ona, Zarafshon, Kitob-Shaxrisabz, Surxon-Sherobod, Chirchiq-Ohangaron kabi katta cho'kmalar - vodiylar joylashgan. To g'larning cho'qqilari muzliklar, doimiy qor qatlamlari bilan qoplangan.

O'zbekiston turli foydali qazilmalarga boy. Vatanimiz o'zining paxtasi, pillasi bilan mashhur.

O'ZBEKISTON DURDONASI

Farg'ona tabiiy-geografik o'lkasi Respublikamizning eng sharqiy qismida, Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, uning atrofi baland tog'lar bilan o'ralgan. Vodiy qadimiy madaniyat maskanlaridan biri, Ahmad Farg'oniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Habib Abdullayev kabi olim va davlat arboblarning vatanidir. Aholisi milliy an'analarni yaxshi saqlab qolgan, juda mehmondo'st. Vodiy tabiati juda go'zal va maftunkor hamda noz-ne'matlarga boy. Shuning uchun ham xalqimiz Farg'ona vodiysini

“O‘zbekiston durdonasi” deb ataydi.

Farg‘ona vodiysi foydali qazilmalarga boy. Bu yerda neft, tabiiy gaz, ko‘mir, oltingugurt, tog‘mumi, oltin, slanest va boshqa xil boyliklar mavjud.

Vodiyning deyarli barcha soy va daryolari baland tog‘lardan oqib tushadi. Vodiyga eng ko‘p suv keltiradigan daryo Norin bilan Qoradaryodir. Vodiyda ko‘llar ko‘p emas. Oloy tizmasining shimoliy yon bag‘rida Qurbon ko‘li joylashgan. Ko‘l suvi juda tiniq, sovuq, atrof tabiati esa juda go‘zal. “Ko‘li qurbon” tabiat yaratgan mo‘jiza, go‘zallik ramzidir.

Farg‘ona vodiysiga ko‘plab sayyohlar kelib turishadi. Vodiy tabiatining viqorli tog‘lari, daryo ko‘llari hamda mehmondo‘st xalqining shaydolari ko‘p. Farg‘ona vodiysini chet ellik sayyohlar ham ziyorat qilib turishadi.

Xalqimiz dasturxonidan oltin vodiy dehqonlarining mehnatlari samarasi bo‘lmish noz - ne‘matlar ham joy olgan.

BUYUK IPAK YO‘LI

Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona vohasi, Qarshi cho‘llari – qadimiy Buyuk Ipak yo‘lidagi asosiy manzillardir. Arxeologlarning ta’kidlashicha, uning tarixi eramizgacha bo‘lgan II asrga borib taqaladi. Karvon yo‘llari Markaziy Osiyoning ikki asosiy daryosi – Amudaryo va Sirdaryo yoqalab Qizilqum va Qoraqum qumloqlari bilan borib, Tyan-Shan tog‘ devonlari va Pomir – Oloy tizmalari osha Sharqni G‘arb bilan, Yaponiyani Hindiston va Xitoy bilan, Angliya, Fransiya va Portugaliya bilan ulangan. Qadimiy o‘zbek tuprog‘i hududidagi necha-necha shaharlar, vohalar, sahrolar, daryolar, tog‘lar va cho‘llar bu yo‘l ular oraliq‘ida ko‘prik vazifasini o‘tagani madaniyatning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tarixning shoxidlik berishicha, Ipak yo‘li necha ming yillar mobaynida ikki qit‘adagi necha-necha xalqlarning bir-biriga integratsiyasida yaqinlashishida eng muhim rol o‘ynagan. Mahsulot, bilim, texnologiya va madaniyat almashinuvi aynan shu yo‘l orqali sodir etilgan va natijada shaharlar hudud, davlatlar rivojlanib borgan.

CHOTQOL QO'RIQXONASI

Respublikamizning yirik qo'riqxonalaridan biri - Chotqol tog' - o'rmon qo'riqxonasi. Qo'riqxona Toshkent shahridan 70 km. Sharqda Chotqol tizmasining janubi - g'arbiy qismida joylashgan. Qo'riqxona 1947 - yilda tashkil etilgan, maydoni 35,3 ming gektar.

Qo'riqxonaning tabiati go'zal, havosi musaffo, o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos, unda noyob o'simlik va hayvonlardan tashqari, ajdodlardan qolgan tarixiy yodgorliklar ham uchraydi. Mazkur tabiat maskanida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib boriladi.

Qo'riqxona iqlimi sernam va salqin. Iyul oyining o'rtacha havo harorati 24 daraja issiq, yanvar oyida 2 daraja issiq bo'ladi.

Qo'riqxona hududidan Boshqizimsoy, Shovvozsoy kabi soylar oqib o'tadi.

Chotqol tog'-o'rmon qo'riqxonasi o'simliklari, xilma xil, 600 turga yaqin o't o'simliklari, 10 tup daraxt va butalar o'sadi. Asosan lola, chuchmoma, bo'tako'z, toshkarra, agra kabi gullar o'sadi. O'rmonlarda archa va mevali daraxtlar uchraydi. Bodom, o'rik, olma, nok, tog'olcha, do'lana kabi mevali daraxtlar, irg'ay, na'matak kabi mevalar o'sadi.

Daryo vodiylarida tol, terak, jingil, tog'olcha va xandon pista o'sadi.

Qo'riqxonaning hayvonot dunyosi boy va xilma xil. Oddiy kaltakesak, sariq ilon, suvilon va parrandalarning 93 turi mavjud. Bundan tashqari suvsar, bo'rsiq, bo'ri, t ulki, ayiq, qor barsi kabi noyob hayvonlar ham yashaydi.

Qo'riqxonada yashovchi qor barsi (irvis) YUNESKOning "Qizil kitob"iga kiritilgan.

VODOROD

Ingliz olimi Kavendish bir kuni kishiga qiziq tuyiladigan ish bilan mashg'ul bo'ldi. Kavendish temir kukuniga sulfat kislata ta'sir ettirilganda qandaydir gaz pufakchalari hosil bo'lishini kuzatgan. Olim bu gazni idishdan naychalar orqali chiqarib ko'rdi. Gaz ko'zga ko'rinmadi, ya'ni rangsiz edi. Hidi ham yo'q edi. Shunda Kavendish naychalarini sovun ko'pikchalri bilan to'ldirdi. Pufakchalar osonlik bilan havoga ko'tarilib chiqdi. Demak, gaz havodan yengil ekan. Gazni yoqib ko'rilsa

nima bo'lar ekan? Gaz zangori tusda alangalanib yondi. Gaz yonganda suv hosil bo'ldi. Kavendish yangi gazni "Yonuvchi havo" deb atadi. U oddiy havo kabi rangsiz, hidsiz bo'lib, ta'mi ham yo'q edi. Bu tekshirishlar 18-asrning ikkinchi yarmida amalga oshirildi. Keyinroq farang kimyogari Lovoaz'e yangi gazni Vodorod "Suvchil" deb atadi.

Vodorod tabiatda juda keng tarqalgan bo'lib, u kosmik fazoda, tumanliklarda, yulduzlarda va quyoshda ham bor. Vodorodning yuksak bosim va o'n millionlarcha harakatda geliyga aylanishi quyoshning issiqlik nuri va yorug'lik tarqatishiga imkon beradi. Vodorod yerda ham juda ko'p. U barcha tirik organizmlarda, o'simliklarda, tog' jinslarida va albatta suvda mavjud.

GIPPOKRAT

Gippokrat (Hippokrates) (mil.av. 460, Kos oroli-377, Fessaliya), Buqrot, Abuqrot – yunon vrachi, ilmiy tibbiyot asoschilaridan biri. Gippokrat Yunonistonda mashhur bo'lgan shifokor gippokratlar sulolasining o'n sakkizinchi avlodi. U tibbiyotga oid ma'lumotni otasi Geraklitdan olgan. Gippokrat asarlari G'arb va Sharq vrachlari qo'lida mo'tabar qo'llanma bo'lib keldi. Gippokratga 75 ga yaqin asar nisbat beriladi. "Majmuayi Buqrotiya" ("Buqrot to'plami") nomi bilan mashhur bo'lgan bu asarlarning aksarisini Gippokrat vafotidan keyin o'g'illari va shogirdlari yozgan. Gippokrat asarlarini va ularga Galen bergan sharhlarni Hunayn ibn Ishoq (809-877) suryoniy va arab tillariga tarjima qilgan.

Gippokrat tibbiyotni kohinlar ta'siridan qutqardi va uning mustaqil rivojlanish yo'llarini ta'rifladi, vrach kasallikni emas, balki bemorni davolashi kerak, deb ta'lim berdi. Tashqi muhit omillari (iqlim, tuproq, suv kishilarning hayot yo'sini, mamlakat, qonunlari va b.)ni odamga, unda jismoniy va ruhiy xususiyatlarning shakllanishiga ta'siri jihatdan ajratdi. Shifokor xulq-atvorining qisqacha ta'rifi bo'lgan qasamyod ("Gippokrat qasamyodi") matnini ham Gippokrat yozgan deyiladi. Gippokratni "tibbiyotning otasi", deb ataydilar.

SUV - NOYOB TABIIY BOYLLIGIMIZ

Hozirgi vaqtda atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning eng muhim muammolaridan biri aholini yetarli miqdorda toza ichimlik suvi bilan ta'minlashdir.

Umumiy sanoat korxonalari mavjud suv manbalarining 20% ni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishdan chiqqan oqava suvlar tarkibida o'ta zaharli moddalar, og'ir metallar mavjud. Kon-ruda sanoati korxonalari oqava suvlarida og'ir metallar ruxsat etilgan me'yordan 50 barobar, neft undan ham ko'p uchraydi. Tahliliy nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiyasi mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, 626 sanoat korxonalaridan ko'p miqdorida yetarli tozalanmagan oqavalarni chiqib turibdi.

Sayyoramizning to'rtinchi qismini okean, dengiz, ko'l va daryolarning suvi egallagan. Ammo iste'mol qilishga yaraydigan toza ichimlik suv miqdori juda oz yerdagi jami suv zahirasining o'rtacha 0,6%ni tashkil etadi.

Suv muhofazasining muhim asosiy shartlaridan biri uni tejimli sarflashdir. Suvni tejashda oqava suvlarni yig'ib uni tozalash va qayta ishlash katta ahamiyatga egadir. Bu ish foydalanadigan suvni tejaydi, yerni suv sho'rlanishi va suvni ifloslanishini oldini oladi. Yapon yozuvchisi Xerosi Noma: "Mabodo kelgusida xayot tamom bo'lsa, u atom urushidan emas, suv etishmovchiligidan bo'ladi", degan edi.

Shuning uchun ham biz hayot manbai bo'lgan suvni toza saqlash va ko'paytirish choralarini ko'ra olsak, kelgusida xalqimizning sog'lom va farovon turmush kechirishini ta'minlagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T.: Aloqachi, -2005.
2. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun o'qub qo'llanma. -T.: Aloqachi, -2007.
3. Asqarova M. va boshq. O'zbek tili praktikumi. -T.: TDPU, 2007.
4. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlari bakalavriatning rusiyzabon guruhlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2006.
5. Adilova S., To'xtamirzayev M. O'zbek tili (bakalavriatning barcha yo'nalishlari rusiyzabon talabalari uchun o'quv qo'llanma). –T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, -2007.
6. Adilova S., Mirazizov A., Quvondiqova I., Sidiqova M. Amaliy o'zbek tili (oliy o'quv yurtlari ijtimoiy-gumanitar fakultetlarining rus guruhlari uchun metodik qo'llanma). –T.: TDPU, -2010.
7. Adilova S., Mirazizov A., Mirazizova D., Yunusova Sh. Amaliy o'zbek tili (oliy o'quv yurtlari tabiiy fanlar, fizika-matematika fakultetlarining rus guruhlari uchun metodik qo'llanma). –T.: TDPU, -2010.
8. Adilova S., Mirazizov A. Amaliy o'zbek tili. Oily o'quv yurtlarining aniq fanlar va informatika yo'nalishlari uchun qo'llanma. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
9. Azimov I., Saparniyozova M. Ona tilidan ma'ruzalar va testlar majmuasi. -T.:TDPU, 2008.
10. Siddiqova M., Mutalipova M. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: TDPU, 2004.
11. Saparniyozova M., Ahmedova N., Abdullayeva D. Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -T.: TDPU, -2011.

MUNDARIJA

1-mashg'ulot.....	3
2-mashg'ulot.	6
3-mashg'ulot.	10
4-mashg'ulot.	12
5-mashg'ulot.	15
6-mashg'ulot.	17
7-mashg'ulot.	20
8-mashg'ulot.	23
9-mashg'ulot.	26
10-mashg'ulot.	29
11-mashg'ulot.	32
12-mashg'ulot.	34
13-mashg'ulot.	36
14-mashg'ulot.	38
15-mashg'ulot.	42
16-mashg'ulot.	44
17-mashg'ulot.	46
18-mashg'ulot.	50
19-mashg'ulot.	53
20-mashg'ulot.	56
21-mashg'ulot.	59
22-mashg'ulot.	62
23-mashg'ulot.	65
24-mashg'ulot.	69
25-mashg'ulot.	73
26-mashg'ulot.	76
27-mashg'ulot.	80
28-mashg'ulot.	82
29-mashg'ulot.	85
30-mashg'ulot.	88
31-mashg'ulot.	90
32-mashg'ulot.	93
33-mashg'ulot.	97
34-mashg'ulot.	99
35-mashg'ulot.	102
36-mashg'ulot.	106
37-mashg'ulot.	110
38-mashg'ulot.	114

**S.ADILOVA, G.NORIMOVA, I.QUVONDIQOVA,
A.MIRAZIZOV, SH.YUNUSOVA**

O‘ZBEK TILI

(METODIK QO‘LLANMA)

Adadi 325 nusxa. Hajmi 9,25 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.